

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida

UDK

Muqimova Gulnora Rashidovna

**HOZIRGI O`ZBEK ADABIY TILIDA SIFATLARNING SEMANTIK-
FUNKTSIONAL XUSUSIYATLARI**

**mavzusidagi 5A120102-Lingvistika (o`zbek tilshunosligi) magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi,

dotsent T. Asadov

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASIGA ANNOTATSIYA

Sifat o'zbek tilida o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'z turkumi sifatida ajratilgan. Sifat leksemalarni yoritishda semantik-uslubiy xususiyatlar oqsamoqda. Bu kabi holatlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

MDning maqsadi sifatning ma'no jihatidan turlarini semantik-funksional xususiyatlarini ochish. Vazifalari:

- sifat so'z turkumi va uning lingvistik tabiatiga munosabat bildirish;
- sifat leksemalarining ma'no ko'chish sabablarini o'rganish;
- konversiya hodisasini sharhlash;
- sifatlarning semantik-funksional xususiyatlarini ochish

MDning obyekti sifatida o'zbek adiblari asarlari, “O'zbek tilining izohli lug'ati”, “O'zbek tilining etimologik lug'ati” dan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti. Hozirgi o'zbek tilida sifatlarning semantik-funksional xususiyatlaridir.

Metodologik asosida dialektik, tavsifiy, qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Ishning yangiligi:

–o'zbek tilida sifat so'z turkumi va uning lingvistik tabiatiga munosabat bildirildi;

–sifat leksemalarining ma'no ko'chish sabablari o'rganildi;

–sifatda kuzatiladigan konversiya hodisasi yoritildi;

Amaliy ahamiyati va tatbiqi: ish nazariy jihatdan sifatlarga xos semantik xususiyatlarni yanada chuqur anglashga asos yaratadi. Amaliy jihatdan esa turli

o`quv qo`llanmalar, lug`atlar tuzishda, ma`lum bir narsaga xos rangni bildiruvchi sifatlar, sifat asosida shakllangan o`zbekcha kishi ismlariga oid monografiyalar yaratish uchun xizmat qiladi. Mavzu yuzasidan “Filologiya masalalari” (2013, 2014 yillar)da, magistrlar to`plamlarida maqolalar nashr qilindi, BuxDU professor-o`qituvchilarining 2013-yilda o`tkazilgan an`anaviy-ilmiy anjumanida ma`ruza qilindi.

Ish kirish (Ishning umumiy tavsifi), uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, 83 sahifani tashkil etadi.

Ilmiy rahbar

T. Asadov

Magistratura talabasi

G.Muqimova

Annatation of master thesis

The adjective in Uzbek language is a independent parts of speech. To show the adjective lexemes the indication of semantic method is paralyzed. I snows the importance of the theme. The aim of the work is to open the meaning of adjectives and type their semantic functional indication

Tasks:

- The adjective as a parts of speech and its linguistic nature.
- To learn the lexemes of adjectives figurative sense.
- To definite the process of conversion .
- To open the semantic functional indication of adjectives.
- As an object we used Uzbek dictionary.

And etymology dictionary.

SUBJECT. The semantic functional indication of adjectives in Uzbek

In our work we use dialectic comparative historical methods.

News

Adjective in Uzbek and its lynvistic.

To learn the reason of figurative sense of adjectives .

To illuminate the process of conversation of adjectives.

The importance and apply. This work helps us to learn the semantic role of adjectives.

The practical side is to make dictionaries and to do monographs.

Many articles were published in (Filologiya masalalari) in 2013-2014.

There was reports about it

MUNDARIJA:

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	4
I BOB. SO`Z TURKUMLARI TIZIMIDA SIFAT VA UNING LINGVISTIK TABIATI.....	7
I. 1. O`zbek tilshunosligida sifat so`z turkumi.....	7
I. 2. Ayrim sifat leksemalarining etimologiyasi.....	14
I. 3. Sifatda konversiya hodisasi.....	17
I. 4. Narsa asosida shakllangan sifat leksemalar.....	21
II BOB. SIFAT MA`NOVIY GURUHLARINING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	25
II. 1. Xususiyat, holat, shakl bildiruvchi sifatlar.....	25
II. 2. Rang-tus, maza-ta`m, hid bildiruvchi sifatlar.....	31
II. 3. Hajm-o`lchov, o`rin va paytni bildiruvchi sifatlar.....	38
III BOB. SIFAT MA`NOVIY GURUHLARINING SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI.....	42
III. 1. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari.....	42
III. 2. Holat bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari.....	49
III. 3. Rang-tus bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari.....	59
III. 4. Hajm-o`lchov bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari.....	68
III. 5. Shakl bildiruvchi sifatlarning semantik - uslubiy xususiyatlari.....	70

III. 6. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari.....	71
III. 7. Hid bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari...	72
III. 8. O`rin va payt bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari.....	74
UMUMIY XULOSA.....	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	79

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har bir xalqning tili uning tarixiy taraqqiyotidagi eng noyob va mukammal boyligidir. Tilda xalqning taqdiri, yashash tarzi, ma`naviy boyligi aks etadi. Til millat ruhining betakror va hech zamonda xira tortmas ko`zgusidir. Har bir tilda shu til egasi bo`lgan millatning saviyasi, ruhiyati yorqin ifodasini topadi. Shu sababli har bir xalq ona tilining sofliги, kamoloti va rivoji uchun tinmay qayg`uradi. Prezidentimiz bu borada shunday deydi: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi...Ona tili bu millatning ruhidir. O`z tilini yo`qotgan har qanday millat, o`zligidan judo bo`lishi muqarrar”[2].

Hozirgi davr o`zbek tilshunosligi o`z tadqiqotchilaridan ko`pgina yangiliklarni, ilmiy izlanishlarni, zamon bilan hamnafas bo`lishi uchun ezgu ishlarni kutyapti. Bunga javoban o`zbek tilshunosligida aniqlangan lisoniy umumiyliklarni nutqiy voqelanishini tekshirishga, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, qo`llanish doirasini kengaytirish muammolari bilan shug`ullanishga qiziqish kundan-kunga oshib boryapti.

Grammatikaning ajralmas bir qismi bo`lgan o`zbek tili morfologiyasida boshqa so`z turkumlari qatori sifat ham katta o`rin egallaydi. Sifat o`zbek tilida o`zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko`ra mustaqil so`z turkumi sifatida ajratilgan. Sifat so`z turkumining ko`p qirralari bo`yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan [26;46;50;45;56;58;59]. Ammo sifatning leksik-semantik xususiyatlari haqidagi fikrlarni yetarli deb bo`lmaydi. Qolaversa, sifat leksemalarni tadqiq etishda zamonaviy tilshunoslikdagi eng ilg`or metodlardan, xususan, semantik- uslubiy izoh, komponent tahlil, qiyosiy- statistik tahlil

metodlaridan foydalanish oqsamoqda . Bu kabi holatlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** Sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari A.G`ulomov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, R.Qo`ng`irov, M. Sodiqova, B.O`rinboyev, S.Karimov, B.Yo`ldoshev, B.Yoriyev, Z.Pardayev kabi olimlarning tadqiqotlarida o`rganilgani kuzatiladi[22;26;28;31;33;50]. Biz yuqoridagi ishlarga tayangan holda ish ko`rdik.

**Tadqiqotning ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog`liqligi.** Dissertatsiya mavzusi BuxDU Ilmiy kengashining 2012 yil 26-noyabr majlisi (4-sonli bayonnoma)da tasdiqlangan. Tadqiqot BuxDU “O`zbek filologiyasi” kafedrasida o`rganilayotgan “O`zbek tilining struktur tadqiqi” istiqbolli rejasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Sifatning ma`no jihatidan turlarini semantik-funksional xususiyatlarini ochib berish.

Yuqoridagi maqsadni amalga oshishi quyidagi vazifalarni hal etishga bog`liq:

- o`zbek tilida sifat so`z turkumi va uning lingvistik tabiatiga munosabat bildirish;
- sifat leksemalarining ma`no ko`chish sabablarini o`rganish va izohlash;
- sifatda kuzatiladigan konversiya hodisasini sharhlash;
- o`zbek tilidagi sifatning semantik-funksional xususiyatlarini ochib berish, matndagi imkoniyatlarini sharhlash.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqotimizning obyekti sifatida o`zbek yozuvchi va shoirlarining asarlari, matbuot materiallari, shuningdek, besh tomlik “O`zbek tilining izohli lug`ati”, “O`zbek tilining etimologik lug`ati” kabi manbalardan to`plangan faktik dalillar xizmat qiladi.

Tadqiqotning predmeti. Hozirgi o`zbek tilida sifatning semantik-funksional xususiyatlari.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik metod, ya'ni tadqiq jarayonida umumiylik va xususiylik, sabab-oqibat dialektikasiga tayanish, umumiylikning butunligi va ichki ziddiyatligi, voqea (hodisa)larning esa mazmunan, shaklan behad rang-barangligi, lekin mohiyatan bir xilligi kabi tamoyillar tashkil etadi. Bunday yondashishda tilshunoslikning tavsifiy, qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi:

- o'zbek tilida sifat so'z turkumi va uning lingvistik tabiatiga munosabat bildirildi;
- sifat leksemalarining ma'no ko'chish sabablari o'rganildi va izohlandi;
- sifatda kuzatiladigan konversiya hodisasi yoritildi;
- o'zbek tilidagi sifatlarning semantik-funksional xususiyatlarini ochib berildi, matndagi imkoniyatlari sharhlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ish nazariy jihatdan sifatlarga xos semantik xususiyatlarni yanada chuqur anglashga asos yaratadi. Amaliy jihatdan esa turli o'quv qo'llanmalar, konspektiv kurslar, lug'atlar tuzishda, shuningdek, kelgusida o'zbek tilshunosligida sifatlarning ma'noviy guruhlari, semantik strukturasi, ma'lum bir narsaga xos rangni bildiruvchi sifatlarni, sifat asosida shakllangan o'zbekcha kishi ismlariga oid monografiyalar va o'quv qo'llanmalari yaratish uchun material bo'lib xizmat qila oladi.

Ishning sinovdan o'tishi. Ish BuxDU "O'zbek filologiyasi" kafedrasida muhokama qilinib (14. 05. 2014) himoyaga tavsiya etilgan

Tadqiqotning joriylanishi va e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan "Filologiya masalalari" (2013, 2014 yillar)da, magistrlar to'plamlarida maqolalar nashr qilindi, shuningdek, BuxDU professor-o'qituvchilarining 2013-yilda o'tkazilgan an'anaviy-ilmiy anjumanida ma'ruza qilindi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish (Ishning umumiy tavsifi), uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 83 sahifani tashkil etadi.

I BOB. SO`Z TURKUMLARI TIZIMIDA SIFAT VA UNING LINGVISTIK TABIATI

I. 1. O`zbek tilshunosligida sifat so`z turkumi

O`zbek tili morfologiyasida, boshqa so`z turumlari qatori sifat ham katta o`rinni egallaydi va o`zining leksik-grammatik va semantik xususiyatlariga ko`ra mustaqil so`z turkumi sifatida ajratilgan. Sifat so`z turkumining ko`p sohalari ustida dissertatsiyalar yoqlandi, ilmiy maqolalar yozildi. Ayniqsa, kiyingi yillarda sifat semantikasi, stilistik xususiyatini o`rganishga e'tibor kuchaydi. XX asrning 40-50 - yillarida bir qator olimlar tomonidan leksik ma'noning komponent strukturasi haqidagi fikrlar ilgari suruldi. G.Xeller va J.Makris rang ifodalovchi leksemalarning o`rganar ekanlar, ular o`z tadqiqotlarida ma'noning semantik komponentlarini darajalaydilar. O`zbek tilshunosligida leksik ma'noni kompanentlardan iborat ekanligi dastlab SH. Rahmatullayev, I.Qo`chqortoyev, R.Yunusovlarning ishlarida ilgari surulgan. Uni tadqiq etishga bag'ishlangan yirik hajmdagi asarlar maydonga keldi. Shu tarzda semaseologiya tilshunoslikning barcha sathlarida o`z o`rnini topa boshladi. Tadqiqot ishimizda semantika haqida so`z borar ekan,avvalo *semema va uning tarkibiy qismlariga* to`xtalishni lozim topdik. Narsa shakl va mazmun yaxlitligidan iborat dialektik butunlik bo`lganligi kabi leksema ham tashqi va ichki jihatdan tashkil topadi. Leksemaning tashqi qobig`i nomema deb ataladi. Nomema deganda leksemaning moddiy tomonini tashkil etgan fonemalar hosilasi – nutq tovushlari nazarda tutiladi. Leksemaning ichki, mazmuniy tomoni semema deyiladi. Semema – ongda aks etgan narsa, belgi, miqdor, harakat kabi tushunchaning leksemada mujassamlashgan ko`rinishi [27].

Boshqacha aytganda, semema leksemaning ichki jihati. Tilshunoslikda sememani tashkil etuvchi unsur sifatida sema ajratiladi. Semema tarkibidagi sema bir xil emas. Sema mohiyatiga ko'ra uch xil bo'ladi:

- 1) atash semasi (denotativ sema);
- 2) ifoda semasi (konnotativ sema);
- 3) vazifa semasi (funksional sema).

Atash semasi borliq bilan, *ifoda semasi* so'zlovchining munosabati bilan, *vazifa semasi* esa leksemaning lison va nutqdagi roli bilan belgilanadi. Ifoda semani matndan tashqaridan emas, balki matn doirasida chuqurroq his etamiz. Darhaqiqat, qizlarning *oy, moh, quyosh, oltin, kumush, yoqut, gavhar, gul; yigitlarning chinor, burgut, arslon, sher* va hokazolarga nisbat berilishi ifoda sema bilan bog'liq. Quyidagi misollarga e'tiborberaylik:

Qo'lim tegmay to'kilgan qizg'aldog'im,

Endi seni izlab qaydan toparman. (M.Yusuf)

Yoki: Kel ovqatingni yeb ol, arslonim. (H.Nazir)

Bularda *moh*, ya'ni oyning (to'lin oy) yorug'ligi, qizg'aldoqning nozikligi, qo'l tegishi bilan to'kilib ketishi, arslonning kuchliligi, qat'iyatligi ma'no ko'chirilishiga asos bo'lib xizmat qilib kelgan.

Xullas, so'zni atash va ifoda semasi biri ikkinchisi bilan uzviy aloqada bo'ladi. Har qanday ifoda sema (konnotastiya) atash semadan o'sib chiqqan bo'ladi. Har qanday ifoda semani, konnotativ ma'noni chuqur anglash, undagi nozik ma'noni his qilish uchun avval denotativ ma'no (bosh ma'no, atash ma'no, o'z ma'no, asl ma'no)ni, undagi asl ma'no ifodasini chuqur anglash talab etiladi. Shundagina, konnotativ ma'noni tushunish, undan o'rinli foydalanishga zamin yaraladi.

So'z turkumlari tizimida o'zining sermahsul va qo'llanilish doirasi bilan ajralib turadigan *sifat so'z turkumining atash ma'nosi* predmet, voqea-hodisa, holat va qisman ish- xarakatning belgisini bildirishdir. Belgining o'zi bir necha xil bo'ladi. Masalan, xarakter-xususiyat, shakl-ko'rinish, holat, rang-tus, maza-ta'm, hid, o'rin va payt kabi belgilardir. Belgi ifodasi nafaqat sifatlarga, balki

boshqa soʻz turkumlariga ham xosdir. Masalan, ot ham matnda (bogʻli qurshovda) sifat kabi belgi ifodalashi mumkin: shakar qiz, oltin soat, zilol suv va hokazo. Ayrim sifat xarakteridagi olmoshlar ham sifat kabi belgi ifodalash imkoniga ega: hamma oʻquvchi, barcha xalq, hech bir inson kabi. Ravish belgi bildirishiga koʻra sifat bilan mushtaraklik hosil qiladi, yaʼni ravish ham sifatlardek predmet belgisini ifodalab keladi: *mardona jang, doʻstona uchrashuv, betoʻxtov harakat* va hokazo.

Sifat soʻz turkumining oʻziga xos lingvistik xususiyatlaridan biri uning *polesemantik xususiyatidir*. Polesemantika bu –formal tilshunoslikda bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzni farqlaganligi kabi nazariy leksikologiyada bir sememali va koʻp sememali leksema farqlanadi. Nutqda qoʻllangan soʻz har doim bir maʼnoli. Chunki, soʻz leksemaning bir martalik koʻrinishi boʻlib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega.

Leksema bir tushunchani ifodalasa, u bir sememali leksema deyiladi. Masalan, kichik leksemasi bir tushunchani ifodalaydi va shu sababli bir sememali leksema hisoblanadi. Ammo nutqda leksema koʻchma qoʻllanishda har xil tushunchalarni ifodalayverishi mumkin. Lekin maʼno va tushuncha orasidagi munosabat ijtimoiy shartlanganlik va barqarorlik kasb etmasa, leksemaning koʻp sememaliligi haqida hukm chiqarib boʻlmaydi. Jamiyat taraqqiy etishi bilan nutqiy hosila maʼno vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, bora-bora barqarorlashib boradi va hosila nutqiy maʼno lisoniylashadi. Natijada bir sememali leksema birdan ortiq sememali leksemalarga aylanib boradi.

Nutqimizda shunday soʻzlar borki, tadrijiy taraqqiyot davomida oʻzida sifatlovchilik xususiyatini singdira borgan. Bu holni, yaʼni bir turkumga oid soʻzning boshqa turkum xususiyatlarini oʻzida paydo etishini analogiya hodisasi sifatida belgilaydilar[8]. Bu esa yondosh turkum soʻzlari orasida koʻp kuzatiladi. Ot turkumiga oid bir qator soʻzlar, sifat turkumiga oid soʻzlar bilan yonma-yon “yashashi” natijasida sifatlik xususiyatlariga ham ega boʻlganligiga guvoh boʻlamiz. Jumladan, asal, shakar kabilarni bunga misol qilish mumkin.

Bu kabi soʻzlardagi maza-taʼm belgisi ushbu soʻzlarning sifatlar sari siljishiga ham zamin yaratgan. Bir guruh sifatlar borki, ularning umumiy maʼnosi asosida kishi ismlari yuzaga kelgan. Sifat asosida hosil boʻlgan atoqli otlarning maʼno ifodasi boʻyicha aytilgan fikrlar fanda munozaralidir.

Sifat asosida paydo boʻlgan kishi ismlarini quyidagi guruhlariga boʻlib tadqiq etish mumkin:

1. Xususiyat sifatleri asosida shakllangan atoqli otlar: Abay, Kuzan, Bayri, Chevar, Bakir, Daler, Chaqqon, Oʻktam, Oʻtkir;
2. Holat sifatleri asosida shakllangan atoqli otlar: Uljon, Toʻqboy, Toshbotir, Soʻlim, Suyarbek, Olqinboy, Yorqin, Yolqin, Boʻkay, Gajir, Bayan, Barlos, Bayna, Bayot, Abjir, Barchin, Bokira;
3. Rang-tus asosida shakllangan atoqli otlar: Qorajon, Oqqiz, Sari(sariq sochli), Sariboy, Qoraqiz, Yashil, Qoracha, Koʻkqiz;
4. Shakl - koʻrinish asosida shakllangan atoqli otlar: Doʻmbaqoy, Oyday, Oydon, Oycha;
5. Maza-taʼm bildiruvchi sifatlar asosida shakllangan atoqli otlar: Chuchuk, Shirin, Laziz, Bolbib, Bolqiz, Totli;
6. Hajm-oʻlchov sifatleri asosida shakllangan atoqli otlar: Kattabek, Uzoq, Uzun, Mitti, Mittigul, Ortiq va b.

Bu qatorni yana davom ettirishimiz mumkin. Koʻrinadi, soʻz maʼno imkoniyati grammatikani belgilashda ham oʻziga xos oʻrin tutadi. Xulosa qilib shuni aytish lozim koʻrdikki, tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etgan polesemantika sifatlarda koʻp uchraydigan hodisasi boʻlib, nutqimiz boyligiga oʻz hissasini qoʻshib kelgan.

Sifatlar oʻziga xos quyidagi morfologik xususiyatlarga ega:

a) sifatning eng asosiy morfologik xususiyati uning yasalişidir. Sifatlar ikki usul bilan yasaladi: affiksatsiya va kompozitsiya. Sifat yasovchi qoʻshimchalar miqdori 50 ga yaqin. (Bular haqida kiyingi qismlarda alohida toʻxtalamiz).

b) *sifatlarning muhim yana bir morfologik xususiyati uning belgni qiyoslab, darajalab ko'rsatishidir*. Sifatlarning quyidagi darajalari bor: oddiy daraja, orttirma daraja, qiyosiy daraja, ozaytirma daraja.

I. Oddiy darajadagi sifatlarda belgi boshqa predmetlardagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmaydi. Bu daraja belgining odatdagi me'yorda ekanligini ko'rsatadi va maxsus ko'rsatkichga (qo'shimchaga) ega emas: keng ko'cha, yashil barg, yaxshi odam.

II. Orttirma daraja predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan eng ko'p ekanligini ifodalaydi va quyidagi usullar yordamida hosil qilinadi.

1. Morfologik usul: a) so'zning birinchi bo'g'ini ajratilib, unga keyingi bo'g'indagi birinchi undosh qo'shiladi-da, yopiq bo'g'in hosil qilinadi va undan keyin to'liq shakli takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana; b) so'zning oldingi ikki tovushi ajratilib unga p, m tovushlaridan biri qo'shiladi va undan keyin so'zning o'zi takrorlanadi: yap-yangi, ko'm-ko'k; v) so'zning birinchi bo'g'inidan keyin –ppa shakli qo'shiladi: soppa-sog', to'ppa-to'g'ri.

2. Leksik usul. Bu usul bir necha turga bo'linadi: a) ma'noni kuchaytiruvchi so'zlar qo'llanadi. Masalan, juda, eng, g'oyat, nihoyatda, bir, biram, tim, naq, zap, behad, benihoya, cheksiz, nihoyasiz, beqiyos[26;43]. Faqat uning tengsiz husniga oddiy bir jo'n odam sifatida lol bo'lib turubman, xolos. (S.Ahmad) b) takroriy juft so'zlar vositasida. Kamol baquvvat tishlari bilan yong'oqlarni qars-qars chaqib, oltin rangli barmoqday-barmoqday mayiz bilan yeya boshladi. (Oybek) v) turli so'z birikmalari, idiomatik iboralar vositasidama'no ortiriladi. Ellik yoshlardagi haddan ziyod cho'tir bir kishi karavotdan oyoqlarini tushirib yotardi. (Oybek)

3. Leksik-semantik usul. Bunda belgi bildiruvchi so'zlar oldidan yoki ular o'rniga boshqa turkumdagi so'zlar qo'llanadi: zahar (garmdori), olov (bola);

4. Fonetik usul: a) unlilar cho'zib aytiladi: tooza, chuquur; b) undoshlar ikkilanadi: tekkis, mazza, yummsheq.

III. Qiyosiy daraja predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan ortiq ekanligini ifodalaydi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga -roq qo'shimchasini qo'shish yoki sifatdan oldin *bir-biridan, undan ham, yanada* so'zlarini keltirish bilan yasaladi: Olma daraxti shaftoli daraxtidan balandroq. Bir-biridan go'zal, Bundan ham battar, Yanada kuchli.

IV. Ozaytirma daraja belgi darajasining me'yorga yetmaganligini, me'yordan pastligini ifodalaydi. Ozaytirma daraja quyidagicha hosil bo'ladi:

1) qo'shimchalar yordamida: oqish, qizg'ish, qoramtir, -roq qo'shimchasi ham ozaytirma darajani ifodalashda qatnashadi (bunda bir narsadagi belgi boshqa narsadagi shunday belgiga qiyoslanmaydi, eskiroq (kiyim)

2) sifatdan oldin yarim, nim, och, xiyol, sal, aytarli, uncha, u qadar...emas so'zlarini keltirish bilan: yarim ochiq (eshik), uncha katta emas.

Sifat darajalari yasovchi qo'shimchalarning sinonimiyasi. Sifatlardagi qiyos belgini qayt etuvchi -roq ning sinonimlari ham bor: -ish, -mtir, -imtir kabilar predmetlar belgisining kamligini ko'rsatadi va -roq qo'shimchasiga ma'nodosh bo'ladi. Lekin -roq orqali bir belgini boshqasiga solishtirish ifodalanadi. Agar -roq orqali shakllangan sifatlarda boshqa vositalar ham bo'lsa (-dan, ko'ra, nisbatan, qaraganda va b.) belgining ortiqqligi anglashiladi:

– Sendan yuksak nima bor, Yulduz?

– Onalar mehri.

– Qaydan olding otashni, Quyosh?

– Ona qalbidan?

Sifatning tuzilishiga ko'ra 4 xil bo'ladi: sodda, juft, takroriy va qo'shma.

Sodda sifatlar:

Tub sodda: yaxshi, shirin, oq, baland, keng, mo'rt, tor va hokazo.

Yasama sodda: ishchan, devoriy, maqtanchoq, noo'rin, hiylagar, ozg'in, sezgir, quvnoq va hokazo.

Juft sifatlar.

I. Har ikki qismi yakka holda ishlatiladi:

1. Qismlari o`zaro sinonim: aql-hushli, ajoyib-g`aroyib, boy-badavlat, och-nahor, ola-chipor, pishiq-puxta, son-sanoqsiz, sarson-sargardon va b.

2. Qismlari o`zaro antonim: achchiq-chuchuk, baland-past/ past-baland, vayron-u obod, issiq-sovuq, yiroq-yaqin, tanish-notanish, uzoq-yaqin va b

3. Qismlarining ma`nosi yaqin: ijtimoiy-siyosiy, kuydi-pishdi, mosh-guruch, mo`min-qobil, ochiq-oydin, och-yalong`och, soya-salqin va b.

II. Bitta qismi yakka holda ishlatiladi: aralash-quralash, achchiq-tizziq, burma-churma, bo`ltak-so`ltak, devor-darmiyon, yengil-yelpi, yolg`on-yashiq, yosh-yalang va b

III. Har ikki qismi yakka holda ishlatilmaydi: aji-buji, almoyi-aljoyi, apoq-chapoq, aloq-chaloq, dali-g`uli, zim-ziyo, ilang-bilang, poyintar-soyintar, uvali-juvali, o`poq-so`poq.

Takroriy sifatlar: yaxshi-yaxshi, katta-katta, shirin-shirin, burda-burda, yo`l-yo`l, oppoq-oppoq.

Qo`shma sifatlar:

1. Sifat+ot: yapoloqyuz, xomkalla, sho`rpeshona, kaltafahm, ochofat, maydagap, shikastahol, shirinsuxan, sovuqqon;

2. Ot+sifat: boshqarong`u, yoqavayron, jig`ibiyron, tepakal, xonavayron, xudobexabar, otabezori, dilxasta, nonko`r;

3. Ot+ot: bodomqovoq, sheryurak, darveshsifat, devqomat, dilozor, dilorom, dilpora, izzattalab, kafangado, otashnafas, sohibjamol, jigar rang, havo rang;

4. Ravish+ot: hozirjavob, kamgap, kamsuxan, kamsuqum, kamqon, kamxarj;

5. Fe`l+fe`l: yebto`ymas;

6. Ravish +fe`l: tezpishar, kechpishar, cho`rtkesar;

7. Olmosh+ot: o`zboshimcha;

8. Ot+fe`l: tilyog`lama, gadoytopmas, tinchliksevar, jonkuyar;

9. Olmosh+sifat: o`zbilarmon;

10. Son+ot: ikkiyuzlamachi, qirqyamoq.

Sifatning otlashuvi esa uning gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir. Sifatlanmish tushurib qoldirilsa, sifat o'sha otning shakliy belgilarini qabul qiladi, hamda ularning sintaktik vazifasini bajaradi.

a)Ega bo`lib keladi: Yaxshi oshini yer, yomon – boshini.

b)Qaratqich- aniqlovchi bo`lib keladi: Saxiyning ehsoniga baxilning boshi og`rir.

c)To`ldiruvchi bo`lib keladi: Yaxshidan adashma, yomonga yondashma.

d)Undalma bo`lib keladi. Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.

Sifatlar ba'zida qiyosiy daraja shaklida ham otlashib keladi: Askarlar esa ularning orasidan chaqqonroqlarini ko`z ostiga olib qo`yganday bo`lar edi.

Sifat sintaksisda, asosan, sifatlovchi aniqlovchi, ot-kesim, shuningdek, tarz (ravish) holi bo`lib keladi. Otga xos kategoriyani olsa, boshqa gap bo`laklari bo`lib keladi. Bechoralarga yordam berish kerak (Hamza); a) sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida keladi: Ochil buva o`tkir, qora ko`zli, serqosh chiroyli yigit bo`lgan. (A.Muxtor) v) sifat ot-kesim bo`lib keladi: Gul qizil. Devor oq.

g) sifatlar gapda bundan tashqari ravish (tarz va vaziyat) holi bo`lib keladi: U qiziq kular ekan. Qobil bobo dardli xo`rsindi. (A.Qahhor)

Xullas, so`z turkumlari tizimida sifat o`ziga xos o`ringa ega. Bu turkumga oid so`zlar uzoq tarixiy taraqqiyotni kechirgan. Sifat so`zlar atash ma'nosiga ko`ra belgi, aniqrog`i, turg`un, barqaror belgi ifodasiga ega. Bu turkum so`zlar polisemiyaga boy. Bu hol ham uning uzoq tadrijiy taraqqiyoti bilan bog`liq. Sifat morfologik jihatdan yasalish tizimiga ega. Shuningdek, morfologik o`zgaradi va darajalanadi. Sifat sintaksis xususiyatiga ko`ra bog`li qurshovda (matnda) o`z pozitsiyasiga ega. Sifat so`zlarning polisemantik hamda semantik-funksional xususiyatlari alohida tadqiqotni talab etadi. Bu so`zlarning matnda imkoniyatlari juda keng. (Bu borada keyingi bobda to`xtalamiz)

I. 2. Ayrim sifat leksemalarining etimologiyasi

Etimologiya atamasi soʻzlarning kelib chiqishi, shakllanish tarixini oʻrganuvchi boʻlim boʻlib, musbat rivojlanish yoʻliga ega.

Bu boʻlim:

1) soʻzlarning lugʻaviy maʼno koʻlamini yoritadi.

2) soʻz oʻzagini aniqlaydi.

3) tilning tarixiy taraqqiyoti davomidagi oʻzgarishlarni tahlil qiladi [42]. Masalan, dehqon soʻzi yer ochib, ekin oʻstiruvchi qishloq odamini bildiradi. Bu soʻz asli tojikcha boʻlib, deh-“qishloq”, qon/ xon/ “hokim” degan maʼnolarni bildiradi. Qadimda yer egalarini dehqon deyishgan. Hozirda “ekin-tikin ishlari bilan shugʻullanadigan odam” tushunchasini beradi. Mehnat soʻzi mumtoz adabiyotda “mashaqqat”, “zahmat”, “azob-uqubat” maʼnolarida qoʻllangan:

Yod etmas emish kishini gʻurbatda kishi,

Shod etmas emish koʻngulni mehnatda kishi.(Bobur)

Mehnat hozirda jismoniy va aqliy koʻrinishdagi faoliyatni anglatadi: Mehnat-mehnatning tagi rohat. (Maqol)

Etimologik kuzatishlar, turkiy tillar etimologiyasiga bogʻliq fikrlar muayyan til, jumladan, oʻzbek tili tabiatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli biz ham oʻz ishimizda sifat soʻz turkumining tabiatini, tarkibini, asl maʼno mohiyati va bugungi kunda qanday semantik belgini namoyon qilishini koʻrsatish uchun ayrim sifat etimologiyasiga murojaat qildik. Sifatlarning etimologiyasini yoritishda Sh. Rahmatullayevning “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”dan foydalandik. Masalan: *Aniq* –noaniqlikdan xoli, ochiq-oydin. *Maqsadingizni aniq ayting*. Bu sifat asli qadimgi turkiy tildagi “ochiq-oydin boʻl –” maʼnosini anglatgan an - feʼlidan – (ы)қ qoʻshimchasi bilan yasalgan, oʻzbek tilida “a” unlisi ä unlisiga almashgan, ы unlisining qattqlik belgisi yoʻqolgan: ан- +ық = аниқ > äниқ. Asli soʻzi feʼl boʻlib, maʼlum bir qoʻshimchalar qoʻshilishi orqali bugungi kunda sifat boʻlganligiga guvoh boʻldik. Quyidagi soʻz bu holatning teskarisi boʻlib, asli sifat bugungi kunda otga oʻtgan *ayiq* otini koʻrib oʻtsak. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “besoʻnaqay”

ma'nosini anglatgan айы sifatining aksi bo'lgan айы fe'lidan -Ғ qoshimchasi bilan yasalgan. Айы- + Ғ = айыҒ > айық.

Babaq sifati qadimgi turkiy tilda “ota, otaning otasi” kabi ma'nolarni anglatgan. Баба otining katta ma'nosidan kichraytirish erkalash ma'nosini anglatuvchi -қ qoshimchasi qo'shib hosil qilingan; o'zbek tilidagi a unlisi ä unlisiga almashgan: баба +қ = бабақ > бәбәқ. Bugungi kunda babaq so'zi “jussasi katta, durkun” ma'nosida qo'llanadi. (tovuq, xo'roz haqida). *Baland tutdan qichqirganda babaq xo'roz...*(G'. G'ulom).

Bezbet (uyat-andishasi, or-nomusi yo'q). *Sindek bezbet bolani umrimda birinchi marta uchratishim.* Bu sifat bezbet birikmasining bir so'zga birlashuvi bilan yuzaga kelgan. Bu qo'shma sifat tarkibidagi bez qismi “ta'sirga berilmaydigan, qattiq” ma'nosi bilan qatnashgan: bez bet > bezbet.

Galdir (telba, ishq savdosiga duchor bo'lgan). Shu go'zal qizni debgaldir bo'lib yurgan yigitlar ozmi? Bu so'z гәлдир tarzida talaffuz qilingan bo'lib, asli chayqalish harakatini ifodalovchi tasvir so'ziga teng, ma'no taraqqiyoti natijasida sifatga ko'chgan.

G'o'zal sifati (xushro'y, husndor). Gulsum uning xayolida bu yerdagi go'zallarning go'zali bo'lib tura berdi (P.Tursun). Bu sifat asli qadimgi turkiy tildagi “nazar sol” ma'nosini anglatgan көс fe'lidan –(ä)л qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik so'z boshlanishidagi k undoshi g undoshiga; unlilar oralig'idagi s undoshi z undoshiga almashgan; o'zbek tilida ö unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: көс- +äl =go'zal.

Dang'illama (hajmi keragidan ortiq). ... bir kun kelib yangi dang'illama imoratlar solamiz...(A. Qahhor). Bu sifat дәнғир tovushiga taqlid so'zidan -лә qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga -mä qo'shimchasi qo'shib yasalgan; л tovushining ta'sirida uning oldidagi p undoshi л undoshiga almashgan. (дәнғир+лә= дәнғирлә) + мә = дәнғирләmä > дәнғилләmä. *Dang'illama* so'zlashuv uslubiga xos.

Jingalak (halqa shaklida buralgan). Ra'no tomorqada ...jingalak yungli qo'zichog'iga maysa yulib berayotgan edi (H.Nazir). Bu sifat qadimgi turkiy

tildagi “burma” ma’nosini anglatgan чим otidan -ga qo’shimchasi bilan yasalgan fe’lga –l qo’shimchasini qo’shib yasalgan va unga kichraytirish ma’nosini ifodalovchi – (ä)k qo’shimchasi qo’shilgan: [(чим+ гä= чим+ гä-) + л= чимгäл] +äк = чимгäлäк > жимгäлäк.

Yuqoridagi kabi misollar etimologik lug’atning anchagina qismini tashkil etadi. Sifat etimologiyasida aslida fe’l, ot, taqlid so’zlarning ma’no taraqqiyoti natijasida sifatga ko’chishi keng uchraydi. Shu bilan birga, diaxronik nuqtayi nazardan sifat bo’lib, ma’no taraqqiyoti natijasida boshqa so’z turkumiga ko’chgan so’zlar ham mavjud. Ayrim sifatning etimologik tahlili tadqiqotimiz asosi bo’lgan sifat so’zlarning ma’no xususiyatlarini yoritishda qo’l keladi. Chunki sifatning tarixiy taraqqiyoti hozirgi zamon sifat so’zlarining tahlili bilan bog’liq.

I. 3. Sifatda konversiya hodisasi

Sifat turkumiga xos so’zlar boshqa turkum so’zlari bilan muntazam qo’llanishi natijasi o’laroq shu turkumga xos lingvistik xususiyatlarni ham o’zida kasb eta borganligi, natijada boshqa turkum so’zlari guruhidan o’rin olganligiga guvoh bo’lamiz.

Umuman, bir turkum so’zi boshqa turkum so’ziga ko’chganda bir vaqtlar bir turkumda bo’lib, til taraqqiyoti natijasida ikkinchi turkumga o’tgan so’z nazarda tutiladi. So’z turkumlari orasida ko’chish bo’yicha olim A.G’ulomovning tadqiqotlari e’tiborga molik [33,46-52]. Bu boradagi oxirgi fundamental tadqiqotlardan biri J.Eltazarov tomonidan amalga oshirildi [32].

Hozirgi o’zbek tilida so’z turkumlararo ko’chishning quyidagi turlari mavjud: 1.Otlanish(Substantivatsiya), 2.Sifatlanish (Adyektivatsiya), 3.Sonlanish (Numerilizatsiya), 4.Olmoshlanish (Pronominalizatsiya), 5.Ravishlanish (Adverbializatsiya), 6. Fe’llanish (Verbalizatsiya), 7.Tasviriylanish (Essivatsiya) 8. Undovlanish (Interyektivatsiya), 9.Modallashish(Modalyatsiya), 10.Ko’makchilashish(Postpozitionalizatsiya),11.Bog’lovchilansh(Konyuktsionalizatsiya), 12. Yuklamalashish (Partikulyatsiya).

Har qanday tildagi soʻz turkumlari koʻchish hollarini bevosita tahlil qilayotganda bu masalaning ikki ajralmas tomoni: oʻsha soʻz turkumining boshqa soʻz turkumlariga koʻchishi va boshqa soʻz turkumlarining mazkur soʻz turkumga koʻchishini nazardan qochirmaslik kerak, chunki til birligining nutqda amal qilinishi va soʻz turkumlararo aloqaning roʻyobga chiqishida koʻchishning har ikki turining qiymati tengdir [32,32]. Soʻzlar bir turkumdan ikkinchi turkumga oʻtganda mazkur soʻzning grammatik mohiyati, qisman maʼnosi oʻzgaradi. Sifatning otga koʻchishi ham shunday hodisadir. Masalan, qiz, oʻgʻil, yosh, qari, erkak, xotin, ayol, kasal, chol, kampir kabi soʻzlar bir vaqtlar sifat boʻlib, keyinchalik otga oʻtgan. Bu hol, yaʼni oʻtish birdaniga emas, balki bir-ikki avlod koʻz oʻngida yuz beradi. Yuqoridagi kabi soʻzlarning otga koʻchganini yoki koʻchayotganini koʻrsatuvchi ikkinchi belgi ularning sifat bilan ifodalangan aniqlovchi olishidir: yosh yigit, qari chol, chiroyli xotin kabi. Konversiya yoʻli bilan sifatga koʻchgan soʻzlar quyidagilar: 1. Juft va takroriy otlar: mosh-guruch, yoʻl-yoʻl, rang-barang, xilma-xil. 2. Oʻzak holidagi feʼllar: daydi, qari, och, chalkash, yanglish, tutash, aralash. 3. Harakat nomi shaklidagi juft feʼl: olmoq-solmoq. 4. Yaqin (aniq) oʻtgan zamondagi juft feʼllar va feʼlli birikmalar: oldi-qochdi (gap), kuydi-pishdi (ayol), tugʻdi-bitdi (farzand), ichakuzdi (hangomalar), supraqoqdi (oʻgʻil, yaʼnikenja oʻgʻil). 5. Takroriy olmosh: manman. 6. Takroriy son: birdan-bir [24,48].

Sifat turkumga xos soʻzlarning ravish bajargan vazifalarda kelishi ham keng taraqqiy etganligiga guvoh boʻlamiz. Sifat va ravishning leksik-semantik xususiyati oʻzaro bitta, yaʼni “belgi” termini bilan atalsa-da, biroq xarakter eʼtibori, stilistik tomoni bilan ularning belgisi bir-biridan farqlanadi. Sifat turgʻun xarakterdagi belgini anglatga, ravish esa jarayon xarakteridagi (adverbial) belgidir. Sifat anglatgan belgi – birlamchi, ravish belgisi – ikkilamchi, yaʼni belgining belgisidir.

Yuqorida eslatib oʻtganimizdek, ravish tabiatan sifatlardek turgʻun holatdagi belgini ifodalab, aniqlovchi xarakterida boʻlishi mumkin. Shu bilan birga, bir qator sifatlar harakat jarayonining belgi ifodasini koʻrsata oladi.

Chunonchi, “yaxshi” qabilidagi soʻzlar gapda hol boʻlib kelishi bilan xarakterlanadi. Uzoq yillar davomida mana shu masala turli munozaralarga sabab boʻlib keldi. Aniqrogʻi, koʻpgina tadqiqotlarda muayyan soʻzning semantik taraqqiyoti, ularning oʻzaro sintaktik funktsiya almashish imkonini berish holati nazardan chetda qolib keldi. Vaholanki, soʻz turkumlari bir-biri bilan “ittifoq tuzishi”, yaʼni oʻzining soʻroqlarini boshqalar bilan baham koʻrishi va oʻzi ham oʻrni bilan boshqa soʻz turkumlarining soʻroqlariga javob boʻlishi tabiiy hol. Umuman, turkiy tillarda, belgi-xususiyat maʼnosidagi soʻzlar ot oldidan ham feʼl oldidan ham kelib, ular maʼnosini konkretlashtiruvchi vazifani bajaradi. Bunday holda ular soʻzning ayni bir grammatik qiyofasida boʻladi. Manbalarda “yaxshi” qabilidagi soʻzlarning feʼl oldidan kelishini konversiya (koʻchish) hodisasi sifatida ham qaraydilar.

Soʻz turkumlari orasida sintaktik funktsiya almashish, xususan, hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan hodisadir. Bu holat leksemaning til sathida keng imkoniyatliligidan darak beradi. “Yaxshi” qabilidagi leksemlarning matnda hol vazifasida qoʻllanishiga soʻzning funksional oʻzgarishi deb qarash toʻgʻri boʻladi. Chunki “yaxshi” qabilidagi soʻzlar gapda hol boʻlib kelishiga qaramay (masalan: qattiq gapirmoq, chiroyli kulmoq, dadil soʻzlamoq), odatdagi leksik maʼnosini saqlaydi. Qiyoslash uchun “ogʻir” leksemasining feʼl bilan birika olish imkoniyatini koʻrib oʻtamiz. OʻTILda “ogʻir” leksemasining oʻndan ortiq maʼnosini izohlangan. “Ogʻir” leksemasining atash semasi “vazni katta boʻlgan, tosh bosadigan, vaznli” maʼnosini ifodalaydi. Koʻchma maʼno(konnotativ maʼno)da ogʻir leksemasi harakat belgisini ham ifodalay oladi: Ammo mana shu roʻyirostlik Lolo uchun oʻgʻir kechadi. (H.Nazir) Bu holat (ish- harakat belgisini ifodalagan sifatlar)ni ayrim tadqiqodchilar adverbializatsiya hodisasi sifatida belgilaydilar. Shuningdek, bu yil bahor nihoyatda yaxshi keldi. Shirin juda chiroyli kuladi (N.Hikmat) kabi gaplarda “nihoyatda yaxshi”, “juda chiroyli”, sifatleri grammatik jihatdan feʼllarga bogʻlanib, gapda hol vazifasida kelgan. Birinchi gapdagi “nihoyatda yaxshi” soʻzi grammatik jihatdan feʼlga bogʻlanib, gapda hol vazifasida kelgan

bo'lsa ham, mantiqan subyektning – “bahor”ning belgisini bildiradi va bu belgi harakatga ham ko'chiriladi.

Yuqoridagi misollardan kuzatiladiki, ba'zi sifatlar o'z vazifasi doirasini birmuncha kengaytirgan. Buni sifat leksemalarning nutqdagi imkoniyati sifatida qabul qilish lozim. Ish harakat belgisini bildirgan har qanday so'zga ravish deb qarash ayni so'z turkumiga leksik va sintaktik xususiyatlarni zo'rma-zo'rakilik bilan tirkashidan o'zga narsa emas. Bu esa so'z turkumlari tasnifida mantiqiy to'g'ri tasnif asosini buzishga olib keladi[57,110].

Aytish mumkinki, keyingi yillarda sifat leksemalarning semantik tuzilishidagi konnotativ ma'nolarning o'рни va uning o'ziga xos tomonlarini aniqlash bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Mazkur holat ham sifat va ravish turkumi chegarasini aniqlashtirishga ko'mak beradi.

Ish- harakat tarzini ifodalash barcha sifatlarga xos xususiyat emas, albatta, ya'nihar qanday sifat ham ish- harakatning belgisini bildirolmaydi. Asosan, xarakter- xususiyat (yaxshi, yomon, qiziq ruhli, yorqin qattiq yumshoq toza, chiroyli, dadil), holat (erkin, ozod, tutqun, to'liq), vertikal hajm (past, baland), vertikal shakl (tik), umumiy shakl (egri, to'g'ri), gorizontal shakl (yopiq), umumiy hajm (katta, kichik), ichki hajm (keng, tor, chuqur), masofa (uzoq- yaqin), muddat (abadiy) va harorat (issiq, sovuq, illiq) belgisini bildiruvchi qismigina gapda hol vazifasida qo'llanadi. O'z semantikasiga ko'ra “yaxshi” qabilidagi so'zlar doim mavhum tushunchani anglatadi. Yuqoridagi so'zlar nutq jarayonida hol vazifasida qo'llanishi bilan mavhumlik yana oshadi. Shu yo'l bilan fikrning grammatik ifodasi mustahkamlashadi va “yaxshi” qabilidagi so'zlarning iste'mol doirasi kengayadi.

Kelishik shaklidagi sifatlar ham nutqimizda keng qo'llanadi. Masalan, yangidan, eskidan, chindan, yolg'ondan kabilar kelishik shaklidagi sifatdan hosil bo'lgan holat ravishlaridir. Mazkur so'zlarda kelishik qo'shimchasi o'z tabiatini mutlaqo o'zgartirgan.

“O`zbek tilining izohli lug`ati” da ham “yaxshi” qabilidagi bir qator sifatlar ravish deb berilganligiga guvoh bo`lish mumkin. Lug`atda sifatlar ham ravishlardek ish-harakat belgisini ifodalay olish imkoniyatiga ega ekanligi, ya`nisifatning semantik taraqqiyoti ularda o`zaro sintaktik funktsiya almashish imkonini berishi nazardan chetda qolgandek ko`rinadi. Mana shu holat fe`l bilan birikib kela olishi tabiatiga ega bo`lgan holat, xususiyat bildiruvchi sifatlarning lug`atda ravishlar deb izohlanishiga sabab bo`lgan bo`lsa kerak.

Xullas, sifatning taraqqiyoti boshqa turkumlar bilan uzviy bog`liq. Ot asosidan ajralib chiqqan, til taraqqiyoti natijasida mustaqil rivojlanish yo`liga ega bo`lgan mazkur turkum so`zlarining imkoniyat doirasi kengayib borayotganligiga guvoh bo`lamiz. Bu holni sifatda keng kuzatiladigan polisemiya bilan ham dalillash mumkin. Bundan tashqari, yordamchi leksemalar tarkibida ham bir qator sifatlarni uchratish mumkin. (jumladan, boshqa, qarshi (ko`makchi), yolg`iz (yuklama) va h.k.). Bu holat ham (grammatikalizatsiya) sifat turkumining taraqqiyotidan dalolat beradi.

I. 4. Narsa asosida shakllangan sifat leksemalar

Tilshunoslikda narsa asosida shakllangan sifat leksemalari leksikamizning talaygina qismini tashkil etadi va qanday belgi ifodalashi o`zagidan anglashilib turadi. Shuning uchun ularni aniqlovchi sifatida keltirish yoki predikatli qo`shilmaning predikati vazifasida berish kifoya. Biroq bunday sifatlar ham o`zi ma`lum bir rangni bildirgani holda, ikkinchi bir rangni qo`shib ifodalashi bilan xarakterlanadi. Masalan: *simobi* asosan oq rangni bildiradi. Lekin har qanday oqni emas, bo`g`iqroq, yaltiroq oqni bildiradi. Shuning uchun misol tarkibida shu belgilarni ochuvchi so`zlar keltirilishi kerak. Masalan: Anvar bolani Ra`noga bergandan keyin simobi shohi sallasini olib, yostiqqa tashladi va ro`moli bilan qop-qora bo`lib ketgan murtini tuzatdi.(A.Qodiriy) Bu gapdagi simobi shohi salla birikmasidagi simobi so`zining ma`nosi asosida ochilgan. Chunki simobi so`zining aniqlanmishi salla so`zi bo`lib, u ifoda etgan buyum hamma vaqt oq rangli bo`ladi. Simobi so`zining aniqlovchisi vazifasini o`tagan shohi so`zi esa simobi so`zi ma`nosidagi yaltiroqlikni beruvchi uzvni

reallashtirgan. Chunki shohi so`zida ifodalangan mato yaltiroqligi va jilosi bilan xarakterlanadi. Faqat ma`noning bo`g`iqlik uzvi misolda o`z ifodasini topgan. Biz kundalik hayotda ma`lum narsaga xos rangni bildiruvchi sifatlarga tez-tez duch kelamiz. Bu sifatlar o`zi ifodalagan narsaga o`xshash bo`lib, uni to`ldirib, izohlab keladi. Masalan: Sanobar oyog`iga paytava o`rab, maxsisini kiydi. Jigarrang shol ro`moli ustidan telpagini bostirib, tayyorman degan ma`noda Adolatga qaradi. (S. Zunnunova)

Jigarrang so`ziga “ O`zbek tilining izohli lug`ati”da quyidagicha izoh beriladi: Jigarrang – qizg`ish, qizil; jigar rangiga o`xshash. Jigarrang sifati odam organizmiga xos organ asosida shakllangan va shu rang tusi asosida jigarrang deb nomlangan. Shu qatorda o`pkarang ko`rinishidagi qo`llanish ham ba`zida jonli so`zlashuvda uchrab qoladi. Bunga ham zaruriyat, ehtiyoj mahsuli sifatida qarash lozim. Yana shunday ranglardan biri kulrang sifatidir. Bu sifat ham narsa asosida shakllangan. Kul so`zining mohiyati biror narsaning yonib kuyishidan hosil bo`ladigan oqish-qora yoki ko`kish changsimon mineral qoldiq. Katta ko`chada mashinalar tez-tez o`tar, ammo u kutayotgan kulrang mashinadan darak yo`q edi.(Gazetadan)

Bundan tashqari tilimizda moshrang, havorang, tillarang, binafsharang, siyohrang kabi rang turlari ham bo`lib, ular ham ma`lum bir narsaga xos rangni bildiradi. Masalan, binafsharang so`zini kuzataylik. Tabiatda binafsha deb nomlangan gul bo`lib, bu rang shu gul rangidan olinganligini bildiradi. To`rt burchagida ko`k, binafsha, shaftoli rang ipaklar bilan gullar tikilgan.(Oybek)

Binafsharangga ma`nodosh bo`la oladigan rangdan biri safsar sifatidir. Bu sifat binafsharang, binafsha rangli degan ma`noni bildiradi. Safsar siyohda mayda yozilgan satrlar xira parda orqasidagidek edi. (S.Zunnunova)

Badiiy adabiyotimizda pushti sifati tez-tez uchrab turadi. Bu rang shaftoli guli rangidagi och qizil rangdir. Zumrad ichkariga kirib kiyinib chiqdi. Egnida guldor pushti xalat, durrani dol qo`ygan, oyog`ida qizil baxmal shippak.(S.Siyoyev)

Mumtoz she'riyatimizda buyuk shoirlarimiz lojuvard, la'l, yoqut, feruza, zumrad kabi leksemalardan unumli foydalanib, go'zal misralar yaratganlar. Bular aslida turli qimmatbaho metallardir. Masalan: Lojuvard –qimmatbaho ko'k tosh odatda rang ifoda semasini bildiradi. Lojuvard ko'kda sayrashib uchayotgan qushlar, daraxtlarga qo'nib saxiy quyoshga madhiya aytayotgandek, basma-basga chug'urlashadilar.(N.Safarov)

La'l – arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, qizil rangli toshdir. She'riyatda mazkur qimmatbaho tosh rangi labga qiyos qilinadi.

Telba ko'nglim yor zulfi toridan ayrilmagay,

Joni zorim la'lining guftoridan ayrilmagay. (A. O'tar)

Yoqut ham qimmatbaho tosh bo'lib, she'riyatda qizil rangining ma'nodoshi sifatida qo'llanadi. Biroq yoqut rangi la'l ifodalagan rangga ko'ra to'qroq rangni ifoda etadi. Sarv qomati, oy kabi yuzi, qora qalam qoshi, shahlo ko'zlari, yupqa yoqut lablari har bir kishini o'ziga beixtiyor jalb qiladi. (J.Sharipov) Qizil so'zining yana bir ma'nodoshi bo'lgan gulgun sifati ham lirikamizni bezab, obrazlilikni ta'minlab turgan rang-tus sifatidir. Gulgun – gulrang, qizg'ish, pushti ma'nolarini bildiradi:

Deyman: sahar, shafaqdan uchqunmi, lolasanmi,

Shodlik mayiga to'lgan, gulgun piyolasanmi?(E.Vohidov)

Biz yuqorida ko'rib o'tganlarimiz ma'lum bir narsalarga xos ranglarni bildiruvchi sifatlar edi. Lekin shunday so'zlar ham borki, rang semasi asosida shakllangan. Masalan, qo'ng'ir qushi bunga misol bo'ladi.Qo'ng'ir tumshug'i o'tkir, oyoqlari kalta, boshida ikkita kokil o'sib chiqqan, pati jigarrang o'rdak. Qo'ng'irlar may oylarida tuxum ochib, jo'jalarini iyundayoq uchirma qiladilar.(J.Abdullaxonov) Alvon matosi ham rang asosida shakllanganligi ham bizga ma'lum.

Alvon kiygan go'zal qizlar,

Yurishadi- xandon qizlar.(Qo'shiqdan)

Rang bildiruvchi sifatlar ma'nosini izohli lug'atlar asosida reallashtirib shunga guvoh bo'ldikki, bir rang umumiy lug'aviy ma'no guruhi tarkibida bir

necha a`zolar ega va ular nutqimizda bir qancha so`zlar bilan voqelanadi. Biz quyida ularni sxemalashtirdik. Narsa asosida shakllangan so`zlarni nafaqat ranglar misolida balki maza-ta`m bildiruvchi sifatlarda ham kuzatishimiz mumkin. Masalan: zahar, shakar, asal, novvot, namakobkabilarning ifodasi bunga misol bo`ladi. Zahar ovqat, zahar tutun, shakar qovun. Kuz oylari boshlanishida bu yerda hovli atrofidagi yetinqiragan mevalar, so`ridagi husayni uzumlardan asal tomib turadi. (Tuyg`un) Ha, o`zimiznikidan: Qorabuloqning suvini ichadi-yu, asal bo`lib ketmaydimi? (M. Ismoiliy)

Narsa asosida shakllangan sifatlarning ma`nosini izohli lug`at asosida reallashtirib, xulosa qilish mumkinki, ma`lum bir narsaga xos sifatlarni jonli nutqda ko`p uchratamiz, bunday sifatlarning ma`nosini ochish uchun, shu belgini ifodalovchi so`zlarga alohida to`xtalish va ular haqida to`liq ma`lumotga ega bo`lishimiz uchun kerak. Ma`lum bir narsaga xos rang bildiruvchi sifatlarning afzallik tomoni aynan izohlanayotgan rangga xos belgini o`quvchiga aniq yetkazib berish va oddiy ranglardan farqli tomoni rangga xos bo`lgan (nozik) belgi qirralarini ochib berishdir deb o`ylaymiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o`zbek tili morfologiyasi tizimida sifat turkumiga oid so`zlar, alohida mavqega ega. Ular predmet, voqea- hodisaning turli xil belgilarini bildirishi, gap tarkibida ot va otlashgan so`zlardan oldin kelib aniqlovchi vazifasini bajarishi, asliy va nisbiy, tub va yasama, sodda va qo`shma turlarga bo`linishi, substansivasiya hodisasining sifatlardagi ko`rinishlari, sifat yasovchi qo`shimchalarning o`ziga xos tabiati, ularning ma`nodoshlik va antonimlik xususiyati masalalarini yoritishi qator ishlarda amalga oshirilgan. Sifatlarning etimologiyasi ham I bobda o`z aksini topgan, zero sifatning tarixiy taraqqiyotini, leksik-grammatik xususiyatlarini bilmay turib hozirgi o`zbek adabiy tilidagi sifat haqida fikr bildirish qiyin. Mazkur tadqiqotlar ishimizning to`laroq yoritilishiga ko`mak beradi. Vaholanki sifatning semantic-funksional xususiyatlari bevosita bu turkum so`zlarining tarkibiy tuzilishi, yasalishi, so`z turkumlarining o`zaro aloqasi bilan o`zaro bog`liq. Ishimizda asosiy maqsad esa sifatlarning semantic-funksional vazifalarini ma`lum darajada yoritish.

II BOB. SIFAT MA'NOVIY GURUHLARINING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

II. 1. Xususiyat, holat, shakl bildiruvchi sifatlar

Sifat asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiradi. Belgi tushunchasi o'z ichiga xarakter-xususiyat, rang-tus, maza-ta'm, shakl, vazn-o'lchov kabilarni qamrab oladi. Bular sifatning ma'noviy guruhleri hisoblanib, ular ham ma'lum bir semantik va grammatik xususiyatlarga asoslanadi.

Shunday sifatning ma'noviy guruhlaridan biri xususiyat sifatlaridir. Xarakter-xususiyat sifatleri insonning turli-xil belgi xususiyatlarini, ya'ni uning axloqiy, intellektual, ijtimoiy belgilarini, shaxsiy xarakterlarini, narsa va mavjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadigan so'zlardir. Bunday sifatlar ijobiy va salbiy yoki neytral holatda bo'lishi mumkin: a) Insonning xarakter-xususiyatiga xos ijobiy sifatlar: *muloyim, odobli, chapdast, chaqqon, abjir, ziyrak, mo'min, sodiq, mohir, pok, sipo, o'ktam, asl, quvonch, ozoda, sof, yaxshi, dadil, xushmuomala, rostgo'y, mehribon* va boshqalar[24]. b) kishilarga xos salbiy xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar ko'pincha ijobiy xususiyatni bildiruvchi sifatlariga antonim bo'ladi: *zolim, nokas, toshbag'ir, shafqatsiz, quv, ayyor, muttaham, g'ayir, tannoz, takabbur, o'jar, xudbin* va boshqalar.

Kishilarga xos salbiyva ijobiy xususiyatlarining gap-so'zini, o'y-niyatini yoki ta'na a'zolarini sifatlash orqali ham bildiriladi. *Hoji bobo har gapda bir*

maqol o`qiydigan ezmaroq tabiatli bir kishi bo`lsa ham, qo`li anchagina ochiq, xususan, hisobga no`noqroq odam edi. (G`. G`ulom)

Xarakter-xususiyat sifatlarining yana shundaylari borki, ularda ijobiy va salbiylik yaqqol ko`rinib turmaydi. Matndan ularning ma`nosini anglab olish mumkin. Masalan: *dovdir, loqayd, sho`x, mahmadona, sinchkov, mag`rur, indamas, o`jar, shaddod, to`pori* va boshqalar [26,51]. Loqayd odam birikmasida loqayd sifati salbiy munosabat ifodasi uchun qo`llangan bo`lsa, “Uni noo`rin koyishlariga ham loqayd turib berdi” misolida esa ijobiy semasini namoyon qilgan.

Predmet (narsa, hayvon, jonivor) holati, hodisa va shu kabilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo`llanuvchi sifatlar: *xonaki, dolzarb, dabdabali, tashvishli, asov, sun`iy, tabiiy, qimmat, arzon* va boshqalar. Kishi va predmet xususiyatlari uchun birdek qo`llanaveradigan sifatlar: *ajoyib, yaxshi, yomon, zo`r, chidamli* va hokazolar.

Xususiyat bildiruvchi sifatlar tuzilishi jihatidan sodda, qo`shma, juft va takror sifatlariga bo`linadi. Sodda sifatlar tub va yasama so`zlarga bo`linadi.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi tub sifatlar: dadil, garang, go`l, daydi, dangasa, jo`n, zab, zakiy, zukko, ziyrak, lalmi, mahmadona, mechkay, merov, mudhish, muttaham, muqaddas, nodir, nodon, noyob, no`noq, odil, odmi, oddiy, ojiz, olifta, puch, samimiy, tajang, tanbal, tansiq, tanqis, tentak, teran, tuyg`un, tetik, yovvoyi, maxfiy, to`pori, ulgurg`i, xokisor, shallaqi, topag`on, chopag`on, qopag`on

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi yasama sifatlar: aqlli, kuchli, yeyishli, ichishli, aloqador, aybdor, manfaatdor, bedin, beg`ubor, noumid, noinsof, noo`rin; nomard, noma`lum, nomunosib, kurashchan, yashovchan, unutuluvchan, erinchoq, kuyinchak, tortinchoq, qizg`anchiq, toparmon, bilarmon, yeyarmon, shartaki, jirtaki, yig`loqi, arzirli, achinarli, zerikarli, maqtarli, ajablanarli, etarli, tushunarli, chiyildoq, bijildoq, dirildoq, akildoq, ilmiy, shaxsiy, imloviy; taxminiy, aqliy, ommaviy, qozoqi, qishloqi, xalqparrar, insonparrar,

vatanparvar, badaxloq, badhazm, olamshumul, jahonshumul, gapdon, bilimdon, dilkash, hazilkash;

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi qo'shma sifatlar: dilorom, dilozor, kafangado, otashnafas, xomkalla, sho'rpesona, kaltafahm, shirinsuxan, sho'rtumshuq, balandparvoz, otabezori, hozirjavob, kamgap, kamsuxan, kamsuqum, kamxarj, cho'rtkesar, ebto'ymas, o'zboshimcha, tilyog'lama, gadoytopmas, tinchliksevar, o'zbilarmon, ikkiyuzlamachi, ochofat, parishonxotir, zabardast, nontepki, nonko'r, rahmdil, sheryurak, qottiqqo'l, ichakuzdi, ilikuzildi, ishyoqmas, ertapishar.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi juft sifatlar: aql-hushli, pishiq-puxta, telba-teskari, mo'min-qobil, ezma-churuk, tepsa-tebranmas, dali-g'uli, bo'sh-bayov, toparman-tutarman, yengil-yelpi.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi takror sifatlar: Bir qarasangiz qiziq-qiziq gaplarni aytib, odamlarni kuldirib o'tiradi; bir qarasangiz, gung bo'lib boshini egib oladi. (X.To'xtaboyev)

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlarning sintaksisda sifatlovchi-aniglovchi, ot-kesim, hol, shuningdek, otlashganda qaratqich-aniglovchi, to'ldiruvchi, undalma bo'lib keladi.

Sifatlovchi-aniglovchi bo'lib keladi: Odobli bola elga manzur.

Sifatlar otlashsa, otning sintaktik vazifasini bajaradi:

Ega bo'lib keladi: Yaxshi oshini yer, yomon – boshini.

Qaratqich-aniglovchi bo'lib keladi: Saxiyning ehsoniga baxilning boshi og'rir.

To'ldiruvchi bo'lib keladi: Yaxshidan adashma, yomonga yondashma.

Xususiyat siftlaridagi soddalashish holatini kuzatib shunga amin bo'ldikki, o'zbek tili so'z turkumlari ko'chishi, bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tish (ko'chish) (umumiy nomlanishi leksikalizatsiya, xususiy ko'rinishlari otlashish – substantivatsiya, sifatlashish – adyektivatsiya) atamalar bilan yoki keyingi yillarda konversiya, ba'zan transpozitsiya deb nomlangan. Bu hodisalarni o'zbek tilshunosi A.G'ulomov o'zbek tili ilmiy grammatikasining “Konversiya”

bo`limida 10 bandga ajratib bunday “o`tish”ning xilma-xil ko`rinishlarini atroflicha tahlil etib, leksikalizatsiya, konversiya, transpozitsiyaning bir-biriga aloqasi, ba’zi o`rinlarda ularning lison (til) va nutqqa munosabati haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan.

Holat bildiruvchi sifatlar: *Holat bildiruvchi sifat* narsa -mavjudotning holat yoki vaziyatini turg`un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifatlar tuzilishiga ko`ra sodda, qo`shma, juft va takror sifatlarga bo`linadi. Holatni bildiruvchi tub sifatlar: *abgor, alag`da, baxtiyor, bo`liq, vayron, voqif, gavjum, giryon, dabdala, yopiq, issiq, iliq, kir, ko`hna, luchchak, mal`un, marhum, mast, mashhur, mosuvo, muallaq, mulzam, muntazir, mushtoq, muhtoj, obod, ozod, osoyishta, osuda, pajmurda, palag`da, paxmoq, pachog, pinhon, pokiza, semiz, sovuq, sokin, so`lg`in, tayyor, shay, toza, tarang, tashna, to`q, farovon, xom, xarob, xasta, xafa, xijil, xomush, xor, xursand, shalabbo, eski, qaram, qizg`in, ho`l*[24].

Holat bildiruvchi yasama sifatlar quyidagi qo`shimchalar orqali yasaladi:- *bar, -li, -dor, -ser, -be, -k, -q, g`, -ik, - iq, - uq, -kin, - qin - g`in, -kun, - g`un... ; rasmlı, do`ppili, masxarali, gavgdali, o`tirishli, ayanchli, gulli, to`shdor, aybdor, azador, guldor, sersoqol, sersuv, sergo`sht, sersomon, bemajol, bexabar, boxabar bedor, besaramjon, bedavo, chirik, o`ksik, quruq, yorug`, o`lik, egik, yopiq, ochiq, buzuq, yopiq, tushkun, turg`un, ozg`in, so`lg`in, jo`shqin, horg`in, g`amgin, qarimsiq, noqulay, navqiron, noma`lum, noto`g`ri, sharros, gulduros, motamsaro, ishsiz, darveshnamo, olimnamo, tentaknamo, jirkanch, dardchil, epchil, xayolparast, oqsoq, porloq, quvnoq, loyqa, yopishqoq,*

Holat bildiruvchi qo`shma sifatlar: *darveshsifat, devsifat, devqomat, kafangado, sheryurak, ofatijon, bodomqovoq, og`iroyoq, shikastahol, boshqorong`i, yoqavayron, olazarak, tepakal, xonavayron, dilxasta, kamgap, kamsuxan, tezpishar, kechpishar, qirqyamoq, xomtalash, sohibjamol.*

Holat bildiruvchi juft sifatlar: *alag`da-jalag`da, apoq-chapoq, issiq-sovuq, mast-alast, hozir-unozir, eski-tuski, chala-chulpa, xom-pishiq, saramjon-sarishta, och-yalang`och, soya-salqin, xor-zor, ilma-teshik, tuppa-tuzuk, xom-*

xatala, entak-tentak, qari-quri, yamoq-yasqoq, harom-harish, aloq-chaloq, poyintar-soyintar, uvali-juvali, o`poq-so`poq, ilang-bilang, boy-badavlat, och-nahor, pishiq-puxta, sarson-sargardon, sog`-salomat, telba-teskari, yakka-yolg`iz, g`arib-benavo, vayronu obod, chappa-rosta, quyuq-suyuq, kuydi-pishdi(fe`ldan ko`chgan), och-yalong`och, soya-salqin, tinch-totuv, burma-churma, bo`ltak-so`ltak, yosh-yalang, yirtiq-sirtiq, kir-chir, siniq-mirtiq, tilka-pora, tep-tekis, to`kin-sochin, chalakam-chatti, egri-bugri, yamoq-yasqoq, qarama-qarshi, aji-buji (yozuv), apoq-chapoq, aloq-chaloq (tush)

Holat bildiruvchi takror sifatlar:*burda-burda, yo`l-yo`l(otdan ko`chgan), biq-biq.*

Boshqa turkumga xos so`z *konversiya* yo`li bilan holat bildiruvchi sifatga o`tishi mumkin. Masalan: kuydi-pishdi so`zi fe`ldan ko`chgan, ot so`z turkumiga mansub yo`l so`zini takror qo`llab holat ma`nosini bildiruvchi sifat hosil qilish mumkin.*Holat bildiruvchi sifatlarda soddalashish* ham kuzatiladi. Yaxshi rivojlangan, durkun ma`nosini anglatuvchi *bo`liq* sifati eski o`zbek tilida *bo`lfe`lining* *unib-o`s, yetilma`nosidan* $-(u)q$ qo`shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik *u* unlisi *i* unlisiga almashgan:  $bo`l+uq=bo`luq>bo`liq$ [42,76]. Bu qatorga o`ksik,o`lik, sharros, epchil, buzuq kabi so`zlar ham kiradi.

Holat bildiruvchi sifatlarning sintaktik vazifasi:

- a) kesim bo`lib keladi: *Bu paykalning g`o`zalari bo`liq.*
- b) ravish (tarz, vaziyat) holi bo`lib keladi: *Qobil bobo dardli xo`rsindi.(A.Qahhor)*

Bombardimonlar natijasida shaharlar dabdala bo`lgan edi.

- c) *aniqlovchi bilan:Dadaboyning baland bo`lib dabdabasi, Oxir chiqdi dabdabasindabdalasi. (Mushtum)*

Yuqoridagilar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, holat bildiruvchi sifatlar narsa yoki mavjudotni turli holatini juft, takror, sodda, qo`shma ko`rinishlarda ifodalab, nutqimizda faol qo`llanadi.

Shakl bildiruvchinarsa-predmetning tashqi ko`rinishini ifodalaydi. Masalan: novcha, yassi, uzunchoq, cho`zinchoq, qiyshiq, do`ng, tekis,do`ndiq,

qabariq, botiq, jingalak, jikkak, lo`nda, lo`ppi, miqti, silliq, g`adir-budir, egri, dumaloq, yapaloq, aylana va b.*Baqqol amaki o`zi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, yakkam-dukkam soqolli, burni puchuq, iyagi kalta odam.* Qorni ham haddan tashqari katta bo`lganligi uchun o`tirganda xuddi bir qop go`shtdek bo`lib ko`rinadi. (X. To`xtaboyev) Shakl bildiruvchi sifatlar Z. Mamarajabovanning maqolasida *ko`rinish sifatlari* deb ham yuritilgan [46, 22-23]. Ko`rinish sifatlarini tuzilishiga ko`ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin: 1) sodda ko`rinish sifatlari; 2) qo`shma ko`rinish sifatlari.

Ayrim darsliklarda, o`zbek tilining grammatikasiga oid adabiyotlarda, sifatning juft birikmali va takroriy shakllari tavsiflanadi. Biroq bizningcha, sifatning takrorlanishi, juftlashishi yoxud ko`p komponentli birikmaning belgi tushunchasini tashishi matnda reallashadi.

O`zbek tilida shakl-ko`rinish sifatlarining sodda shakli tarkibiga ko`ra ikki xil bo`ladi: tub va yasama ko`rinish sifatlari.

1. Shakl-ko`rinish sifatlarining *tub shakli* tom ma`nosi bilan predmetning turli shakl-ko`rinishlari, ichki va tashqi belgilarini ifodalaydi: yassi, dumaloq, do`ng, tekis, dumboq, do`ndiq, baland, past, to`g`arak, jingalak, jikkak, lo`nda, lo`ppi, miqti, egri, adil (qomat).

2. Shakl-ko`rinish bildiruvchi sifatning *yasama turi* o`zakka asosan so`z yasovchi affikslarni qo`shish orqali hosil bo`ladi: *jimjimador* panjara, *ignali* barg, *yig`iq* soch. Ko`rinish ifodalovchi leksemalarni yasovchi mahsuldor affikslar quyidagilardan iborat:

–li affiksi: jilvali ko`z, gajimli ro`mol.

–doraffiksi: go`shtdor odam, jimjimador kuylak.

–iq affiksi: yig`iq barglar.

–day, -dek affikslari: zig`irday bola, niholdek qiz, lo`mbozdek qulf.

–ma affiksi: ag`darma etik, ulama soch.

–qoq affiksi: burishqoq olma, qurushqoq behi.

Ikki so`zning teng bog`lanishidan hosil bo`ladigan predmet, hodisa yoki holatning bir umumiy belgisini ifodalash uchun xizmat qiladigan so`zlarga juft

sifatlar deyiladi[33,291]. Juft sifatlar narsa-buyum, hodisalarni to'liqroq sifatlash imkonini berganligi sababli nutqda faolroq qo'llaniladi. Manbalardan to'plangan misollar ayni shakldagi ko'rinish sifatleri nutqda ko'p qo'llanishini ko'rsatadi: *past-baland binolar, kalta-kulta paxtalar, yirtiq-yamoq to'n, katta-kichik tugunlar, yum-yumaloq tosh, yakkam-dukkam soqolli. Ikkita bir-xil shaklli so'zni takrorlanishidan takroriy sifatlar yasaladi*[31]. Bunday sifatlar ma'noni kuchaytirish, birdan ortiqlikni bildirish, ta'kid, modal, munosabat kabi ifodalar uchun qo'llaniladi. Hodisa, narsalarning tashqi ko'rinishini bildiruvchi sifatlar ham takroriy shaklda ishlatilishi mumkin: *lo'ppi-lo'ppi paxtalar, baland-baland binolar, mayda-mayda tosh*. Bulardan tashqari, predmetning shakl-ko'rinish ma'nolari ikki va undan ortiq turli birikmalar orqali ifodalanishi ham mumkin. Bunday belgi ifodalarga birikmali sifatlar deyiladi. *U qobig'i qorayib kuyayotgan kartoshkalarga tikilib o'tirdi. (T.Murod)*

Shaklni bildiruvchi sifat leksemalar orasida predmetning enini bildirishga xizmat qiluvchi *keng, tor* SLlari inson tasvirini uning portretini berishda keng qo'llanadi: *Keng qaboqli, tor miyiqli/ Guli gulnor mohi nur. (M.Ali)* Bu misolda *keng, tor* leksemalari vositasida tasvirlanayotgan kishining yuz qiyofasi, portreti chizib berilgan. Tilimizda *tor* leksemasining peshonaga nisbatan qo'llanilib, ko'chma ma'no kasb etib, ibora sifatida qo'llanilishi ma'lum. Poetik matnda sho'rlik, baxtsiz semalarini ifodalashda ana shu frazemadan foydalanish hollari uchraydi: *Alang-jarang qaradi-yu dunyo bexabar/ Peshonasi tor dehqon. (M.Ali)*

Dumaloq. Bu sifat eski o'zbek tilida dumala fe'lidan - q qo'shimchasi bilan yasalgan. *Yer shari dumaloq desa, oldin hech kim ishonmas edi.*

Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar gapda hol va ot-kesimbo'lib keladi. *Amakimning qisiq ko'zlari yigirma tiyinli tangaday dum-dumaloq bo'lib yondi. (S.Ahmad)* Bu xotinning *Yoshi ellikdan oshgan bo'lib, o'zi pakana, dumaloq. (S.Zunnunova)*

Xullas, xususiyat-xususiyat, holat, shakl-ko'rinishni ifoda etuvchi sifatlar sifatning ma'no jihatdan kata qismini tashkil etadi. Har bir tur alohida tadrijiy

rivojlanish turiga ega. Ularning uslubiy imkoniyatlariga keyingi bobda to'xtalamiz.

II. 2. Rang-tus, maza-ta'm, hid bildiruvchi sifatlar

O'zbek tilida *oq, qizil, qora, ko'k, zangori, sariq, yashil, malla, pushti, moviy, qirmizi, sapsar, qo'ng'ir, alvon (rang-barang), go'los, gungurt, nafarmon, ol, oq-qora, pushti, jigar rang, kul rang, novvot rang, rang-barang, targ'il, ola, chipor, ola-chipor, shafaq rang, zalg'aldoq, mosh-guruch (otdan ko'chgan), tilla rang, gunafsha rang, saman, to'riq, chovkar, jiyron, bo'zto'riq*(*Ot tusini ifodalaydi*) kabi so'zlar alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Bunday so'zlar rang-tus sifatlari deb yuritiladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'zbek tilshunosligida M.Sodiqova, R.Qo'ng'irov, Z.Pardaev, H.Tojimatov kabi olimlar tomonidan bir qismi maxsus tadqiq etilgan.

Rang bildiruvchi so'zlar tub, yasama, qo'shma, birikmali bo'lishi mumkin. Rang bildiruvchi so'zlar morfologik usul bilan quyidagi affikslar yordamida yasaladi:

-i affiksi tojik tili ta'sirida paydo bo'lgan, ega, xoslik ma'nolarini beruvchi affiksidir: *simobi (simobi)* – *simobning rangiga xos. Jigari (jigar +i)* dialekt. *jigarning tusi. Osmoni (osmon+i)* dialekt. *osmonning rangidagi. Gulobi (gulob+i)* dialekt. *gulrangning tusi. Bu affiks vositasida sifatlardan ham sifat yasalishi mumkin: zangori (zangor+i), qirmizi (qirmiz+i)* [26,97].

-qi, -aqi (-aki) affiksi otlardan sifat yasaydi. Masalan, *pistoqi (pista+qi)* *pistaning rangidagi yoki och yashil tus. To'taki (to'ti+aki)* *to'tining rangidagi yoki to'tiyona rang. Bu affiks sifatlardan ham sifat yasaydi. Qoraki (qora+ki)* dialekt. *qoraning tusi.*

-iy, -viy affiksi arab tilidan kirgan bo'lib, otlardan sifat yasaydi. Masalan, *niliy (nil+iy)* *arxaik - sinka tusidagi rang. Tilloiy (tillo+iy)* *tilla rangidagi, tillorang. To'tiyoiy, osmoniy kabilar ham shular jumlasidandir.*

-vash affiksi arxaik bo'lib, otlardan sifat yasaydi: *samovash (samo+vash)* *havorang tusli.*

Rang bildiruvchi qo'shma sifatlar sintaktik usul bilan yasaladi. Masalan, ot+ot – *jigarrang, kulrang, havorang, anordona, kaptarbo'yin, pistamag'iz* va h. Umuman, qo'shma rang bildiruvchi sifatlar yasallishida rang so'zi faol yasovchi hisoblanadi. Qo'shma rang sifatlaridan tashqari yana birikmali rang bildiruvchi sifatlar ham mavjud. Bular ko'proq rang bildiruvchi ottenka xillarini ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan, *oq sariq, oq pushti, qora sariq, qora qizil, qora to'riq, bo'z to'riq* va b. Shu kabi rang-tus bildiruvchi sifatlardan ko'plab orttirma darajadagi sifatlar ham hosil bo'ladi: *Qop-qora, qip-qizil, sap-sariq, oq-qora, mosh-guruch, ola chipor, qora-qura, zim-ziyova* h.. bular ranglik ma'nosidan tashqari to'da, umumiylik, ko'plik ma'nolarini ham ifodalaydi. Rang-tus bildiruvchi sifatlardan nutqda unumli foydalaniladi. Masalan, *qizilishton, ko'kqarg'a, qoraqamish* va b. Yasovchi affikslar vositasida: *ko'kcha, oqcha, qizilcha, qoramug', mallavoy* va *hokazolar* ham hosil bo'ladi. Bunday so'zlardan ba'zilarida rang ma'nosi juda uzoqlashib ketgan. Masalan, *oqbilak, sariqcha, sariyog', qoramug' va h.*

Rang-tus bildiruvchi sifatlar quyidagi sintaktik vazifalarda keladi: 1.

Sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib keladi: (Kumushning) .. yoqutdek lablari ostidagi sadaf kabi oq tishlari biroz ko'rinib qo'ydilar. (A.Qodiriy) 2. Ot-kesim bo'lib keladi: Gul qizil. Devorning to'rt tomoni ham oq. Rang - tus sifatleri otlashsa, ega, to'ldiruvchi, qaratqichli-aniqlovchi bo'lib keladi. Rang-tus bildiruvchi sifatlarining etimologiyasiga nazar solar ekanmiz qizil, yashil singari sifatlar aslida boshqa so'z turkumidan kelib chiqqanligiga guvoh bo'lamiz. Masalan: qizil so'zi qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu sifat asli "qizil tus, ol" ma'nosini anglatgan кыз fe'lidan –(ы)л qo'shimchasi bilan yasalgan. Patnisda to'rtta kulcha, ikki bosh qizil chillaki bor edi. (Oybek)

Yashil sifati qadimgi turkiy tilda "barg rangiga ega bo'l" degan ma'noni anglatgan йа:ш fe'lidan –(ы)л qo'shimchasi bilan yasalgan. Chap tomonda – tog' etaklari, o'ng tomonda yashil paxtazor, o'rtada –qishloq. (I. Rahim)

Rang-tus bildiruvchi sifatlarning daraja shakllarining ifodasida sifatlarning boshqa turiga nisbatan o`ziga xoslik bor. Masalan: qiyosiy daraja shakli -roq qo`shimchasi yordamida yasalgan ranglar; *oqroq, sariqroq, kengroq, uzunroq, tozaroq, kichikroq, kaltaroq* kabilar mansub. Ba`zida oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo`g`ini (yoki bir qismi) tovush o`zgarishi bilan takrorlanadi (fonetik usul): *qip-qizil, sap-sariq, yam-yashil, qop-qora* [33,60-63]

Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlarga -mtir (-imtir), -sh(-ish), -gina (-kina, -qina) shakl hosil qiluvchi qo`shimchalarni qo`shish orqali ham ozaytirma daraja shakli yasaladi. Masalan, *ko`kimtir, qoramtir, oqish, sarg`ish, kabi*.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar darajasining berilishida ham morfologik va sintaktik usullardan foydalaniladi.

Rang-tus bildiruvchi sifatlarning intensev formalari sintaktik-stilistik jihatdan ko`p qirralidir. Masalan, a) intensiv forma rang-tusning normal holatidan ortiqqligini anglatadi: *qip-qizil tarvuz, sap-sariq ipak* kabi. b) rangning ochiqlik, tiniqlik holatlarini ifodalaydi: *ko`m-ko`k osmon, qip-qizil baxmal, sap-sariq bo`yoq* va b. v) intensiv forma oldidan rang bildiruvchi so`zlar kelib, hissiy-ta`siriy ma`no ifodalaydi: *qop-qora osmon, ikki ko`zi qip-qizil* va h. Rang-tus bildiruvchi sifatlarda ozaytirma darajani yuzaga keltirishda ikki xil usul qo`llaniladi:

a) morfologik usul: ranglarning me`yorga yetmagan och xillari turli affikslar yordamida ifoda etiladi. Masalan, -ish, -imtir, -g`ish, -g`imtir, -gina, -kina, -qina, -roq affikslari orqali. Odatda, bunday qo`shimchalar rang-tus bildiruvchi sifatlarga qo`shiladi. Bu affikslar qo`llanib kelgan rang-tus bildiruvchi sifatlarda ranglarning kuchsiz xillari, ya`ni muayyan rangning normal holatdan pastligini anglatib keladi. Masalan, *oqish satin, ko`kish shisha, sarg`ish krem, qizg`imtir bulut* va h.

-ish, -g`ish affikslari jonli so`zlashuvda -ich, -g`ich shakllarida ham uchraydi. Masalan, M. Ismoilovning «Farg`ona tong otguncha» asarida ko`kish so`zi o`rnida ko`kish so`zi ishlatilgan: *Ko`zlari katta, ko`kish qoshlari ingichka... bir rus juvon paydo bo`ldi*.

-g`ish, -g`imtir affikslari aksari qizil, sariq so`zlari doirasida qo`llanadi. Qizil, sariq so`zlari bu affikslar qo`shilib kelganda, keyingi ikki tovush qisqarib o`zakda torayish yuz beradi. Masalan, Quyoshning qizg`ish nuri sahnani yoritadi. (A. Qahhor)

-mtil, -imtil, -mtir, -imtir, -g`imtil, -g`imtir affikslari asliy rang nomlarining ko`pchiligiga qo`shila oladi. Bu affikslarning qadimgi formasi –tul, -umtul,...-tul, -qumtul, ya`ni qum rangiga moyil.

-chil, -sil kam qo`llanuvchi bu affikslar oq, ko`k so`zlari doirasida ishlatiladi. Masalan, Shokir kunjut donasiga o`xshagan dog`li, oqchil yuzini qoplagan qalin va uzun soqolini tutamlab gapirdi. (S. Ayniy)

Rang-tus bildiruvchi sifatlarda ozaytirma forma qo`llanilishida ham ma`lum darajada o`ziga xoslik bor. Ularning hammasi rang-tus bildiruvchi sifatlarning barchasiga birdek qo`shilavermaydi. Ozaytirma formalarning vazifalari deyarli bir xil. Rang darajasini pasaytiradi. Masalan, ko`kish sariq duxoba, qizg`imtir sariq bulut.

Umuman, rang darajalarini anglatuvchi so`zlarda bir qadar mavhumlik ham mavjud hollar seziladi. Masalan, oqish deyilganda ma`lum bir rang tushunilmaydi. Har qanday rangning och nimrang tusini oqish deyish mumkin: oqish chit, oqish marmar va h.

Qoramtir deyilganda ham ma`lum bir muayyan rang tushunilmasligi mumkin. Har qanday rangning to`q tusini qoramtir deyish mumkin: qoramtir chit, qoramtir marmar va h.

Qizg`ish, sarg`ish, ko`kish so`zlari qo`llanganda shu ranglarga moyillik borligi tushuniladi: qizg`ish sariq, sarg`ish oq, ko`kish kulrang kabi.

Ozaytirma daraja affikslarining ketma-ket ikki rang bildiruvchi sifatga qo`shilib kelishi hollari ham uchraydi. Bunday qo`llanish ko`proq yozuvchi uslubiga bog`liq. Masalan, Mahkam uning murdanikiday ko`kintir sarg`ish yuziga qarab, qo`rqib o`rnidan turdi. (P. Qodirov)

Shuni ham aytish kerakki, daraja affikslari soʻzlarga ketma-ket qoʻshilganda, ikki turli formada boʻlishi shart, yaʼni –im, -tir, -ish yoki buning aksi.

Affikslar olgan rang nomlarining bir turkumi ranglarning ochligini, nimrangligini ifodalab kelsa, bir turkumi ulardagi qoʻshimcha ottenkali boshqa rangga moyillikni ifodalashga xizmat qiladi.

Maʼlumki, ranglarning och, nimrang xillari ozaytirma daraja xillari bilan, toʻq, qoramtir xillari kuchaytirma daraja xillari bilan ifodalanadi. Ayni vaqtda bu formadagi sifatlar rangning turli darajasi bilan ham aloqadordir. Ranglarning ozaytirma darajasini ifodalashda jonli tilda fonetik usullardan keng foydalaniladi. Bunda koʻproq och, nim, sal-pal soʻzlari ishlatiladi. Yaʼni bu soʻzlardagi unli tovushlar choʻziq talaffuz qilinadi. Demak, rang-tus bildiruvchi sifatlarning daraja maʼnolarini ifodalashda fonetik, morfologik, leksik va sintaktik usullardan foydalaniladi.

Daraja maʼnosini ifodalovchi soʻzlar oʻz maʼnolaridan tashqari matndagi turli koʻchma va qoʻshimcha maʼnolarni berishi mumkin.(Bu borada uchinchi bobda toʻxtalamiz)

Maza-taʼm sifatlari qatoriga shirin, achchiq, nordon, chuchuk, chuchmal, shoʻr, taxir, kakra, laziz, xushtaʼm, talx, talxa va hokazolar misol boʻladi. Maza-taʼmni ifodalashda ot turkumidagi soʻzlardan ham foydalaniladi: *shakar, asal, novvot, namakob, zahar* kabi.

Maza-taʼm bildiruvchi sifatlar leksik xususiyati bilan birga, morfologik tabiati, sintaktik vazifalari va konversiya holati bilan ham tilshunosligimizda oʻz oʻrniga ega. Maza-taʼm bildiruvchi sifatlar tuzilishi jihatdan sodda, juft, takror va qoʻshma sifatlarga boʻlinadi. Sodda sifatlar tub va yasama sifatlarga boʻlinadi. Yasama sifatlarga *achimsiq, tuzsiz, mazali, bemaza, bamaza, xushxoʻr, xushtaʼm va hokazolarmansub*.

Maza-taʼm bildiruvchi juft sifatlar tarkibiga shirin-shakar, zahar-zaqum, achchiq-chuchuk, asal-qand kabilar misol boʻladi.

Maza-ta'm bildiruvchi takror sifatlarga shirin-shirin, achchiq-achchiq kabilar mansub.

Maza-ta'm sifatlari asosida shakllangan qo'shma so'zlar (sifat+ot); sho'rpushona, shirinsuxan, sho'rtumshuq (holat va xususiyat sifatlari), sassiq o't (ot), sassiq popushak(ot) kabi so'zlar nutqimizda anchaginani tashkil etadi.

Maza-ta'm bildiruvchi sifatlarning sintaktik vazifasi:

1. Aniqlovchi bo'lib keladi: *Shirin* mevalarga o'rgangan og'izlariga bu yerning nordon mevalari yoqmadi. (Oybek)

2. Kesim bo'lib keladi: Siz pishirgan taom shu darajada shirin, lazzatli bo'ladi.

Ba'zida maza-ta'm sifatlari ko'chma ma'noda kelganda hol vazifasida kelishi ham uchrab turadi: *U achchiq gapirdi.* (Gazetadan)

Maza-ta'mni ifoda etuvchi eng faol so'zlardan biri shirin va achchiq sifatlardir. Bu sifatlar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda ham faol qo'llanadi. Masalan: shirin turmush, achchiq haqiqat, shirin bola, shirin so'z, shirin tabassum va b. Achchiq so'zining shirin so'ziga nisbatan ma'no doirasining kengligi uning turkiy (o'zbek) so'z ekanligi bilan bog'liq. Achchiq – bu so'z qadimgi turkiy tildagi achi fe'lidən yasalgan. Achchiq so'zi diaxronik yasama, sinxronik jihatdan esa tub so'zdir. Yoqimli so'zi aslida holat sifati bo'lib, ba'zankontekstda shirin, mazali sifatlari bilan ma'nodosh bo'lib keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, maza-ta'm sifatlarining ham konnotativ ma'nolari keng bo'lib, bular orasidan shirin va achchiq so'zlari ma'no ifodasining kengligi bilan ajralib turadi. Taxir, chuchuk, nordon kabilar shirin va achchiq sifatlari oralig'idagi leksemalardir.

Hid bildiruvchi sifatlar o'zbek tilining lug'at boyligida ta'm-maza sifatlari kabi kam miqdorda. Bu tarkibga *xushbo'y, muattar, sassiq, badbo'y, qo'lansa, ifor* va hokazolar mansub. Shuningdek, bu belgi uchun predmet nomlaridan ham foydalaniladi, ya'ni hidni ifodalash uchun predmet nomiga "hid" so'zini qo'shib aytish orqali birikmali sifatlarhosil qilinadi: atir hidi, rayhon hidi, yog' hidi, kerosin hidi, baliq hidi, xazon hidi, yoqimli hidkabi. Masalan: *Pastdagi bog'dan*

yumshoq, namxushxazon hidi ko`tarilib, uning xayollarini to`lin oy sehlagan tog` vodiy daralariga olib ketardi.(A.Muxtor)Lobarxon oyoqlarida zo`rg`a tursa ham,nur ko`rganidanmi yo dimog`ini qitiqlayotgan yoqimli hiddanmi, har qalay tinmay jilmayar edi. (M. Ismoilii)Bu kabilar so`z birikmasi va qo`shma so`z oralig`idagi so`z hisoblanadi.

Hid bildiruvchi tub sifatlar: muattar, qo`lansa, ifor va b.

Hid bildiruvchi yasama sifatlar: xushbo`y,badbo`y, sassiq va b.

Xushbo`y sifati “yoqimli hidga ega, hidi yoqimli” ma`nolarini ifoda etib muattar, ifor kabi so`zlar bilan sinonimlikka kirishadi. *Ona yerning xushbo`y tafti mast qiladi kishini. (E.Oxunova)* Xushbo`y sifatining sinonimi sifatida hidli so`zi sinonimlir lug`atida keltiriladi. Biroq bu holatga qo`shilish qiyin. Chunki “hidli” semasi ostida har qanday hid, ya`ni xushbo`y hidham, qo`lansa hid ham tushunilaveradi. “Muattar” ko`proq badiiy uslubda qo`llanadi: Bir g`uncha edingiz yel ham tegmagan,ifor taralardi sizdan muattar. (Q. Dehqon)

Ba`zanjonli so`zlashuvda shirin hid, achchiq hid kabi qo`llanishlar ham uchrab turadi.Sassiq so`zi “hidi yomon, yoqimsiz, qo`lansa” ma`nosini anglatadi. Bu so`z sassiq, badbo`y, qo`lansa kabilar bilan sinonimlikka kirishadi:

Sassiqbalchiqda yotgan sassiq to`ng`iz avval o`zini qutqarsa-chi, birovning g`amini yeyish o`rniga!– dedi Zulfizar.(K.Yashin) Qurtxona havosi bo`g`iq, kishining nafasi qaytar, qandaydir badbo`y hid kelar edi. (N.Safarov)

Sassiq leksemasi shaxsning belgisini bildirib kelganda, odatda, so`zlovchining salbiy munosabatini ifoda etadi: Oh bolam, yoshligim qaytib kelsa, bu sassiq cholga o`lsam ham tegmasdim.(S.Ahmad) Sassiq so`zi kontekstda “yomon, yoqimsiz” sifatlariga xos xususiyatlar ma`nosini tashishi mumkin: Sassiq bo`lsa ham burun o`zimizniki. (H.Sulton) Bu misolda sassiq leksemasi orqali gap-so`zi, xatti-harakatlari yoqimsiz, so`zlovchining jini suymaydigan belgi ma`nosi ifolalagan.

Umuman, hid bildiruvchi sifatlar oz bo`lsa-da, ifoda semasi kengligi bilan ahamiyatlidir. Ular tub va yasama holda uchraydi. Qo`llanish doirasi bilan farqlanadi.

II. 3. Hajm – o`lchov, o`rin va paytni bildiruvchi sifatlar

Bu kabi sifatlar predmetning o`lchovi, umuman, ko`lamini bildiradi. Bu qatorga keng, tor, uzun, chuqur, chog` (choqqina uy), yirik, jajji, hayhotday, ixcham, mayda, mitti, azim, muazzam, mo`jaz, katta, kichik, og`ir, vazmin, yengil, so`ngsiz, bepayon, tubsiz (ummon), teng, ulkan, ulug` sayoz, uzoq, yaqin va hokazolar mansub.

Hajm-o`lchov bildiruvchi sifatlar tuzulishiga ko`ra sodda (tub va yasama), juft, takror va qo`shma holatda bo`ladi.

Hajm-o`lchov bildiruvchi tub sifatlar tarkibiga keng, tor, uzun, chuqur, chog` (choqqina uy), yirik, jajji, hayhotday, ixcham, mayda, mitti, azim, muazzam, mo`jaz, katta, kichik, og`ir, vazmin, yengil, so`ngsiz, bepayon, tubsiz (ummon), teng, ulkan, ulug` sayoz kabilar misol bo`ladi.

Hajm-o`lchov bildiruvchi yasama sifatlarga so`ngsiz, bepayon, tubsiz (ummon) kabi so`zlar mansubdir.

Hajm-o`lchov bildiruvchi juft sifatlar guruhiga kalta-uzun, katta-kichik, og`ir-vazmin, yengil-yelpi, baland-past, kalta-kulta kabilar misol bo`ladi.

Poetik nutqda ham bu kabi so`zlar faol qo`llanganicha guvoh bo`lishimiz mumkin. Nasriy asarlarda bu kabi hajm-o`lchov sifatlari odatda o`z asl ma`nosida qo`llanadi. *Hovli tor, devorlari baland, xuddi kattakon hovuzga o`xshar, buning ham to`rtidan birini ayvon egallagan edi.* (Abdulla Qahhor) Nazmiy asarlarda esa o`z ma`nosi bilan birga ko`chma ma`noda ham qo`llanadi.

Bahaybat, haybatli so`zlari ma`no darajani oshirish uchun qo`llanadi. Bular ta`sirchanlikni oshirish maqsadida qo`llanadi

Ulkan so`zi manbalarda eskirgan so`z sifatida keltiriladi. Gigant kitobiy uslubga xos bo`lib, asosan inshootlarga nisbatan qo`llaniladi.

Yirik so`zi meva, tosh va boshqa so`zlar bilan birikadi. Mazkur so`z barcha so`z bilan ham sintagmatik munosabaga kirishavermaydi. Masalan, yirik uy, yirik daraxt kabi qo`llanishlar usluban noto`g`ri. Shu jumladan, gigant so`zi ham shunday. Gigant so`zini har qanday so`z bilan biriktirish mumkin emas. Masalan, gigant shoir birikmasi usluban g`aliz hisoblanadi.

Ko`lam me`yorini bildiruvchi sifat leksemalar orasida predmetning enini bildirishga xizmat qiluvchi keng, tor sifat leksemalar ma`lum bir oraliq masofani ifodalash uchun qo`llaniladi. Ko`lam me`yorini bildiruvchi sifat leksemalar orasida chuqur, sayoz so`zlari predmetning pastlikka tomon bo`yini, chuqurligini ifodalashga xizmat qiladi. Bunda sayoz leksemasi chuqurlikning kuchsiz darajasini “tagi yuza joylashgan” semasini ifodalasa, chuqur leksemasi esa bunday belgining kuchli darajasini, aksini bildiradi. Ko`lam me`yorini bildiruvchi sifat leksemalar doirasiga kiruvchi uzoq, yaqin leksemalari uzunlik belgisining umumiy nomini ifodalaydi. Mazkur so`zlar ham fe`l oldidan kelib, ish-harakatning miqdoriy belgisini ifoda etishga ixtisoslashgan: Yaqin kelma, o`ldiraman, - dedi do`sti. (O`.Umarbekov) Uzoq ketib qolsangiz, men nima qilaman? (P.Qodirov).

***O`rin va paytga*** oidsifatlar o`rin va payt bilan bog`liq belgini bildiruvchi so`zlar hisoblanadi. Bu qatorga tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertagi, bugungi, dastlabki, ilk, sobiq, yuqorigi (qavat), quyi (palata), tuban (joy), tungi, to`ng`ich, o`rtancha, kenja, chetki, bulturgi, burungi, sirtqi, ichki, tashqi, oldingi, bahorgi va boshqalar mansubdir.

O`rin va payt bildiruvchi sifatlarning asosiy grammatik xususiyati yasovchi qo`shimchalarni olishidir. Masalan: *-gi, -ki, -qi* affikslari o`rin-joy yoki payt bildiruvchi so`zlardan sifat yasaydi va bu turdagi sifatlar predmetning asosdan anglashilgan joy yoki vaqtga oidlik belgisini bildiradi: *oxirgi, hozirgi, chetki, ostki, tushki, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertagi, bugungi, dastlabki, yuqorigi (qavat), tungi, bulturgi, burungi, sirtqi, ichki, tashqi, oldingi, bahorgi va boshqalar mansubdir.* *Kechki payt hujrada Boburning yolg`iz o`zi o`tirar edi.*

-gi affikisi payt sifatlari kontekstda bosh ma`nodan bo`lak ma`nolarni bildirishi mumkin. Masalan, so`nggi so`zi muayyan hodisa, holatning yakunlovchi bosqichi, bo`g`ini semasi bilan reallashadi: *Ashtarxoniylarning so`nggi xoni Abulfayzxonning o`g`li Abdulmo`min nomida hukmdorlik qilgan. (O.Yoqubov) Dastlabki kunlar yo`l unchalik mashaqqatli bo`lmadi. (Mirkarim*

Olim)Jarangli va unli bilan tugagan asoslarga -gi affiksi qo`shilsa, jarangsiz tovush bilan tugagan asoslarga -ki va -qi affikslari qo`shiladi.

Xullas, sifatning morfologik xususiyati boshqa so`z turkumlari qatori muhim o`rinni egallaydi. Biz II bobda sifatning ma`noviy guruhlarining morfologik xususiyati, ya`ni ularning tuzilishi jihatidan turlari xususida fikr yuritdik va shunga amin bo`ldikki, sifat yasashda ot, sifat, fe`l turkumidagi so`zlar asos bo`la oladi. Shuningdek boshqa turkumdagi so`zlarni yasashda sifatlardan ham foydalaniladi. Ishimizda sifatlar voqea- hodisaning turli xil belgiusini bildirishi, gap tarkibida ot va otlashgan so`zlardan oldin kelib aniqlovchi vazifasini bajarishi, asliy va nisbiy, tub va yasama, sodda va qo`shma turlarga bo`linishi, substantivatsiya hodisasining sifatlardagi ko`rinishlari, sifat yasovchi qo`shimchalarning o`ziga xos tabiati, ularning ma`nodoshlik va antonimlik xususiyati masalalarini yoritdik.

Sifatning ma`no jihatidan turlari nisbatan nisbiy tushuncha hisoblanadi. Chunki bir ma`no guruhiga mansub sifat matn tarkibida boshqa ma`no guruhiga tegishli bo`lishi mumkin. Biz keyingi bobda bunga alohida to`xtalib, yoritishga harakat qilamiz.

III BOB. SIFAT MA'NOVIY GURUHLARINING SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

III. 1. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlarnig semantik va uslubiy xususiyatlari

Xarakter-xususiyat sifatlari, odatda inson ruhiyati, xarakteri bilan bog`liq belgilarni bildirib keladi. Xarakter – xususiyat sifatlari tarkibiga *abadiy, abjir, adabiy, ajib, azaliy, aziz, ayyor, badbin, badjahl, badiiy, badnafs, badrashk, baynalminal, balandparvoz, battol, vazmin, vaysaqi, vatanparvar, vafodor, daydi, dangasa, yebto`ymas, ochofat, parishonxotir, yovvoyi, zabardast, zakiy, kamgap* va boshqalar mansub.

Xarakter-xususiyat sifatlaridan bir turkumi inson, predmet va hayvonlarning xarakter-xususiyatini ifodalashda umumiy qo`llanadi, bir turkumi esa faqat inson xarakteri yoki predmet xossasini ifodalashga xos bo`lib qolgan.

1. Insonning xarakter-xususiyatini belgilovchi sifatlari: a) ijobiy sifatlari: *muloyim, odobli, chapdast, chaqqon, abjir, ziyrak, mo`min, sodiq, yuvosh, mohir, pok, sipo, mehribon* va b.

b) kishiga xos salbiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlari ko`pincha ijobiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlarga antonim sifatida qo`llanadi, ya`ni bu sifatlari kishilarning yoqimsiz, yaramas xususiyatlarini ifoda etadi:

zolim, nokas, toshbag`ir, shafqatsiz, quv, ayyor, muttaham, rasvo, ablah, dog`uli, uquvsiz, o`jar va b.

Kishi xarakter-xususiyatini berishda yuqorida zikr qilingan sifatlardan tashqari boshqa turkumdagi (holat, shakl, maza-ta`m, rang-tus bildiruvchi) sifatlardan ham foydalanadi. Bunday sifatlovchilar orqali ham kishilarga xos turli xarakter-xususiyatlar ochiladi: *Bir qaradi, ko`zi yomon o`tkir ekan, jonim chiqib ketayozdi.* ("O`zbek xalq dostonlari") *U sarbast, ziyrak harakatlari dadil, so`zlari o`tkir, o`rtoqlari orasida onaboshi qiz.* (Oybek)

v) kishi xarakter-xususiyatiga oid yana shunday sifatlar borki, ularning ma`nosidan ijobiylik yoki salbiylik yaqqol bo`rtib turmaydi. Nutq momentiga qarab, ular har ikkala chegarasiga ham o`tib olishi mumkin. Masalan: *dovdir, loqayd, sho`x, mahmadona, sinchkov, mag`rur, indamas, o`tkir va b. Gulchehra sal yengiltak va sho`x bo`lsa-da, o`zi juda. mehr-oqibatli qiz.* (O.Yoqibov)

2. Predmet (narsa, hayvon, jonivor), holat, hodisa va shu kabilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo`llanuvchi sifatlar: *xonaki, dolzarb, dabdabali, tashvishli, asov, chopong`ich, sun`iy, tabiiy, tekin* kabi.

3. Kishi va predmet xususiyatlari uchun birdek qo`llanaveradigan sifatlar: *yaxshi, yomon, zo`r, chidamli* va b.

Ba`zi sifatlar esa, yo kishi, yoki predmet belgisi uchun ko`chgan ma`noda qo`llanishi mumkin: *yengil, og`ir, dag`al, dardisar, qaysar, xira, uchar* va b.

Insonning xarakter-xususiyati, ya`niruhiy holatini ifodalovchi ijobiy ma`nodagi ba`zi sifatlarni kuzatamiz.

Muloyim sifati aslida narsa belgisini ifoda etish uchun qo`llanadi. Masalan: *muloyim non, muloyim taom* va h.k. Biroq mazkur so`z ba`zida inson xarakterini ifoda etish uchun ham qo`llanishi mumkin. Bu so`z quyidagi ma`nolarda ko`chim ifodalaydi:

1. Yoqimli va yumshoq ta`sirli. *Ertalab yomg`ir tingan, havo muloyim va orombaxsh.*

2. Gap-so`z, xatti-harakatlari nihoyatda yoqimli va yumshoq. *Alixon tabiatan og`ir, muloyim, kamgap yigit edi.* (H.Nazir)

Muloyimlashmoq, muloyimlik kabi yasama soʻzlar ham yuqoridagi xarakter sifati orqali hosil boʻlgan.

Muloyim soʻzi oʻz maʼnosida holat sifati boʻlib, koʻchma maʼnosi bilangina xarakter-xususiyat sifati boʻlib keladi.

Abjir, chapdast, chaqqon, epchil sifatlari bir umumiy maʼno ostida birlashadi. Biroq xususiy tomonlari, alohida maʼno nozikliklari bilan farqlanadi.

Abjir sifati “oyoq-qoʻli tez, tez harakat qila oladigan” maʼno ifodasiga ega: *Yoʻlchiboy barvastaligiga qaramasdan abjirgina yigit.* (Oybek)

Chapdast sifati asl maʼnosiga koʻra “chapaqay, yaʼnichap qoʻli bilan asosiy yumushlarni qiluvchi kimsa” kabi maʼno anglatadi. Biroq bu soʻz hozirgi oʻzbek adabiy tilida, *odatda, chaqqon, epchil, uddaburon, usta, mohir* tarzidagi maʼno ifodalariga ega. Misollarni kuzatamiz:

1. *Gʻayrat Hakimdan koʻz uzmas, uning epchil chapdast harakatlarini havas bilan kuzatardi.* (M.Hazratqulov)

2. *Uning ota-bobosi novvoy oʻtgani uchun oʻzi non yopishga chapdast edi.* (Sh.Xolmirzaev)

Birinchi gapda qoʻllangan *chapdast* soʻzi “*chaqqon, epchil*” maʼno ifodasiga ega boʻlsa, ikkinchi gapda kelgan bu soʻz “oʻz ishining ustasi, mohir” kabi maʼno ifodalanishi bilan xarakterlanadi.

Ziyrak soʻzi asl maʼnoda, yaʼnifors-tojik tilida *chaqqon, epchil, oqil, dono* kabi maʼnolarda qoʻllanishi aytiladi [40, 139].

Oʻzbek adabiy tilida “*tez fahmlaydigan, fahmi tez, sezgir*” maʼnosi birlamchi mavqega ega.

Ziyrak soʻzi *sezgir*, *tuygʻun* sifatlari bilan sinonimlik hosil qiladi. Bular orasida *sezgir* soʻzi bosh soʻz sanaladi. Ular ishlatilish doirasi, uslubiga koʻra farqlanadi.

Tuygʻun soʻzi “*tez sezib, fahmlab, payqab oladigan*” tarzidagi izohga ega [41,18]. Shu bilan birga, mazkur soʻz omonimlikka ham ega. *Tuygʻun* soʻzining omonimligi sinonimlar lugʻatida [41] keltirilmagan boʻlsa-da, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da bu soʻzning rim raqamidagi ikkinchi shakli borligi kuzatildi,

ya'niot soʻz turkumiga oid ushbu soʻz qirgʻiy yoki qarchigʻayning erkagiga nisbatan ham qoʻllanilar ekan [40, 185].

Sipo soʻzi asl forsiy tilda qoʻshin, askar kabi maʼnoga ega boʻlib, bizning lugʻat qatlamimizga oʻtgach, boshqa xil maʼno ifoda etishga ixtisoslashganligi kuzatiladi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bu soʻz “*kamgap, kamsuqum, oddiy*” kabi maʼno ifodalariga ega [40, 518]. *Komila beqasam kiyib, soʻrida sipogina oʻtirgan Azimjonga koʻz qirini tashlab qoʻydi.* (A.Muxtor)

Bu soʻzning sipoh shakligina “podshoh, xon, amir saroyida uzoq xizmat qilgan lavozimli kishi, amaldor” maʼnosiga ega. *Sipo* soʻzining birinchi maʼnosi “kamtar, oddiy” boʻlsa, ikkinchi maʼnosi “ogʻir, vazmin, bosiq” boʻlib hisoblanadi. Misol:

Endi shoʻxlik qayoqda deysiz,

Yurishlarim sipo va oʻychan.(A.Oripov)

Asil sifati “aʼlo sifatli, eng yaxshi, toza, sof” maʼnolariga ega: asl mol, asil shoyi. Bu soʻz koʻchma maʼnoda “yaxshi xislatlarga, fazilatlariga ega boʻlgan, olijanob, bebaho, sof, pok” kabi maʼno ifodalariga egaligi eʼtirof etiladi [40,105].

Yuqorida eslatib oʻtganimizdek, kishilarga xos salbiy xususiyatlarni bildiruvchi sifatlar koʻpincha ijobiy maʼnodagi sifatlariga antonim sifatida qoʻllanadi. Shulardan ayrim birlarini tahlilga tortamiz. Mantdagi imkoniyatlarni kuzatamiz.

Zolim xarakter-xususiyat sifati “zulm qiluvchi, zulmkor, jabr qiluvchi” maʼno ifodaga ega. Bu soʻz, asosan, badiiy uslubda qoʻllanishi bilan xarakterlanadi: Akram savolida davom etdi: - Hokimimiz juda zolim emish, bu toʻgʻri soʻzmi? (A.Qodiriy)

Bu soʻz “jabr-zulm bilan toʻlib-toshgan” maʼnosida zolim falak, zolim dunyo tarzida ham qoʻllanadi. *U (Yoʻlchi) oʻz singlisini Gulnordan ayirib, uni zolim tanholik quchogʻiga otishni istamaganidan yana bir necha vaqt Unsinni bu yerda qoldirishga moyil edi.* (Oybek)

Rasvo salbiy ma'no ifodali xarakter-xususiyat sifati quyidagi ma'no ifodalariga ega: 1. Nojo'ya xatti-harakati, yurish-turishi bilan el nazaridan qolgan. *Yaramas, razil, tavba, - dedi u o'ziga-o'zi, yarim soat ichida ikki rasvo odam bilan uchrashsam-a. Hayotda hech mahal bunchalik yaramas tasodifga yo'liqmagan edim.* (Mirmuhsin)

2. Juda ham yomon, tanqiddan tuban: *rasvo gap.*

3. Juda ham yomon, yaramas, nokas. *Jaydari g'o'zaday mijg'ov, rasvo ekinni dehqon bolasi bilmasa kerak.* (G'.G'ulom)

4. Izdan chiqib ketgan, yomon ahvolga tushib qolish. *Ishni rasvo qildi-ku, padar la'nat toshbaqa.* ("Yoshlik")

Rasvo so'zi jonli so'zlashuvda joy, turar manzil, kiyimga nisbatan ham qo'llanishi kuzatiladi: rasvo joy, rasvo kiyim va b. Bu holda holat sifati bo'lib keladi. Mazkur ma'no izohli lug'atdan o'rin olmagan [40, 351].

Qabih sifati "axloq-odob, insoniylik qoidalari talabiga zid, jirkanch, razil, yaramas" holatlarga ko'ra qo'llanadi. *G'ulomjon bu qabih nayrangbozlikdan qattiq g'azabga kelsa-da, o'zini og'ir tutib, og'ir so'zlashga harakat qildi.* (M.Ismoilov)

Takabbur, qabih sifatlari badiiy uslubda qo'llanadi. Bu ikki so'z ham arab tilidan o'zlashgan.

Munofiq sifati ikkiyuzlamachi kishilarga nisbatan qo'llanadi, ya'nitili boshqa, dili boshqa, so'zi va ishi bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, samimiylikdan yiroq holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so'zning yuqoriroq darajasini ifoda etishda *olchoq* sifati qo'llanadi. *Olchoq* so'zi "o'ta ketgan razil, past yovuz, nomard, xoin" ma'nosini ifodalaydi. *Men shaytondan ming martaba dahshatli bo'lgan olchoqlarni ko'rib, chidab turganman avval.* (A. Oripov) *Olchoq* sifati kitobiy uslubga xos.

Qo'rs sifati qo'pol, dag'al, to'ng kishiga ko'ra qo'llaniladi. Shuningdek, his-tuyg'udan yiroq ma'no ifodasi ham mavjud. Har zamonda ham qo'rs odamlar bo'lgan. (M.Ismoilov)

Qo`rs so`zi asosida qo`rslilik oti shakllanadi. Bu so`z uch ma`no ostida izog`lanadi [40,414] .

Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek, shunday xarakter-xususiyat sifatlari borki, ijobiylik yoki salbiylik yaqqol sezilmaydi. Bu kabi ma`nolar nutq sharoitida reallashadi. Bu qatorga *dovdir, loqayd, sho`x, mahmadona, sinchkov, mag`rur, indamas, shaddod, o`tkir, to`pori* kabilar misol bo`lishi aytiladi [33, 302]. Biroq zamon bilan bog`liq holatda yuqoridagi ayrim so`zlarning ma`no chegarasida o`zgarishlar bo`lganligi kuzatildi. Masalan, *dovdir* so`zi bugungi kunda neytral ma`no ifoda uchun emas, balki salbiy ma`no ifoda uchun qo`llanadi. Ushbu so`zga izohli lug`atda shunday ta`rif keltirilgan: “telba-teskari ish qiladigan, telbanamo; dumbul, anqov, hovliqma”. Ko`rinadiki, bu so`z manbalarda aytilganidek neytral ma`no ifoda uchun emas, balki salbiy ma`no uchun ishlatiladi.

Loqayd sifati “beg`am, beparvo, betashvish, sovuqqon” ma`nolariga ega. Bu so`z matn bilan bog`liq ravishda ba`zan qisman salbiylikni, ba`zan esa qisman ijobiylikni ifoda etadi. Quyidagi misollarni kuzatamiz:

1. *Ko`ngling sezgan narsaga loqayd qarama, o`g`lim, tagiga yet.*
(A.Muxtor)

2. *U qabulxonada o`tirganlarga loqayd bir nazar tashladi-da, tez yurib, koridorga chiqdi.* (S.Ahmad)

Har ikkala gapda qo`llangan *loqayd* so`zi o`ziga xos ma`no tashigan. Birinchi gapda insonga xos salbiylik holatini ifodalash uchun qo`llangan bo`lsa, ikkinchi gapda salbiylik ma`no ifodasi emas, balki me`yorlik, betaraflik ma`no ifodasi aks etgan.

Indamas so`zi aslida fe`l turkumiga xos bo`lib, fe`lning vazifa shakli sanalmish sifatdoş hisoblanadi. Bu so`z til taraqqiyoti natijasi o`laroq sifat turkumiga siljigan. Bu hol fanda ixtisoslashish termini asosida talqin etilmoqda [20,44]. *Indamas* so`zi sifat tarzida talqin etilganda “juda kam gapiradigan, kamgap, damduz” tarzida izohlanadi [40,208].

Neytral holat ifodasi uchun ishlatiladigan o`jar xarakter-xususiyat sifati bir necha ma`no ifodaga ega:1.*To`g`ri, maqbul maslahat, gap-so`zga quloq solmay, yon bermay, o`z fikrini ma`qullaveradigan, gap uqmaydigan, qaysar. U qancha so`zlamasin, bu kitobning dinga ziyonsiz ekanini o`jar musulmonga tushuntira olmadi.* (Oybek)

2. Yalinib-yolvorish, iltimos kabilarga ko`navermaydigan, o`z so`zidan, fikridan qaytmaydigan, bir so`zli. *Unga kamoli ehtirom bilan salom berdi. Dilidagi gaplarini astoydil tushuntirib to`kdi. U bir so`zli o`jar odam ekan. Ko`nmadi.* (S. Ahmad)

3. Ko`chma. Boshqaning izmiga yurmaydigan, bo`ysunmas. *Suv o`jar, uni tizginlash oson emasligini Po`latjon biladi.* (S.Ahmad)

4. Ko`chma, qaytarib, o`zgartirib bo`lmaydigan narsa haqida. *Haqiqat – o`jar narsa.Kishilarning kimligi, qaysi vazifada ishlashini yuzxotir qilmaydi.*(A. Nabixo`jayev)

Shaddod xarakter-xususiyat sifati ikki ma`no ostida izohlanadi [40,532].

1.O`z xohishi, hukmini o`tkazadigan, shavqatsiz, zolim. *Bolalar baxtining yulduzlariga Zaharlar sochmoqchi qaysi jallodlar? Dunyoning ravshanlik – kunduzlariga Zulmat qo`ymoqchimi bebosh shaddodlar?* (M. Shayxzoda)

2. O`z fikrini o`tkazishga tirishadigan, o`jar, cho`rtkesar; o`z fikrini qat`iylilik bilan, dadil aytadigan, tortinmas (asosan ayollar haqida). *Shaddod, gapini birovga bermaydigan, erkakshoda Asrora zvenoga boshliq bo`ldi.* (S.Ahmad) *Shaddot* sifati asosida *shaddotlik* oti paydo bo`lgan .

*To`pori* xarakter-xususiyat sifati “juda sodda, oddiy” tarzidagi ma`nolarga ega. *To`pori odam, to`pori yigit va h.k.*

Xarakter- xususiyat sifatlarining bir qismi narsa va jonivorlarga ko`ra qo`llanadi. Bu qatorga *xonaki, dolzarb, dabdabali, tashvishli, asov, chopag`on, sun`iy, tabiiy, tekin, qimmat, arzon* kabilar misol bo`ladi [33,302].

Xonaki sifati fors tojik tiliga xos xona so`zi bilan bog`liq bo`lib, affiksatsiya usulida yasalgan. Bu so`z quyidagi ma`nolarni ifoda etadi :

1. *Qo`lda tayyorlangan, qo`lda qilingan. Dasturxonda xonaki non, atirgul nusxa tort va turli xil mevalar bor edi.* (S. Axmad)

2. Maxsus tayyorlangan, qo`lbola, xonaki choy damlamoq, xonaki palov qilmoq.

3. Uyda xonadonda boqiladigan, parvarish qilinadigan, qo`lda o`rgatilgan. *xonaki it, xonaki gul.*

4. Xona yoki uy ichida bo`ladigan, uyda bajariladigan. *Sotiboldi tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo`ldi – har xil savatchalar to`qishni o`rgandi.* (A.Qahhor)

Asov so`zi asosan hayvonlarga nisbatan qo`llanadi. Faqat ko`chma ma`noda kelsagina, narsa-hodisaga nisbatan qo`llanadi.

Yuqorida aytib o`tganimizdek, ayrim sifatlarni ma`no turlarga bo`lish nisbiy kechadi. Muayyan, bir sifat bir ma`nosi bilan sifatning bir turiga, ikkinchi ma`nosi bilan boshqa ma`no guruhiga oid bo`lishi mumkin. Bu qatorga *yengil, og`ir, dag`al, dardisar, bachkana, rasvo, xira, uchar* kabilar mansub bo`la oladi.

*Yengil, og`ir* sifatlarning og`irlik o`lchovi uchun ishlatilishini izohlashga hojat bo`lmasa kerak. Biroq ayni sifatlar matnda xarakter-xususiyat sifati bo`lib ham kela oladi. Bu holda ko`chma ma`no ifodalaydi. Misollarni kuzatamiz:

1. *O`zingga munosib gapni gapir! Yengil bo`lma!* (A.Qahhor)

2. *Aminjon, o`zi yosh bo`lsa ham, juda pishiq, og`ir g`ayratli.* (A.Qahhor)

*Yengil, og`ir* so`zlari ham o`z ma`nosida, ham ko`chma ma`noda antonimlikka kirishadi. Bu so`zlar narsa-hodisalarga nisbatan ham ko`chma ma`noda qo`llana oladi: *yengil shabada, yengil qarash, yengil imtiyoz; og`ir qadam, og`ir qarash, og`ir turmush, og`ir hayot* va h.k.

*Yengil, og`ir* so`zlari kishilarga nisbatan qo`llansagina xarakter-xususiyat sifati bo`lib keladi.

Umuman, xarakter-xususiyat sifatlariga baho berishda, guruhni shakllantirishda hushyorlik talab etiladi. Chunki bu kabi sifatlar ba`zida turli ma`no ifodasiga ega bo`lib, matn orqali anglashiladi. Xarakter-xususiyat sifatlari

deb baholanadigan bir guruh sifatlar asl ma'noda sifatning ma'no jihatdan boshqa turiga oid bo'lib, ko'chma ma'nodagina shu guruhga tegishli bo'ladi.

Xarakter-xususiyat sifatleri kishilarning ijobiy yoki salbiy jihatlarini, shuningdek, bunoday ma'nolarga betaraf munosabatda bo'lishi bilan ham xarakterlanadi.

III. 2. Holat bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari

Sifatning ma'no turlaridan biri sanalmish holat sifatleri predmet, inson, hodisa, hayvonga yoki vaziyatga xos holatni ifodalab, sifatning ma'no turlari orasida eng katta guruhlardan birini tashkil etadi [25,50]. O'zbek tilshunosligining keyingi davrlarida amalga oshirilgan tadqiqotlaridan birida [58] holat sifatlarining statistik tahlili keltiriladi. Unga ko'ra insonga xos holat bildiruvchi so'zlar soni 550 tani, predmetga xos holatni bildiruvchi sifatlar 780 tani va turli hodisalarning belgilarini bildiruvchi sifatlar 420 tani tashkil etishi ma'lum bo'ladi.

Holat sifatleri tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin: *abgor, aybdor, barkamol, barqaror, boxabar, vayron, voqif, gavjum, giryon, dabdala, kir, ko'hna, luchchak, mal'un, noqulay, navqiron, ochiq, osuda, paxpoq, pachoq, pinhon, pokiza, semiz, sovuq, toza, tarang, tashna, xom, xarob, xor, xursand, shalabbo, eski, qaram, ho'l* va b.

Narsa, hodisaga, inson va hayvonga xos holat yoki vaziyat turli sifatlar orqali ifodalanishi mumkin: 1. Tabiiy holat belgilari: a) ijobiy ma'noda: *go'zal, ko'hlik, chiroyli, suluv, latif, qomatdor* va b; b) nuqsoniy belgilar: *cho'loq, mayib, maymoq, bukir, cho'tir, soqov, xunuk, g'ilay, kar, pes, ko'r, qiyshiq* va b.

Qayd etilgan sifatlarning ayrimlari hayvon va predmetlarning belgisi uchun ham qo'llanaverishi mumkin: *O'sha mayib turna cholning qo'lida shifo topib yana o'z karvoniga qo'shilganini bilarmikin.* (S. Ahmad)

2) Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar: *bardam, baquvvat, tetik, yosh, keksa, qari*, va b. Bunday sifatlar predmet belgilari uchun ham qo'llana oladi: *Oqsoqol hovliga, keksa tut shoxlari engashib turgan tunuka tomga suqlanib birma-bir qarab chiqdi.* (S. Ahmad)

3) Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar: *xursand, xafa, jinni, sog`, sergak, xushyor, g`azabnok, darg`azab, tajang, kindor*, va b.

4) Kishining hayotiy holatini, ahvolini ifodalovchi sifatlar: *boy, badavlat, kambag`al, qashshoq, yo`qsil, gado, yetim, mushfiq, bechora, musofir* va b.

5) Predmetning harorat belgisini ifodalovchi sifatlar: *issiq, sovuq, iliq, salqin, ilmiliq (iliq-miliq)* kabi.

6) Tozalik, ifloslik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *toza, ozoda, sof, musaffo, saxtiyon, kir, isqirt, irkit* va b.

7) Predmetning eskilik, yangilik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *yangi, eski, churuk, uvada, juldur* va b.

8) Predmetning pishgan yoki xomlik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *xom, g`o`r, dumbul, pishgan, pishiq* kabi.

9) Predmetning ho`l-quruqlik holatini ifodalovchi sifatlar: *ho`l, nam, namxush, namtob, quruq, qoq, qoqquruq, shilta, shalabbo* va b.

10) Tinch va notinch holatlarni ifodalovchi sifatlar: *tinch, jim, jimjit, sokin, osuda, osoyishta, notinch, betinch, bezovta* va b.

Shuningdek, *silliq, g`adir-budur, g`ijim, tekis, siyrak, zich, qalin, yupqa, omonat, puxta, g`uj, shovul, tanho, gavjum, ochiq, berk* kabi sifatlar ham turli holatlarni ifodalab keladi.

Holat bildiruvchi sifatlar mazmun mohiyatga ko`ra keng qamrovli. Qolaversa, polisemiyaga boy, tabiiy holat sifatida beriladigan *go`zal, ko`hlik, chiroyli, suluv, latif, qomatdor* sifatlari ijobiy ma`no kasb etadi [33, 303]. Mazkur so`zlar odatda insonga nisbatan qo`llanadi. Ayrimlarini tahlilga tortamiz. *Go`zal sifati chiroyli, husndor, xushro`y, kishi ko`zini quvontiradigan, kishini maftun etadigan, zavqlantiradigan, zavq-shavqqa boy, serzavq, unutilmas* tarzida izohlanadi [41, 531]. *Go`zal* sifati o`zbek tilida, asosan, insonga xos ijobiy belgi, ya`niqizlar husniga ko`ra qo`llanuvchi so`z hisoblanadi: *O`ttiz besh yoshlarda ko`ringan bu go`zal xotin haram xodimalaridan Gulshanbonu edi.* (A.Qodiriy) Ba`zida tabiatning aniqlovchisi sifatida qo`llanadi: *go`zal tabiat* kabi. Biroq narsa-buyum otlarining

sifatlovchisi bo`lib kelish imkoniyatiga ega emas. Narsa-buyumga nisbatan chiroyli sifati qo`llanadi: chiroyli gul, chiroyli surat va h.k.

Zamonaviy turk tilida go`zal so`zi narsa-buyumga ko`ra ham keng ko`lamda qo`llanadi. Masalan: *Alinin arabasi senin araban gibi guzel – Alining mashinasi sening mashinang kabi go`zal* [54, 61].

Ko`hlik, xushro`y kabi holat sifatlari faqat odamga nisbatan qo`llanishi e`tirof etiladi [41, 223]. To`g`ri, ko`hlik sifati insonga nisbatan qo`llanadi: *Eshik ochilib, bir yoshlar chamasidagi shiringina bolani ko`tarib olgan ko`hlikkina juvon kirib keldi.* (T.Malik) Biroq xushro`y sifati ba`zida narsa-buyumning sifatlovchisi bo`lib ham kela oladi. Bu holat, odatda, jonli so`zlashuv tilida kuzatiladi: xushro`y mato kabi.

Chiroyli so`zining sinonimlari sifatida *husndor, husnli, ko`rkam, barno, zebo, sohibjamol* kabilar ham keltiriladi. *Barno, suluv, zebo* ham insonga nisbatan qo`llaniladi. Barno sifati suluv, zebo so`zlaridan farqli o`laroq ham qizlarga, ham yigitlarga nisbatan qo`llanilaveriladi. Barno so`zi asliyatiga ko`ra yosh yigit, o`smir ma`no ifodasiga ega [40, 170]. Davr taqozosi o`laroq, “husni odatdagidan ortiq; chiroyli, go`zal, sohibjamol, qaddi-qomati kelishgan” kabi ma`no ifodasini o`zida kasb eta borgan.

Xunuk holat sifati to`rt ma`no ifodasiga ega [40, 425]. Xunuk so`zi asl ma`no ifodasi, ya`nifors tilidagi izohlanishiga ko`ra salqin, sovuq ma`no ifodasiga ega. Bu sifat o`zbek tiliga o`zlashgach, qo`shimcha ma`noga ega bo`lib borgan:

- 1) *ko`rinishi yoqimsiz, ko`rimsiz;*
- 2) *yoqimsiz, noxush, jirkanch;*
- 3) *qo`rqinchli;*
- 4) *quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz eshitiladigan (xunuk tovush).*

Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchibardam, baquvvat, tetik, yosh, keksa, qari, ojiz, zaif kabi holat sifatlari ham ko`pma`noligi bilan xarakterlanadi. Shulardan ayrim tahlillarni kuzatamiz. *Bardam, baquvvat* so`zlari bir umumiy ma`no ifodasiga ega bo`lsa-da, xususiy ma`nolari bilan

farqlanadi. Bardam sifati kuch-quvvatga ega, kuch-quvvatini yo`qotmagan ma`nolarini ifodalaydi: *bardam chol, bardam odam* va b. Umidimiz bardam, bardam qadam birikmalarida bardam sifati qo`shimcha ma`no ifodasiga ega.

Baquvvat so`zi etti ma`no ostida izohlanadi[40,189]. Bu so`z asliga ko`ra insonga nisbatan ishlatiladi: *baquvvat yigit, baquvvat chol* tarzida. Baquvvat so`zi ba`zida organizmning biror qismini ifoda etish uchun ham (baquvvat qo`llar, baquvvat oyoqlar) qo`llanadi. *U ko`krak cho`ntagidan tarog`ini olib, qunduzday baquvvat sochini taradi.* (S.Anorboev)

Baquvvat holat sifati narsa-hodisaga nisbatan ham qo`llanadi. Masalan: *Hovlida bir uy, bir ayvon, yana bir hujra bor. Eski, ammo hali baquvvat.* (Oybek) Bu gapda baquvvat sifati pishiq, mustahkam ifoda semasiga ega.

Baquvvat so`zi “badiiy jihatdan pishiq, mazmunli” ma`nosini ham, ya`nibutunlay ko`chma ma`noni ifoda etadi. *Baquvvat she`r kerak dastgoh vaznda.* (A.Muxtor)

Katta boylikka ega bo`lgan, badavlat, davlatmand, tayanchi, suyanchig`i bor tarzidagi ifoda semaga ham ega bo`lishi mumkin. Masalan: *Tangriqulhoji baquvvat xo`jalik edi.* (A.Qahhor) Shu asosda bel baquvvat iborasi shakllangan desak, noto`g`ri bo`lmaydi. Tetik holat sifati jismoniy, ruhiy jihatdan bardam odamga ko`ra qo`llanadi. Ko`chma ma`noda hayiqishni bilmaydigan, dadil gapiradigan, o`z fikrini baralla ayta oladigan holatga nisbatan ishlatiladi. Masalan: *Pochchayev, qurilishga biron fikri tetikroq bola kelib qolsa, darrov iziga tushadi.* (A.Muxtor)

Keksa, qari sinonimlik qatorida qari sifati ko`p hollarda salbiy bo`yoqni berish uchun qo`llanadi *qari tulki, qari qiz*. Shuning uchun bu kabi birikmalarda qari so`zi o`rnida keksa so`zini qo`llab bo`lmaydi. Keksa ham sifat, ham ot turkumiga xos so`z deb izohlanadi [40, 343]. Bunga sabab, keksa so`zining sintaktik vazifasidir. Keksa so`zi bog`li qurshovda ham sifatlovchi, ham ega bo`lib keladi. Nazarimizda, bir so`zga nisbatan ikki turkumdagi so`z deb baho berish to`g`ri emas. Bizningcha, bu so`z sifatdan ot tomon siljigan (konversiya hodisasi) leksemadir. Tilshunoslikda “oraliq uchinchi” ning to`liq mezonlari

ishlab chiqilmaganligi bu kabi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lib kelmoqda. Keksa so'zi asosida keksaymoq, keksalik kabi fe'l va otlar shakllangan.

Ojiz, zaif holat sifatlarning umumiy ma'nolari bir xilda bo'lsa ham, alohida farqlanuvchi semalari mavjudligi bilan xarakterlanadi. *Ojiz* sifati "*jismoniy jihatdan kuchsiz; zaif, baquvvat, notavon*" kabi ma'no ifodasiga ega [40, 92]. Bu so'z ko'chma ma'noda quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) biror ish qilish uchun hech qanday chora-iloj qo'lidan kelmaydigan; *ilojsiz, noiloj*;

2) qurbi, kuchi yetmaydigan, kuchsiz.

Ojiz so'zi ko'rish qobiliyatini qisman yoki batamom yo'qotgan shaxsga nisbatan ham qo'llanadi: ko'zi *ojiz* odam.

Ojiz so'zi asosida *ojiza* (ayollarga ko'ra qo'llanadi), *ojizlanmoq*, *ojizlik*, *ojizona* kabilar shakllangan. *Zaif*, kamquvvat, nimjon, kuchsiz kabi dastlabki ma'no ifodasiga ega bo'ladi. *Zaif* so'zi ovozga nisbatan qo'llansa (*zaif* ovoz), past, kuchsiz ma'no ifodasiga ega bo'ladi. *Zaif* shu'la birikmasida xira ma'nosiga ega bo'ladi. Aqli *zaif*, mijozi *zaif* kabi birikmalarda ham dastlabki bosh ma'no asos bo'lib xizmat qilganligini kuzatish mumkin. Shu asosda *zaifa* shaxs oti shakllangan. Shuningdek, *zaiflashmoq*, *zaiflik*, *zaifona* so'zlarining yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan.

Ruhiy holatni ifodalovchi xursand sifati *xafa*, *g'azabnok*, *darg'azab*, *g'amgin* kabilar bilan ma'noviy zidlanadi. Shu qatorda *tajang* so'zini ham qo'yish mumkin. Leksik-semantik ma'no-munosabat nuqtayi nazaridan *xafa* bosh so'zi atrofida birlashadigan *g'amgin*, *g'azabnok*, *darg'azab*, *tajang* kabi a'zolarida ma'noviy darajalanish kuzatiladi. *Xafa* so'zida *tajang* sifatigacha ma'no daraja oshib boradi. *Tajang* holat sifati qo'llanish doirasiga ko'ra ham farqlanadi. Mazkur so'z nisbatan kam qo'llanadi. *Tajang* bo'lmoq birligida "o'ta kayfi buzuqlik" anglashiladi. Bekorga jahli chiqaveradigan, jig'ibiyron bo'laveradigan, jahli, achchig'i tez kishiga nisbatan ham bu so'z qo'llanadi.

Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar, odatda, odamga ko'ra ishlatiladi. Ba'zida organizmning biror-bir qismiga nisbatan qo'llanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ko'zning epiteli sifatida *ma'yus*, *g'amgin*, *alamdiya* kabilar kela oladi. Ma'yus, alamdiya holat sifatleri ko'proq badiiy uslubda qo'llanadi.

Xursand, *sog'*, *sergak*, *hushyor* holat sifatleri ijobiy ma'noni anglatadi, jinni, tajang, kindor kabilar salbiy ma'no ifoda tarzi uchun ishlatiladi. *Jinni* so'zi aslida "aqldan ozgan, ruhiy kasallikka yo'liqqan" tarzidagi bosh ma'noga ega. Biroq bu so'z so'zlashuv uslubida ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanadi. Bunda xayoliga kelgan ahmoqona ishlar, yarashmagan qiliqlar qiladigan kishiga nisbatan qo'llanadi. Masalan: *Jinni bo'libsan, Tohir! Hamma urushdan qochsa, sen bu ajdahoning komiga o'z ixtiyoring bilan bormoqchimisani!* (P.Qodirov)

Kishining hayotiy holatini, ahvolini ifodalovchi sifatlar sirasiga *boy*, *badavlat*, *kambag'al*, *qashshoq*, *yo'qsil*, *gado*, *yetim*, *mushfiq*, *bechora*, *musofir* va h.k.lar mansub. Boy holat sifati ba'zida ma'noni bo'rttirish uchun boy-badavlat tarzida ham qo'llanadi. Boy sifati yetti ma'no ostida izohlanadi [40, 300]. Iqtisodiy jihatdan mustahkam, hech narsadan kamchiligi, muhtojligi yo'q davlatga nisbatan ham mazkur so'z qo'llanadi. Masalan: *Yurt boy bo'lsa, uning bozori ham to'kin bo'ladi.* (U.Normatov)

Kambag'al bosh so'zi atrofida *qashshoq*, *bechora*, *faqir*, *yo'qsil gado*, *bechorahol*, *misikin* kabilar birlashadi va umumlashma ma'no bildiradi [41, 116].

Bu so'zlarning umumiy ma'nosi "turmush, yashash uchun zarur bo'lgan narsalarga yetarli darajada ega bo'lmagan" tarzida izohlanadi. Kambag'al, qashshoq so'zlari ma'noviy darajasiga ko'ra farqlanadi. *Qashshoq* so'zida belgi daraja kuchli. *Faqir* oddiy so'zlashuv uslubida qo'llanadi. Faqir so'zi ba'zan birinchi shaxs o'rnida yoki "men", "biz" olmoshlari bilan birlikda ishlatilib, so'zlovchining kamtarlik qilayotganini ifodalaydi. Masalan: *Faqir u zotning suhbatlaridan bahramand bo'lgan paytlarimni eslasam, yuragim ezilur!* (P.Qodirov) Faqir so'zi ko'chma ma'noda qo'llanib, nochor, bechora, chorasiz kabi ma'no ifodasiga ega bo'la oladi. Masalan: *Kichik, xarob, faqir bir uy. Kampir va yosh bir xotin jo'xori tozalar edi.* (Oybek)

*Yo`qsil* sifati nisbatan eskirgan. Mazkur so`z XX asr boshlarida faol qo`llanuvchi so`z bo`lganligiga guvoh bo`lamiz. Buni shu davrdagi adabiyotlarni kuzatish bilan ham bilishimiz mumkin:

1. *Mehnatdan boshqa hech narsani bilmagan bu yo`qsil yigitning qanday zo`r talablari bo`lar edi deysiz.* (Cho`lpon)

2. *Men yo`qsil ne bo`lib uni suyibman.* (Cho`lpon)

Har ikkala misolda ham yo`qsil holat sifati qo`llangan. Birinchi misolda kelgan yo`qsil so`zi sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan bo`lsa, ikkinchi misolda yo`qsil so`zi otlashib, ega vazifasida qo`llangan.

Narsa-hodisaning harorat belgisini ifodalovchi sifatlar sirasiga issiq, sovuq, iliq, salqin, ilmiq (iliq-miliq) kabilan misol bo`ladi. *Issiq, iliq, ilmiliq* holat sifatlarida ma`no daraja ko`plikdan kamlikka qarab boradi. Issiq so`zi bir necha ma`no ifodasiga ega [40, 233].

Issiq so`zi kasallikda yuzaga keladigan harorat, isitma ma`nosida ham kela oladi. Issig`i baland birikmasida shu ma`noda kelgan. Yana bir misol: Oftob oyim erining so`zini quvvatladi. Issig`i bor, yuzi ham qizarib, bo`rtib turibdi. (A.Qodiriy)

Issiq so`zi ko`chma ma`noda “kishiga xush keladigan, yoqimli” ma`nosiga ega: *Luqmoncha xuddi yumalaganday yugurib, medpunktga kirib borarkan, Elchibek uni chaqirib, bir issiq gap aytgisi keldi.* (A.Muxtor)

Iliq so`zi ham konnotativ ma`no ifodasiga ega. Iliq ko`rishmoq, iliq suhbatlashmoq, iliq munosabat birikmalarida buni kuzatamiz. *Muhammadjon doim iliq muomala qiladigan Zufar Hakimovich bugun nega qo`l berib ko`rishmagani mana shu istehzoli savoldan bilinib turardi.* (P.Qodirov)

Tozalik, ifloslik holatlarini ifodalovchi sifatlar (toza, ozoda, sof, musaffo, kir, isqirt, irkit) ham ko`p ma`noliligi, uslubiy vazifalar bajarishi bilan xarakterlanadi. Toza, ozoda, sof, pok, pokiza, musaffo, beg`ubor, g`uborsiz sifatleri o`zaro sinonimlikka kirishishi bayon etiladi [41,194]. Bu so`z ifloslikdan, gard-g`ubordan xoli ma`nosiga ega. Toza sifati keng qo`llanishga ega. Ozoda so`zida belgi daraja kuchliroq. Pok nisbatan kam qo`llanadi. Sof,

musaffo sifatlari, odatda, badiiy uslubda ishlatiladi. Musaffo holat sifati narsa-hodisaga ko`ra sifatlovchi bo`lib keladi. Masalan: *Yaqindagina shuvalab o`tgan yomg`irdan keyin havo musaffo.* (S.Anorboev)

Kir so`zi ko`chma ma`noda “yaramas, jirkanch, iflos” ma`nosiga ega bo`lishi aytiladi. Masalan: *Yoshlik o`tdi. Bo`yi yetdi. Kir odat uni zindondek hovliga soldi.*(Mirtemir) *Kir* holat sifati orqali bir necha iboralar shakllanganligiga guvoh bo`lamiz. Bularga ko`nglida kiri yo`q, tirnoq ostidan kir qidirmoq, ko`nglini (dilini) kir qilmoq, tishining kirini so`rmoq kabilan misol bo`ladi. Misollar:

1. *Darrov tirnoq ostidan kir qidirasiz-a, Samadov.* (P.Qodirov)

2. *Ular (boylar) palov yeb, tishini kovlaganlarida, biz tishimizning kirini so`rib, o`choq oldida chorig`imizni quritar edik.* (P.Tursun)

3. *Yuragida bori yuziga tepib turadigan bunday kishilarni, ko`nglida kiri yo`q, deb maqtaydilar.* (P.Qodirov)

Narsa-hodisaning eskilik, yangilik holatlarini ifodalovchi yangi, eski, churuk, uvada, juldur va b. holat sifatlari ishlatilish doirasi keng. *Uvada* so`zi kam qo`llanadi. *Uvada* so`zi quyidagi ma`no ifodalariga ega:

1. Kiyim, to`shak va sh.k. ning to`zgan, uzilgan parchasi.

2. Eskirib, sitilib, yirtilib dabdala bo`lgan kiyim-kechak, latta-putta, eski-tuski.

3. Yirtilgan, to`zgan, uvada holga kelgan: *Uvada kamzulda billur tugmaday, bulutlar ortidan boqadi yulduz.* (A.Oripov)

4. Ko`chma. *Uvadaga o`xshash narsa haqida: Oppoq uvada bulutlarni shamol haydaydi.* (S.Zunnunova)

Holat sifatlari o`zining ekspressiv ko`chma ma`noda ishlatilishi bilan ajralib turadi. Bunday leksemalar narsa yoki hodisa xususiyatining bir tomoni, belgisini alohida ta`kidlab, kuchaytirib ifodalash uchun qo`llaniladi.

Salbiy stilistik ottenkani ifodalash imkoniga ega qattiq so`zi odatdagi sharoitda o`z shaklini va hajmini saqlaydigan holat ma`nosini ifodalaydi: qattiq jism. Qattiq so`zi qattiq jismlar, uy ashyolari, ovqat, inson tana a`zolari, qurilish

materiali, qog'oz mahsulotlari, o`rin bildiruvchi so`zlar, o`simlik, mevalar belgisini ifodalaydi: qattiq tosh, qattiq o`rindiq, qattiq non, qattiq qo`l, qattiq sement, qattiq po`lat, qattiq qog'oz, qattiq lavlagi, qattiq joy.

Inson ruhiyati juda serqirra bo`lib, u shodlik, g`azab, xafalik, loqaydlik kabi turli holatlar majmui sanaladi. Shundan kelib chiqib, tilimizdagi ruhiy holat ifodalovchi sifatlarni bir qator turlarga ajratish mumkin [34].

1. Xursandlik holatini ifodalovchi sifatlar. Kishi ruhiyatidagi davriy yoki oniy lahzalarni, muayyan bir harakat yoki holatdan mamnunlikni turli shakllarda aks ettiradi. Bunday sifatlarning barchasi semantik jihatdan bir nuqtaga, bir lug`aviy sifat guruhiga birlashadi: *mamnun, xursand, xushnud, xurram, quvnoq, shod, shodmon, xushchaqchaq, masrur* kabi. Bularning bir qismi poetik nutqda keng qo`llansa, ya`nimamnun, xushhol, xurram va h.k., bir qismi so`zlashuv uslubida keng qo`llanadi. (xursand, shod, quvnoq va b.). Masalan: *G`urbatda g`arib shodmon bo`lmas emish.* (A.Navoiy)

2. Xafalik holatini ifodalovchi sifat leksemalar ham tilimizda keng tarqalgan: *g`amgin, dilgir, xafa, xomush, ma`yus, giryon, xunibiyron, diltang* va b. Bularning qo`llanishi ham turlichadir.

Dilgir, giryon, xunibiyron, diltang kabilar juda kam qo`llanadi.

Xafa, g`amgin, xomush, dilgir kabi sifat leksemalarida belgini ifodalash deyarli bir xil. Bular kishining yuz-ko`zidan ifodalanib turadigan g`amginlik holatini bildirishga xizmat qiladi. *G`ash* sifati insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztirobi bilan bog`liq holatni aks ettiradi. Nimadan ko`ngling g`ash, nimada darding, hoy, kichik qishloqning jajji bolasi? (M.Ali)

3. G`azabli holatni ifodalovchi sifat leksemalar. Bular qatoriga *g`azabnok, kinli, darg`azab, g`azabli* kabilardir. Ular orqali insonning tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, predmetlar, odamlar hatti-harakatidan noroziligi tufayli yuzaga kelgan kuchli ruhiy holati ifodalanadi:

Ba`zanyog`ayotgan o`qlar bamisol

Dudoqlaridan kinli so`zlar uchgan on. (A.Suyun)

Keltirilgan misoldan kin (kinli) soʻzi norozilik, gina maʼnolaridan tashqari, matnga bogʻliq holda gʻazab maʼnosini ham ifoda etmoqda.

4. Ijobiylik yoki salbiylik semasini ifodalovchi sifat leksemalar *sogʻ, sergak, hushyor, lol, mudroq, loqayd* va h.k. lar ikki xil ruhiy holatni ifoda etish uchun qoʻllanadi.

5. Kishining hayotiy ahvoli, holatini ifodalovchi *kambagʻal, faqir, qashshoq, bechora, gado, bechorahol, yoʻqsil, miskin, yetim, mushfiq, musofir, boy, badavlat, davlatmand* kabilar kishining hayotiy ahvoli, holatini ifodalashga xizmat qiladi:

Mushfiq ona koʻz oldida

Oʻsib borar farzandi. (E.Vohidov)

6. Predmetning harorat belgisini bildiruvchi sifat leksemalar predmetga nisbatan qoʻllanganda haroratning uch xil darajasini, yaʼnisovuqlik, *iliqlik yoki issiqlikni* ifodalashga xizmat qiladi: Sovuq marmar toshni siypalab, silab... (M.Ali). Issiq nafas purkar har bir deraza. (Shukrullo)

Yuqoridagilardan tashqari tozalik, ifloslik holatlarini ifodalovchi predmetning yangilik-eskilik holatlarini ifodalovchi, tinch va notinchlik holatlarini ifodalovchi sifat leksemalar va ularning semantik – uslubiy xususiyatlari haqida manbalarda bayon etilgan [35].

Xullas, holat ifodalovchi sifatlar sifatning maʼno jihatdan salmoqli turini tashkil etadi. Holat sifatlarining uslubiy vazifalari ham juda keng, qoʻllanish doirasi keng, holat sifatlarining tarkibida ham oʻz, ham oʻzlashma qatlamga oid soʻzlarni kuzatish mumkin. Ular nasr bilan birga nazmda ham koʻp qoʻllanadi. Nazmda qoʻllanganda nasrdan koʻra koʻproq koʻchim ifodalab keladi.

III. 3. Rang-tus bildiruvchi sifatlarining semantik va uslubiy xususiyatlari.

Tilimizda *oq, qizil, qora, koʻk, sariq, zangori, yashil, malla, pushti, moviy, qirmizi, sapsar, qoʻngʻir* kabi soʻzlar alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Bunday sifatlar rang-tus bildiruvchi sifatlar deyiladi. Bizga maʼlumki, ranglar belgi bildirishi bilan birga, turli ramziy maʼnolarni ham bildiradi. Oq

rang qadimdan poklik, ezgulik, yorug`lik kabi ramziy ma'nolarni bildiradi. "O`zbek tilining izohli lug`atida" oq sifati qor, sut, paxta ranglarini bildirib, oq doka, oq qog`oz, oq non kabi narsa va predmetlarni belgisini bildirishi aytiladi. Oq tusga moyil, tiniq yuz, badan tusini bildirish uchun ham oq rangi qo`llanadi: *Oq badan, oq tanli, oq yuzli. Xotin o`tirmoqchi bo`lgan edi, parangi ichidan uning atlas kuylaklari va nafis oq qo`llari ko`rinib ketdi. Qo`lini sovuq suvga urmaydigan, faqat o`ziga oro beradigan ayollarga nisbatan "Oq bilak"* iborasi qo`llanadi. Bu iboradagi oq so`zi rang-tus ma'nosidan cheklanadi. Oq so`zi boshqa rang bildiruvchi so`zlarga nisbatan ibora, maqol, matallarda asosan ko`chma ma'noda qo`llanadi. Masalan: *oq ko`ngil, oq qilmoq, oq yuvib, oq taramoq, oqpadar, oq-qorani tanigan, ko`zining oqu qorasi, manglayi oq bo`lsin, oq sutini oqqa, ko`k sutini ko`kka sog`moq, kosasi oqarmagan, oq-qorani tanimoq kabi. Bizning maqsadimiz – kishilarga ong, tushuncha bermoq, toki har bir kishi yaxshilik va yomonlikni, oqu qorani o`zi ajrata oladigan bo`lsin! – dedi Elmurod. (P.Tursun)*

*Ko`zining oq-u qorasi* birikmasidako`chma ma'noda farzand oq-qora sifati ma'nosida kelgan jurt sifat bo`lib, yakka-yu yagona degan ma'noni bildiradi. Manglayi oq bo`lsin iborasiagi oq so`zining semantik xususiyati yaxshilik niyatida qilingan olqish, duo ma'nosini ifodalagan.

Toleng toabad bo`lmasin qora,

Manglaying oq bo`lsin, yarqiroq bo`lsin. (A.Oripov)

*Oq sutini oqqa, ko`k sutini ko`kka sog`moq* iborasi bergan sutiga, boqqaniga norozi bo`lib, undan yuz o`girmoq ma'nosini bildiradi. *O`zbek oyim: –Endi menga mundoq o`g`il kerak emas.. Oq sutimni oqqa, ko`k sutini ko`kka sog`dim. Endi Toshkentga kelmasin. (A.Qodiriy)* Yana shunday iboralardan biri "*kosasi oqarmagan*" iborasi bo`lib, bu iborani topganiga baraka kirmagan, biri ikki bo`lmagan kishilarga nisbatan qo`llanadi. *Ikromjon bundoq o`ylab qarasa, bu artist mijoz sherigi bilan ishlaydigan bo`lsa, sira kosasi oqarmaydigan. (S.Ahmad)*

O`zbek tilshunosligida oq rangi asosida shakllangan so`zlar talaygina. Oq yo`l, oq ko`ngil, oq manglay kabi so`zlarda oq so`zi asl ma`nosidan cheklanib, ko`chma ma`noda kelgan. Oq rangi asosida shakllangan so`zlar lug`at boyligimizni yanada boyitib, semantik xususiyatini oshiradi.

Qora o`zbek tili lug`at fondining qadimiy va asosiy so`zlaridan hisoblanadi. Qora so`zining asl ma`nosida rang-tus yotsa-da, bu so`z ham ko`pincha ko`chma ma`noda qo`llanadi. Qora so`zining qo`llanishi eng qadimgi yozma yodgorliklarda, O`rxun-Enasoy bitiktoshlarida, “Devonu lug`atit-turk”da uchraydi. Masalan, *qora kun*, ko`ngli qora, qora niyat kabilar shular jumlasidandir. “O`zbek tilining izohli lug`ati”da bu so`zning yigirmaga yaqin ma`nosi keltirishi uning tilimizda faol qo`llanishidan dalolat beradi. Qora sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko`rsatish maqsadida qo`llanganda, emotsional-ekspressivlikdan xoli bo`ladi, bu vaqtda uning vazifasi rang to`g`risida xabar ma`lumot berish bilan cheklanadi.

Qora rangiga moyil to`q ranglar ham jonli so`zlashuvda qora deb aytiladi: qora non, qora gilos, qora tuproq, qora bulut va b. Nimqorong`uda ruxsoridagi no`xatdek qora xolini aniq ko`rdi. (S.Karomatov)

Is, qurum bosgan, qoraygan yoki oqlanmagan, pardoizlanmagan uy va xonaga nisbatan qora uy birikma qo`llanadi. Dolonning o`ng tarafidagi kichik qora hujrada Polvonning ota-onasi va bobolari umr kechirgan. (J.Sharipov)

Kishi xarakteridagi odob-axloq normalarga mos kelmaydigan munofiqlik, g`alamislik, g`iybatchilik, ochko`zlik, berahmlik singari sifatlar ham qora leksemasi bilan qo`llanishi uchraydi: *qora niyat, qora kuchlar. Kechirasiz men shiringina bazmingizni qora xabar bilan muzlatib qo`ydim.* (Oybek)

Qora so`zi ba`zi so`zlar bilan birikib, ular anglatgan narsaga xos belgi-holatning kuchli darajasini bildiradi. *Qora sovuq, qora qon yig`latmoq. Qora qishda to`y qilmay, Battar bo`lgin nokas gov.*

Ichiqora, yuragi qora birikmalarda qora so`zi o`z leksik ma`nosidan cheklanib, ko`chma ma`noda o`zganing muvaffaqiyatini ko`rolmaydigan kishilarga nisbatan aytiladi. *Dili qoraning qilmishi – qiyqlik. (maqol)* Yuzi

(yoki beti)qora iborasi ham salbiy ma'noni bildiradi. Qora leksemasi ma'no ifodasi jihatidan boshqa rang bildiruvchi sifatlardan yuqoriroq turadi va tilimizda yana quyidagi okkazonal semalarni ifodalashga xizmat qiladi:

1) *motam* semasini: *Yusufbek hoji xatmi qur'on qilib,yurtga osh berdi. O'zbek oyim qora kiyib, ta'ziya ochdi.* (A.Qodiriy)

2) *qayg'u* semasini: *Ro'zg'oring qora qilmay.* (E.Vohidov)

3) *kunsemasini*: *O'tdi dahshatli kun, Qora sahifa.* (E.Vohidov)

4) *so'm, chaqa* semasini: *Ammo yonida sariq chaqasi yo'q odamga bu [sakkiz yuz so'm] – jahannamning qil qilko'prigiday mudhish narsa.* (Oybek)

5) *ko'rinmay ketmoq* semasini:poyezdning qorasi o'chguncha mo'ltirab qarab turdim, keyin yig'lab-yig'lab izimga qaytdim. (S.Siyoyev)

6) *ko'rinish bermoq* semasini:Polvon bolam-ku, qorasini ko'rsatmay, suvga tushgandek g'oyib bo'ldi.(S.Ahmad)

7) *ko'rmoq* semasini:qorasini ilg'amoq, Kunning o'zi peshin vaqti bo'lganda, poygachilar qorasini oladi. (Alpomish)

8) *ayb,aybdorlik, gunohkorlik* semasini: *Quchog'ini "o'zligi"ga ochdi deb, Oq ismimga qora zanjir ildingiz? (Cho'lpon)*

Qora so'zi ayrim hollarda tusi qora predmetlar aniqlovchisi sifatida ham ishlatiladi. Bunday ta'kidiy qo'llanilish bejiz emas, albatta. Bu orqali ma'lum predmetga qo'shimcha ma'no beriladi. Masalan, qora qozon: Bir qora qozonni amallab qaynatib turibmiz. *Qora qozon boshga tushdi. (Ikkinchi gapda umuman ro'zg'or ma'nosida.)* Qora qumg'on: *Olov chetiga qo'yilgan qora qumg'on shaqillab toshdi. (Oybek)*Qora chachvon: *Nurli chehrasiga qora chachvon bilan emas, o'z ko'zlari bilan qarashga jur'at etgan.*Qora chiroq: *Kambag'allar ro'zg'orida ishlatilgan yoritgich.*Qora so'zi o'zbek tilida ijobiy ma'noli aniqlovchi vazifasini ham bajara oladi: *Oh, tim qaro ko'zlaring naqadar go'zal...*

Badiiy adabiyotda, mumtoz asarlarda ham qora sifati keng qo'llanadi: Kecha-kechadur har erta, ko'zum ashkidin yuvib yuz,

Jigarim ezib qilurmen qora qon ila g`arora. (Furqat) Bu misolda “qora” so`zi “kuygan, qora qon” ma`nosini ifodalaydi:

Ikkinchi bir g`azalda oshiq ma`shuqasi oldida ma`lum bir ayb ish qilib, yuzi qoraygani ifodalanadi:

Agar o`zgani yuziga nazar aylasam ko`z ochib,

Bu orada haq tonuqdur, kelu qil yuzimni qora. (Furqat)

Boshqa bir g`azalda qora so`zi ko`zning epiteti bo`lib keladi. Bu rang bilan yorning nargis ko`zlari yanada yorqinroq ko`rinadi:

Chekib surma qaro nargislarig`a ayladi oro,

Meni o`ldurdi oxir g`oza birla yuzg`a xol aylab. (Furqat)

Xullas, qora so`zining tilimizda uslubiy imkoniyatlari juda keng bo`lib, u fikrni aniq obrazli ifodalashda, poetik ta`sirchanlik, ohangdorlikni ta`minlashda o`ziga xos o`ringa ega.

Ko`k. Tiniq osmon rangidagi moviy, zangori, umuman olganda, ko`k tusiga mos bir qancha o`xshash ranglar ham ko`k deyiladi. Jonli so`zlashuvda ba`zankulrang rangini ham ko`k sifati bilan ishlatamiz. *Ko`k bo`ri, ko`k kaptar.*

Ko`k sifati quyidagi ma`no imkoniyatlariga ega:

- 1) *yashil, sabza, ko`k o`t* semasi: *Qarshimda tebranar ko`k barglar har on.*
- 2) *maysa, ko`kat* semasi: *Yomg`irlar yog`ib, yerda o`t-o`lan ko`rina boshladi, hayvonlarni og`zi ko`kka tegdi.*
- 3) *Ko`k terish bahonasi bilan dalalarni tusay boshlagan edi.* (Cho`lpon)
- 4) *Rezavor o`simliklar Ko`k solib qatqlangan mastavaning lazzatli hidi keldi.* (A. Muxtor)
- 5) *dollar semasini: Bir pachka ko`ki bilan qo`lga tushibdi, ish chatoq.*

Ko`k so`zi predmetning aniqlovchisi bo`lib kelib, uning rangini ifodalash bilan birga xom, yetilmagan, g`o`r, barra kabi tabiiy hollarni ko`rsata oladi. *Ko`k uzum, ko`k qalampir, ko`k piyoz, ko`k no`xat, ko`k novda va b. Bir tupida olma endi sarg`ayib, yiltiramoqda, bir tupida mushtday yirik olmalar ko`m-ko`k, ularga boqishning bilan tishing qamashib, og`zingga so`lak to`ladi.* (Oybek)

Alisher Navoiy asarlarida ko`k so`zi belgilikdan tashqari, osmon, daraxt ildizi, tamg`a, asos, ovoz, tayyor, tugal kabi bir qancha ma`nolarda qo`llanadi. Ko`k so`zi ham otlashish xususiyatiga ega va turli ma`joziy ma`nolarda qo`llanadi.

Qizil sifati ranglik xususiyatidan tashqari qon, lolaqizg`aldoq, cho`g`, la`l kabi tushunchalarni beradi. Qizil so`zi o`zbek lug`at boyligining qadimiy va asosiy so`zlari fondidan o`rin olgan. “Qul -Tegin” obidasida ham bu so`zni uchratish mumkin. Bu rang oddiy predmetlar sifatlovchisi bo`lib qo`llanadi.

Ta`sirchanlikni kuchaytirishda, ekspressiv- emotsionallikni berishda predmet rangi qizil bo`lishiga qaramay, uning oldidan yana qizil sifatlovchisi qo`llanadi, ba`zanbu so`z qip-qizil shaklida kelib, ma`no yanada bo`rttiriladi [33].*Qirg`og`ing bir zamon qip-qizil qonga belangan, faryodlar o`rlab osmonga. (G`ayraty)*

Yuzning, badanning shu tusga moyil rangi ham qizil, qizillik deb ataladi. *Uning rangidagi qizilga yana qizillik qo`shildi.*(Oydin)

Shoirlar nazmida lola, yoqut, shafaq, qon kabi predmetlar ko`pincha qizil so`ziga bog`liq holda ifoda etiladi. Ba`zanqizil sifatlovchisi o`rnida ana shu so`zlar qo`llanilaveradi.

Qo`limdagi sharob to`la piyola

Qip-qizildir go`yo bahorgi lola.

Qip-qizildir botayotgan kun kabi,

Qip-qizildir go`yo qizlarning labi. (H. Olimjon)

Qizil so`zi turli so`z birikmalari turg`un birikmalar komponentlari bo`lib, boshqa sifatlar kabi ot vazifasida kelib, juda ko`p ko`chma va majoziy ma`nolar kasb etadi. Qizil rangning ottenka turlari nihoyatda ko`p. Rassomlik san`atida och pushtidan to`q qizilga qadar bo`lgan ranglar shu rangning turlari hisoblanadi. Tilda bu ottenkalar o`ziga xos rang nomlariga ega. Och, to`q, nim, - roq, qip kabi yordamchi elementlar ham ottenkalarni aniqlashga xizmat qiladi.

Qizil so`zi o`zining ko`plab sinonimlariga ega. Bulardan ko`pi predmet ma`nolarini ifodalovchi so`zlardir: lola, yoqut, qon, shafaq, lolaqizg`aldoq,

cho`g`, la`l va b. Bular ko`proq badiiy asarlarda qo`llanadi. O`zbek mumtoz ijodkorlari asarlarida qizil tus va uning ottenka xillarini ifodalash uchun gulgun, gulrang, gulnor, gulnorgun, gulfom, shafaqgun, shingarf kabi ko`plab rang nomlarini uchratish mumkin.

Bulardan tashqari, arab, fors tillaridan o`tgan ahmar, humro, hamro, arg`uvon, arg`avon, shingarf, g`oza kabi so`zlar qizil ma`nosida qo`llanilgan [33]. Badiiy nutqda qizil so`zi o`rnida, ya`ni uning ma`nodoshi sifatida ol so`zi ham keng qo`llanadi.

Alvon leksemasi ham predmetning rangini ifodalashga xizmat qiladi. *Alvon* so`ziga “O`zbek tilining izohli lug`ati”da quyidagicha izoh beriladi:

1. Qizil tusli, qip-qizil, qirmizi. Masalan: Bunda gulning eng asllari, Baxmal gilam, alvon poyandoz. (H.Olimjon)

2. Qizil rangli mato.

3. Xilma-xil, turli-tuman. Bir uyadan necha alvon qush uchadi (N.Safarov).

Rang-barang, xilma-xil, turli-tuman ma`nosini ifoda etishda alvon-alvon so`zi ishlatiladi.

Ba`zida alvon leksemasi qizil rangni emas, balki “qizg`imtir, sariq tusdagi” semasini bildirishi ham mumkin:

Dengiz qirg`og`ida yongan alanga

Kabi quyosh chiqib, alvon nur yoydi. (Shukrullo)

Ko`rinadiki, qizil leksemasining tilimizdagi mano imkoniyati keng.

Yashil leksemasi uslubiy maqsadda qo`llanganda, turli xil ma`no imkoniyatlarini ifodalaydi. Masalan: Tinglangiz, har nafasda jonlandi, Yosh tabiat, yashil ko`ngillar-la... (H.Olimjon). Mazkur misolda yashil leksemasi “yosh navqiron” semasini ifodalashga xizmat qilmoqda. Shoir yashil leksemasini qo`llashda bir tomondan inson hayotining balog`at davri va yil fasllarining boshlanishi – bahor fasliga, bahor faslining esa yashillik belgisiga ega ekanligiga asoslangan bo`lsa, ikkinchi tomondan shu leksemani qo`llash bilan takrordan qochishga intilgan.

Tilimizda baʼzan “yashillik, yashil rang” semasini koʻk leksemasi ham ifodalaydi: Yiroqda samoviy ufq... Koʻzi oʻynaydi (Boqar, boqar...) Koʻngli sovub, Koʻk oʻt chaynaydi (M.Ali). Bu misolda koʻk leksemasi predmetning rangini ifodalashdan koʻra koʻproq uning turi (hoʻlligi, sabza ekanligi)ni anglatmoqda. Xuddi shu holatni koʻk leksemasining choy soʻzi bilan birikib kelganida ham koʻrishimiz mumkin. Koʻk choy.

Zangor-zangori. Bu soʻz osmon rangi, sinka tusi kabi tushunchalarni beradi. Toshkentliklar bu soʻzdan sinka maʼnosini anglashsa, Fargʻonalik sheva vakillari yashil rangni tushunishadi. Zangori soʻzi osmonning rang-tusi belgisi sifatida ham koʻp qoʻllanadi. Zangori soʻzi boshqa koʻpchilik rang ifodalovchi soʻzlar singari turli xil koʻchma va maʼjoziy maʼnolar ifodalay olishi bilan xarakterlanadi. Bunday maʼnolar koʻproq nutq jarayonida roʻyobga chiqadi. Zangori soʻzining substantivatsiyalashishga moyilligi ham umumiy rang bildiruvchi xususiyatlariga mos keladi.

Badiiy asarlarda shoir va yozuvchilar zangori soʻzidan osmon, dengiz tasviri uchun ham foydalanadi. Oʻzbek tili jonli soʻzlashuvida baʼzan mubolagʻa tarzida yoki ekspressiv holatlarda zangor soʻzi qora maʼnosida ham ishlatiladi. Masalan, Oftobda qorayib naq zangor boʻlib ketibdi.

Fors tilida zangori – zengeri tarzida ishlatilib, sariq, pistoqi tusli hamda metall rangini anglatadi. Zangor rang ham turli-tuman maʼno ottenkalariga ega. M., och zangor, toʻq zangor, havorang, niliy va b.

Zangor soʻzi uchun oʻzbek tilida koʻplab muqobillar mavjud. Jumladan, moviy, osmoniy, osmonrang, zabarjad, lojuvard, samoviy va h. Zangor soʻzi koʻk soʻzi bilan ham oʻrin almashtira oladi.

Sariq soʻzi kamalak nurining asosiy ranglaridan birini ifodalovchi soʻz boʻlib, badiiy uslubda uning oʻrnida baʼzan qahrabo, zar kabi maʼnodosh variantlari qoʻllanadi. Mumtoz adabiyotda sariq maʼnosini ifodalovchi zaʼfaron, somon, oltin, oltin rang, tilla rang, koʻhiy soʻzlari ham qoʻllanadi, shu bilan birga, quyosh, hayot, muqaddaslik kabi ramziy maʼnolarga ega. [56] Alisher Navoiy lirik merosida sariq rang bilan bogʻliq tasvirlar miqyosi juda ham koʻp:

Sarg`aribtur lolaruyim ranji to bo`lmish qatig`,

Lola bu yil gulshani umrimda ochilmish sarig`. (A.Navoiy)

Oltin ezib, eribkuygan sori xolis bo`lur,

Ne ajab, sorg`orsa yuz etgan soyi emgak manga. (A.Navoiy)

Zafaron so`zi “O`zbek tilining izohli lug`ati”da quyidagicha ifodalanadi.

Zafaron – ziravor o`simlik, za`far. 1.Ingichka uzun bargli, to`q sariq gulli, piyozsimon ildizli o`simlik va uning gulidan tayyorlanadigan, ovqatni xushta`m va rangdor qiladigan ziravor. 2.Sap-sariq, somonrang. Yigitning olijanob qimmatidan mamnun bo`lib, za`faron yuzlarimga andak tabassum chiqdi. (G`ayraty)

Ko`rinadiki, rang ma`nosi birinchi ma`nodan (to`q sariq gulli o`simlik) o`sib chiqqan. Somon, oltin, oltinrang, tillorang kabilar ham rang semasi asosida yangicha ma`no ifoda etishga ixtisoslashgan.

Maviy so`zi rang bildiruvchi so`z sifatida o`zbek tiliga arab tilidan o`tgan. Faqat rang ma`nosida qo`llanuvchi bu so`z zangor tus, havorang tushunchasini anglatadi va tilda zangor so`zining sinonimi vazifasida ishlatiladi. Ko`pincha ko`z, suv, havoning tusi ma`nosini beradi:

1. O`yna, chayqal, maviy dengizim,

Qirg`oqlaring nurga burkangan. (X. Saloh)

2. Endi Darmonoyning ham uyqusi uchdi, maviy ko`zlari chiroqday ochildi, Saodatga qarab yotdi. (N. Safarov)

Shuningdek, nutqimizda pistoqi, pushti, qirmizi, qo`ng`ir kabi rang ifodalovchi so`zlar ham borki, ular ham o`ziga xos belgi ifodalaydi.

Xalq qahramonlarini kuzatar ekanmiz, ularda etti xil asosiy rangning ask etganligi ayonlashadi. Ular oq, sariq, qizil, ko`k, yashil, jigar, qora. Bu ranglar his-tuyg`uni ifodlovchi, holatni bildiruvchi, joyni anglatuvchi xususiyatlarga ega. Xalqning qadimgi totemistik va animistik qarashlari asosida har bir rang o`ziga xos ma`no kasb etgan. Masalan: oq – ezgulik, qizil – quvonch, yashil – tiriklik, sariq – ayriliq va boshqalar.

Ranglar u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odati, marosimi, qadimiy qarashlari bilan chambarchas bogʻliq. Xalqlarning mifologik va diniy qarashlari ham ranglarda turlicha aks etadi. Bundan tashqari xalqlarning ijtimoiy hayoti, geografik muhiti ham ranglarga nisbatan munosabatning xilma-xilligiga olib keladi. Jumladan, dunyoning qutbi toʻrt xil rangda tasavvur qilingan: sharq – yashil, janub – qizil, shimol – qora, gʻarb – oq rangda. Shu asoda mintaqalarning har birida yashovchilar uchun oʻsha rang muqaddas sanalgan.

Umuman, rang bildiruvchi sifatlar tilda, ayniqsa, badiiy adabiyotda aktiv qoʻllanuvchi, oʻzining semantik va leksik xususiyatlari bilan alohida oʻrinni egallovchi soʻzlar hisoblanadi.

Badiiy tasvirni boʻyoqdor va oʻynoqi qilishda, metafora, metonimiyalarni vujudga keltirishda rang-tus bildiruvchi sifatlarning oʻrni beqiyosdir.

III. 4.Hajm-oʻlchov bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari

Hajm-oʻlchov sifatlari narsa-buyumning hajmi, oʻlchovi, miqdori, umuman, koʻlamini bildiradi. Bu qatorga *keng, tor, uzun, chuqur, chogʻ, yirik, yupqa, sayoz, uzoq, yaqin* va hokazolar mansub. Nasriy asarlarda bu kabi hajm-oʻlchov sifatlari, odatda, oʻz asl maʼnosida qoʻllanadi. *Keng dala hamma yoq lolalardan libos kiygan.* (Sh.Rashidov) *Nazmiy asarlarda esa oʻz maʼnosi bilan birga, koʻchma maʼnoda ham qoʻllanadi. Uzun-uzun oʻylarim unutolmaydi dilim.* (M.Jiyanova) *Chaqmoq chaqar, koʻk qarsillaydi, Quchgan kabi togʻdan azim tosh.* (Shukrullo) Ikkinchi misoldagi “oʻlcham nisbatan ortiq” semasi azim sifat leksemasi vositasi sifatida ifodalangan boʻlib, bu soʻz badiiy uslubga xos. Katta soʻzi oʻz navbatida bir qator soʻzlar bilan maʼnodoshlikka kirishadi: *katta, ulugʻ, buyuk, zoʻr, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant.* Katta keng maʼno ifodasiga ega u aniq, shuningdek, mavhum tushunchalarga nisbatan qoʻllanaveradi. *Ulugʻ, buyuk, zoʻr, azim, azamat, ulkan* soʻzlarining hammasida belgi darajasi nisbatan kuchli. Shuning uchun ham ular deyarli hamma vaq hajm-oʻlchovi ancha katta boʻlgan narsalarga nisbatan qoʻllanadi. *Ulugʻ* sifati asosan insonga nisbatan qoʻllanadi. Mendan toʻrt-besh yosh ulugʻroq bir

birodarimiz bor edi (P.Tursun). Buyuk sifati aniq predmetlarga nisbatan kam qo'llanadi: *Mening sovg'am – buyuk shahar, ko'rkam qishloqlar.* (G'ayraty) *Azim, azamat* asosan aniq narsalarga nisbatan qo'llanadi: *Baland qad ko'targan azim tog'lar.* (Y.Hamdam)

Ulkan so'zi manbalarda eskirgan so'z sifatida keltiriladi.

Gigant kitobiy uslubga xos bo'lib, asosan inshootlarga nisbatan qo'llaniladi.

Yirik so'zi meva, tosh va boshqa so'zlar bilan birikadi. Mazkur so'z barcha so'z bilan ham sintagmatik munosabaga kirishavermaydi. Masalan, yirik uy, yirik daraxt kabi qo'llanishlar usluban noto'g'ri. Shu jumladan, gigant so'zi ham shunday. Gigant so'zini har qanday so'z bilan biriktirish mumkin emas. Masalan, gigant shoir birikmasi usluban g'aliz hisoblanadi.

Ko'lam me'yorini bildiruvchi sifat leksemalar orasida predmetning hajm ko'lamini bildirishga xizmat qiluvchi keng, tor sifat leksemalar ma'lum bir oraliq masofani ifodalash uchun qo'llaniladi. Poetik nutqda keng, tor sifat leksemalari inson tasvirini, uning portretini berishda ham qo'llanadi: *Keng qaboqli, tor miyiqli, Guli gulnor mohi nur.* (M.Ali) Bu misolda keng, tor leksemalari vositasida tasvirlanayotgan kishining yuz-qiyofasi, portreti chizib berilgan. Tilimizda tor leksemasining peshonasiga nisbatan qo'llanilib, ko'chma ma'noda qo'llanadi. Peshonasi tor iborasi shu asosda shakllangan.

Ko'lam me'yorini bildiruvchi sifat leksema orasida chuqur, sayoz so'zlari predmetning pastlikka tomonbo'yini, chuqurligini ifodalashga xizmat qiladi. Bunda sayoz leksemasi chuqurlikning kuchsiz darajasini "tagi yuza joylashgan" semasini ifodalasa, chuqur leksemasi esa bunday belgining kuchli darajasini, aksini bildiradi. Mazkur so'zlar ham ko'chma ma'noda keng qo'llanilib, uslubiyatni vujudga keltiradi. Masalan, *sayoz bilishi, sayoz fikr; chuqur bilim, chuqur ma'no* kabi qo'llanishlar shular jumlasidandir. O'zbek tilining izohli lug'atida keng so'zining izohi quyidagicha berilgan. 1. Ko'chma ma'noda. Mehr-muruvatli, yaxshilikni ayamaydigan kishi ma'nosida. *Kengga keng dunyo, torga tor dunyo.* (Maqol) 2. Fe'li (yoki ko'ngli) keng. *Ko'ngling keng bo'lsa, hujra*

ham saroyday. (Gazetadan) 3.Yuragi keng. Tashvish tortmaydigan kishi. Yuragingiz muncha keng bo`lmasa, ko`zingizga uyqu kelganiga hayronman.(A.Qahhor)

Ko`lamme`yorini bildiruvchi sifat leksemalar doirasiga kiruvchi uzoq, yaqin leksemalari uzunlik belgisining umumiy nomini ifodalaydi. Mazkur so`zlar ham fe`l oldidan kelib, ish-harakatning miqdoriy belgisini ifoda etishga ixtisoslashgan: Yaqin kelma, o`ldiraman, - dedi do`sti. (O`.Umarbekov) Uzoq ketib qolsangiz men nima qilaman? (P.Qodirov)

Xullas, hajm-o`lchov ma`nosini ifoda etuvchi sifatlar aloqa-aralashuvda keng qo`llaniladi. Sifatning ma`no jihatdan alohida katta guruhini hosil qiladi. Hajm-o`lchov, ko`lam sifatlari poetik nutqda obrazli jumlar yaratishda holat, xususiyat sifatlari singari faol qo`llanadi.

III. 5.Shakl bildiruvchi sifatlarning semantik - uslubiy xususiyatlari

Shakl- ko`rinish bildiruvchi sifatlarga dumaloq, yassi, uzuhchoq, cho`zinchoq, qiyshiq, do`ng, jikkak, lo`nda, lo`ppi, egri, adil,do`ndiq, tekis kabi so`zlar kiradi. Bunday sifatlar o`z asl ma`nosida shaklni bildirsa, ko`chma ma`noda o`z leksik xususiyatidan chekinadi. Ba`zi hollarda predmetning xususiyatlarini anglatadigan so`zlar insonning tashqi a`zolariga nisbatan qo`llanilib, qo`shimcha emotsional-ekspressiv ma`no ifodalaydi. Masalan, lo`ppi so`zi asosan paxta so`ziga nisbatan ishlatilib, yetilgan, to`lishgan, bo`liq ma`nosini anglatadi. *Xolposh xolaning oppoq lo`ppi yuzini, ko`ziga surma tortib yurishini ko`rgan odam yoshi oltmishlarga borib qolgan, nevara ko`rgan xotin demasdi. (O`.Hoshimov)* degan gapda esa lo`ppi so`zi inson yuziga nisbatan qo`llanilib, do`mboq, semiz yuz ma`nosini ifodalagan.

*Yapaloq*so`zi yalpaygan, yassi, yalpoq ma`nosini anglatadi. Bu so`z yuzga nisbatan qo`llanganda yuzning tashqi ko`rinishi ma`nosiga qo`shimcha salbiy ma`no yuklaydi. *Qozizodaning yapaloq yuzida hayrat zohir bo`ldi (Mirmuhsin).*

So`lqildoq so`zi yer, non kabi so`zlar bilan qo`llanilib, yetilgan, bo`rtgan, ko`pchigan ma`nosini beradi. Masalan: *O`n yoshlar chamasidagi so`lqildoq yuzli qorachadan kelgan bola chumoli inidek tor ko`chadan halloslab chopib*

kelardi. (O.Yoqubov) Xuddi shu holatni ematsional-ekspressiv bo`yoq ifodalovchi quyidagi so`zlarda uchratish mumkin: *Ularning bari oppoq, o`n yetti yashar qizning yuziday tep-tekis, tarang kulcha yuzli, ammo faqat bo`yniga qarabgina haqiqiy yoshini bilish mumkin.* (O`.Usmonov)

Kulcha, shirmoyi asosan nonga nisbatan ishlatilib, oliy navli undan sut va yog` solib tayyorlangan kichktna dumaloq non ma`nosini ifodalaydi. Insonning yuziga nisbatan esa kulchaga o`xshash, dumaloq, lo`ppi va qizil yuz ma`nosida ishlatiladi. Badiiy adabiyotda bunday sifat leksemalarining semalarini ko`p uchratamiz. Bu holat so`zlovchining emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shakl-ko`rinish bildiruvchi sifatlar bilan holat bildiruvchi sifatlar ba`zan mos kelishi mumkin: semiz, ozg`in, pachoq, bukir kabi. U oriqqina bo`lsa ham, qo`li, boldirlari tiqmachoq, uzunchoqroq yonoqlari ham yapaloqroq, "8" raqamiga o`xshab ketadigan lablari ham yetuk qizlarga xos bo`liq tirsillama. (A.Muxtor)

Shakl-ko`rinish sifatlari ham badiiy ijodda konnotativ ma`noni yuzaga chiqarishda qo`llanadi. Ular ham predmet, ham shaxsni ifoda etishda ishlatiladi. Shaxsga nisbatan mazkur so`zlar qo`llanganda obrazlilik kuchayadi.

III. 6. Maza-ta`m bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari

Maza-ta`m bildiruvchi sifatlarga *shirin, achchiq, nordon, taxir, sho`r* va boshqa sifatlar kiradi. Bu sifatlar o`z leksik ma`nosidan tashqari ko`chma ma`noda ham ifodalanadi. Masalan: shirin bola, shirin turmush, shirin orzu, achchiq haqiqat, sho`r peshona kabi. Misollarni kuzatamiz: *Voy-voy, bu shirin bolani, naq bug`ursoqni o`zi-ku.* (G`.G`ulom) *Achchiq so`zlaringni etdim-ku hazm.* (Mirtemir) Mazkur misollardagi ko`chma ma`no ifodasi uchun ishlatilgan shirin bola, achchiq so`z kabilar obrazli ifoda uchun qo`llangan. Shirin va achchiq sifati diqqatni predmetning muayyan belgisiga tortish, belgini ta`kidlash, kuchaytirishning stilistik usuli sifatida nutqda xilma-xil konnotativ ma`nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Lekin bu so`zlar gapdan nutqning boshqa elementlaridan ajralgan holda uslubiy bo`yoqqa ega bo`lmaydi. Ko`chadan

Qobiljon odatdagi shirin mulohazalari bilan kirib keldi. (S.Ahmad) Bu misolda shirin soʻzi koʻchma nutqiy maʼno asosida konnotatsiyani yuzaga keltirgan, bunda shirin soʻzi “kishi gʻururlanadigan, lazzatlanadigan muomala-munosabat belgisi” maʼno muqobilini bildiradi.

Maza-taʼm sifatlari takirbilagi shirin va achchiq soʻzlari nisbatan keng qoʻllaniladi. Shu bilan birga, maʼno doirasining kengligi bilan xarakterlanadi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da mazkur soʻzlarning quyidagi maʼnolari izohlangan: 1. Shirasi oʻtkir, shirali. Shirin qovun. 2. Taʼmi yoqimli, mazali, lazzatli. Shirin shoʻrva. 3. Koʻchma maʼnoda: kishi huzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush yoqadigan, yoqimli, yoqimtoy: Shirin xayollar. 4. Ahil, totuv. Shirin oila. 5. Shirin (xotin-qizlar ismi)

Achchiq soʻzini kuzatamiz. Achchiq. 1. Taʼmi ogʻiz-tilni achitadigan, lovillatadigan. Achchiq garmdori. 2. Nordon, tishni qamashtiradigan. Achchiq anor. 3. Achchiq choy. Quyuq damlangan choy. 4. Sezgi aʼzolariga qattiq taʼsir qiladigan, oʻyuvchi. Achchiq tamaki. 5. Jazillatadigan, jonni achitadigan. *Dalalarda kech kuzning achchiq shamoli esa boshladi.* (S.Ahmad) 6. Koʻchma maʼnoda: Kishiga qattiq tegadigan, koʻngilga ozor beradigan; qattiq, noxush. Achchiq tanqid. 7. Tili achchiq iborasi ham achchiq soʻzi asosida shakllangan. 8. Koʻchma maʼnoda: Gʻam-iztirobli, alamli. Uning achchiq koʻz yoshlari.

Yuqorida koʻrib oʻtganimizdek, shirin sifati “ahil, totuv, farovon” kabi konnotativ maʼnolarni ifoda etishi mumkin: Bu kimningdir shirin hayoti, hayron, magʻlub bu koinot. (O.Muxtor) Quyidagi misralarda shirin leksemasi oksimaron sanʼatini yuzaga keltirgan: Meni shirin ogʻu lazzati qiynar. (A.Oripov) Sheʼriyatda shirin soʻzi koʻproq mavhum maʼnoli soʻzlar belgisini ifodalaganda ijobiy emotsional maʼnoni yuklaydi. Shukur aka bunday shirin eʼtaklarga eʼtiroz bildirardi. (N.Nazir)

Yuqoridagilardan koʻrinadiki, maza-taʼm sifatlarining ham konnotativ maʼnolari keng boʻlib, bular orasidan shirin va achchiq soʻzlari maʼno ifodasining koʻpligi bilan ajralib turadi. Taxir, chuchuk, nordon kabilar shirin va

achchiq sifatlari oralig'idagi leksemalardir. Maza-ta'm sifatlari bilan ko'plab maqol va iboralar ham shakllanganligiga guvoh bo'lamiz

III. 7. Hid bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari

Hid bildiruvchi sifatlari o'zbek tilining lug'at boyligida ta'm-maza sifatlari kabi kam miqdordadir. Sifatlarning ma'no turlari bo'yicha to'plangan misollar tahlili natijasida bu turdagi sifatlarning miqdori 10ga yaqin ekanligini ko'rsatadi. Bu tarkibga *xushbo'y*, *muattar*, *sassiq*, *babbo'y*, *qo'lansa*, *ifor* va hokazolar mansub. Shuningdek, bu belgi uchun predmet nomlaridan ham foydalaniladi, ya'ni hidni ifodalash uchun predmet nomiga "hid" so'zini qo'shib aytish orqali qo'shma sifatlari ham hosil qilinadi: *atir hidi*, *rayhon hidi*, *yog' hidi*, *kerosin hidi*, *baliq hidi* kabi. Shuningdek atir so'zining o'zi ham ba'zida hid semasini ifoda eta oladi.

Xushbo'y sifati "yoqimli hidga ega, hidi yoqimli" ma'nolarini ifoda etib, *muattar*, *ifor* kabi so'zlar bilan sinonimlikka kirishadi. *Xushbo'y* sifatining sinonimi sifatida hidli so'zi sinonimlar lug'atida keltiriladi [29, 217]. Biroq bu holatga qo'shilish qiyin. Chunki "hidli" semasi ostida har qanday hid, ya'ni ham *xushbo'y* hid, ham *qo'lansa* hid tushunilaveradi.

"Muattar" ko'proq badiiy uslubda qo'llanadi:

Mehnat-u g'ayrat-la go'zal bog'imga

Yaxshi niyat bilan ko'chat ekkanman.

Shoyad shu mehnatim qo'shilgan chog'da

Yana xushbo'y hidga burkansa chaman. (G'ayratiy)

Ba'zanjonli so'zlashuvda shirin hid, achchiq hid kabi qo'llanishlar ham uchray turadi: *Atiringizning hidi juda shirin ekan. (Gazetadan)*

Sassiq so'zi "hidi yomon, yoqimsiz, qo'lansa" ma'nosini anglatadi. Bu so'z *sassiq*, *badbo'y*, *qo'lansa* kabilar bilan sinonimlikka kirishadi. *U go'yo qorong'i, sassiq zindondan yorqin, toza ko'klam havosiga chiqqanday bo'ldi (Oybek). Qurtxona havosi bo'g'i, kishining nafasi qaytar, qandaydir badbo'y hid kelar edi. (N.Safarov)*

Sassiq leksemasi shaxsning belgisini bildirib kelganda, odatda, soʻzlovchining modal munosabatini, aniqrogʻi birovga nisbatan salbiy munosabatini ifoda etadi: *Oʻ, sassiq chol, saloming boshingdan qolsin* (O.Yoqubov).

Sassiq soʻzi kontekstda “yomon, yoqimsiz” sifatlariga xos xususiyatlar maʼnosini tashishi mumkin: Sassiq boʻlsa ham burun oʻzimizniki (H.Sulton). Bu misolda sassiq leksemasi orqali gap-soʻzi, xatti-harakatlari yoqimsiz, soʻzlovchining jini suymaydigan belgi maʼnosi ifodalangan.

Sassiq soʻzi nazmda epitet sifatida predmetning belgisini salbiy oʻttenkada koʻrsatish uchun keng qoʻllaniladi. Bu tipdagi epitetlar lirik epitelarga, yaʼni muallifning tasvirlanayotgan predmetga toʻgʻridan-toʻgʻri munosabatini anglatadigan sifatlar sirasiga kiradi: *Uchratganim kim – gulim yoki sassiq alof.* (Navoiy)

Kuzatishlar koʻrsatadiki, hid bildiruvchi sifatlar oz boʻlsa-da, ifoda semasi kengligi bilan ahamiyatlidir.

III. 8. Oʻrin va payt bildiruvchi sifatlarning semantik va uslubiy xususiyatlari

Bunday sifatlar oʻrin va paytga munosabat bildirib keladi. Bu qatorga *tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertagi, sirtqi, ichki, tashqi, oldingi, bahorgi* va boshqalar mansubdir.

-gi, -ki, -qi affikslari oʻrin-joy yoki payt bildiruvchi soʻzlardan sifat yasaydi va bu turdagi sifatlar predmetning asosdan anglashilgan joy yoki vaqtga oidlik belgisini bildiradi: oxirgi, berigi, hozirgi, chetki, ostki, tushki va hokazo [30,75].

-gi affiksi payt sifatlari kontekstda bosh maʼnodan boʻlak maʼnolarni bildirishi mumkin. Masalan, soʻnggi soʻzi muayyan hodisa, holatning yakunlovchi bosqichi, boʻgʻini semasi bilan reallashadi: Ashtarxoniylarning soʻnggi xoni Abulfayzxonning oʻgʻli Abdulmoʻmin nomida hukmdorlik qilgan. (O.Yoqubov) Soʻnggi soʻzi oxirgi, keyingi sifatlari bilan sinonimik munosabatga kirishib, narsa, harakat, hodisaning oxirida turuvchi maʼnosini beradi.

So`nggi so`zi kontekstda turli ma`noqirralarni ifodalab, nutqqa emotsional-ekspressivlikni yuklaydi. So`nggi so`zida subyektning obyektga, obyektiv borliqqa munosabati reallashadi. Tasvirlanayotgan hodisani bo`rttirib, ta`kidlab ko`rsatish, unga diqqatni jalb etish uchun so`nggi sifatidan foydalaniladi: Misli so`nggi nola, oxirgi yohu. (A.Qahhor) So`nggi so`zi epitet sifatida boshqa payt sifatlariga nisbatan ko`p qo`llanishi kuzatiladi.

So`nggi so`zi ko`chma ma`noda o`lim yo`li, inson hayotining oxiriga yetaklovchi, u dunyo bilan bog`lovchi vosita belgisini bildiradi: Do`st do`stdan ayrilsa, tirik tobut o`tar so`nggi ko`priktan, qora yerga qo`yarlar uni. (O.Matjon)Subyekt hayotining oxirgi paytida bo`layotgan hodisa yoki harakatning muhimligini ta`kidlab ko`rsatish maqsadida ham so`nggi so`zidan foydalaniladi: *So`nggi dam chorasiz muqanna sifat, dil so`zim o`zingga aytay sarosar.*(A.Oripov) Shuningdek, so`nggi so`zi “o`ta muhim, hal qiluvchi” ma`nosini anglatishi mumkin. *Mabodo onaning og`zidan mash`um va yalang`och so`nggi so`z chiqmaganida edi.* (O`.Hoshimov)

O`rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar yasama so`zlar bo`lib, bular orasida so`nggi so`zi bo`lib jonli so`zlashuvda ko`proq qo`llanadi. Oldingi, avvalgi, burungi, qadimgi, ilgarigi, sobiq so`zlari o`zaro sinonim sifatida keltiriladi [29, 9].Avvalgi, oldingi so`zlari ko`proq yaqinda bo`lib o`tgan, yaqin o`tmishga oid harakat-hodisalarga nisbatan qo`llanadi. Oldingi ko`proq so`zlashuv uslubiya-tiga xos. Ilgarigi so`zida o`tmish,avvalgi, oldingi so`zlaridagiga nisbatan uzoqroq o`tmishni bildiradi. Qadimgi so`zida o`tmish ma`nosini burungi so`zidagiga nisbatan ham kuchliroq bo`ladi. Sobiq ko`proq kitobiy (badiiy) uslubga xos va biror o`rinda, vazifada bo`lib o`tgan shaxs yoki narsalarga nisbatangina qo`llanadi: *Boboxo`ja domla mudirlikni topshirishi bilan avvalgi ahvoliga tushib qoldi.* (P.Tursun) *Azamatning yolg`iz o`zi! – deb usta Olim ilgarigi so`zini qaytaladi.* (A.Qodiriy) *Burungi vaqtda erlarga cho`ri bo`lgan xotinlar hozir erlar bilan teng.* (A.Qahhor)

O`rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar umumxalq, ishlatadigan so`zlarning qatamlaridan biridir. Ularni konnotativ ma`noifodasi sifatning ma`no jihatdan boshqa turlariga qaraganda bir oz chegaralangan.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, o`zbek tili sir-u sinoatlarga limmo-lim, benihoya murakkab, mukammal va muhtasham bir xilqatdir. Sifatning ma`noviy guruhlarining stilistik xususiyati uni yanada boyitgan va rang-barang qilgan. Biz har bir ma`noviy guruhning semantikasini tahlil qilish jarayonida buning yaqqol guvohi bo`ldik. Masalan, *shirin xayol, achchiq haqiqat, keng orzu, moviy xayol, murg`ak dil, tashna ko`ngil, munis qalb, gulgun chehra, sovuq nigoh* va hokazolarda obrazlilik vujudga kelgan bo`lib, nutqni bezash, his-tuyg`uni oshirish ustivorlik qiladi. Biz dissertatsiyamiz jarayonida bir qancha shoir va yozuvchilarimizning asarlariga murojaat qildik va keltirilgan misollarda inson qalbi, ruhiy olami, xarakter-xususiyatlarini tasvirlashda SLlaridan unumli foydalanilganiga guvohi bo`ldik. Bu, albatta, asarning badiiy estetik qiymatini oshirgan va milliy tilimiz boy va betakror ekanligini ko`rsatgan.

Umumiy xulosalar

Mavzuni tadqiq etish davomida quyidagicha xulosalarga kelindi: Tilshunoslikda sifat ma'noviy jihatdan "belgini nomlash orqali atovchi mustaqil leksemalar" va morfologik prinsipga muvofiq "darajalanuvchi, o'zgaruvchi sifatlar" turkumi sifatida belgilanadi. Ular predmet, voqea-hodisaning turli xil belgisini bildirishi, gap tarkibida ot va otlashgan so'zlardan oldin kelib, aniqlovchi vazifasini bajarishi, asliy va nisbiy, tub va yasama, sodda va qo'shma turlarga bo'linishi, substansiyaviy (otlashish) hodisasining sifatlardagi ko'rinishlari, sifat yasovchi qo'shimchalarning o'ziga xos tabiati, ularning o'zaro ma'nodoshlik va antonimlik xususiyati masalalarini yoritishi bilan xarakterlanadi. Bu borada bir qator ishlar amalga oshirilgan. Biroq sifatlarning semantik-funksional xususiyatlari, stilistikasi, ma'lum narsa asosida shakllangan sifat leksemalar kam o'rganilgan.

Sifat so'z turkumini o'rganar ekanmiz, uning etimologiyasi, so'zlarning kelib chiqishiga ham alohida e'tiborqaratdik. Zero, leksikamizdagi biror bir so'z o'z-o'zidan voqelanmaydi. Sifatlarning etimologik tahlili ularning ma'noviy xususiyatlari bilan ham uzviy bog'liq.

So'zlarning bir turkumdan ikkinchi turkumga ko'chib o'tishi, ma'lum qonuniyatlarga, o'zining tipik yo'nalishlariga ega. Konversiya yo'li bilan hosil bo'lgan sifat leksemalari va sifat so'z turkumidan otga ko'chgan so'zlar

tilshunosligimizda talaygina. Bu kabi hodisalarni ham tahlilga tortish ishimizning tarkibiy qismi sifatida belgilandi.

Nutqimizni boyitib turgan leksemalar tarkibida ma'lum narsa asosida shakllangan sifatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, buni rang-tus, maza-ta'm bildiruvchi sifatlar misolida ko'rishimiz mumkin. (Masalan: *zahar, asal, shakar, simobi, yoqut, qo'ng'ir va b.*)

Poetik matnlarda sifat leksemalar xar xil so'zlar bilan birikib, epitet vazifasiga keladi. (Jumladan, moviy ufq, yam-yashil olam, yashil fazo, moviy xayol, moviy yuksaklik, yashil do'st, yashil libos, majruh ko'ngil, murg'ak dil, gulgun chehra, makkor ko'z, shirin xayol, pok tuyg'u kabi). Bunday birikmalarda sifatlar muhim tasviriy vosita bo'lib qolmasdan, balki poetik tafakkur elementiga, estetik hodisaga aylanadi hamda nutqni bezash bilan birga, his-tuyg'uni, fikrni obrazli ifodalash vositasi darajasiga ko'tariladi.

Xarakter –xususiyat sifatlari mazkur turkumda alohida mavqega ega. Ularning ma'no imkoniyatlari juda keng. Ularga xos bo'lgan *ijobiy va salbiy* semalar poetik matn talabi bilan turli xil okkazional semalarni ifodalash, inson ichki olamini tasvirlashda muhim uslubiy vositalaridan biri sanaladi.

Maza-ta'm bildiruvchi SL soni miqdor jihatidan kam bo'lsa-da, ularning ham semantik xususiyati, ko'chma ma'nolari o'ziga xos. Birgina shirin so'zi boshqa so'zlar bilan birikib, kontekstda o'nlab ma'nolarda keladi. Masalan, shirin bola, shirin so'z, shirin xayollar, shirin tabassum va b. Xuddi shu singari *shakl-ko'rinish, hid bildiruvchi sifatlar* ham badiiy asarlarda turli konnotativ vazifalarni bajarishi aniqlandi.

Sifat ma'noviy guruhlardan yana biri o'rin-paytga munosabat bildiruvchi sifatlardir. Ular ham o'zining keng qamrovligi, stilistik xususiyatui bilan ajralib turadi. Masalan, *so'nggi* so'zi asl ma'nosiga ko'ra muayyan holatnin yakunlovchi bosqichni bo'lsa, matnda *umrning so'ngi, so'nggi yo'l, so'nggi so'z, so'nggi nola* ma'nolarida obrazlilikni vujudga keltiradi.

Umuman olganda, sifat leksemalardan nutq jarayonida, jumladan, badiiy matnlarda o'rinli va oqilona foydalanish, uslubiy ta'sirchanlikni oshirish,

ma'noni kuchaytirishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Davrlar o'tishi bilan til vositalarining nutqda qo'llanish imkoniyati kengayib borganidek, sifat leksemalari ham yangi okkazional semalari bilan ta'sirchanlikni oshirib bormoqda. Bu esa kelgusida sifat leksemalarga oid kuzatishlarni yana yangi materiallar asosida davom ettirish zaruratini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Siyosiy adabiyotlar

1. Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: Ўзбекистон, 1999. – 686 б.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. 176 б.

II. Ilmiy risola, darslik va o'quv qo'llanmalar

3. Абдурахмонов Г., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1973. 320 б.
4. Абдурахмонов Г., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Т.: Ўқитувчи, 1982. 168 б.
5. Абдурахмонов Н. Қадимги туркий тил. Т.: Ўқитувчи, 1989. 160 б.
6. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005. 140 б.
7. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т.: Ўқитувчи, 1996. 76 б.
8. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. Т.: Мухаррир, 2010, 132 б.
9. Asqarova M, Yunusov R va boshqalar. O'zbek tili praktikumi. Jizzax - 2007

10. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. (Ўқув-усулий қўлланма). Т.: Фан, 2002. 137 б.
11. Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва қўчиш ҳоллари. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 135 б.
12. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаши. Т.: Ўқитувчи, 1989. 112 б.
13. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. Ф.Камол таҳрири остида. Т.: Фан, 1957. 470 б.
14. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Фонетика, лексикология, морфология. Ғ.А. Абдурахмоновнинг умумий таҳрири остида. Т.: Фан, 1966, 392 б.
15. Кононов А.Н. Послелогии в современном узбекском литературном языке. Т.: Изд. ТашГУ. 1951. 48 с.
16. Маматов Н. Ўзбек тилида қўшма сўзлар. Т.: Фан, 1982. 112 б.
17. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1995. 166 б.
18. Mahmudov N. va b. Ona tili, 6-sinf darsligi. Т.: Tasvir, 2005, 176 б.
19. Мирзаев М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Машқлар тўплами. Т.: Ўқитувчи, 1963. 143 б.
20. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Qarshi, 2005.
21. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. Т.: Ўқитувчи, 1993. 89 б.
22. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т.: Ўқитувчи, 1995. 128 б.
23. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. Т.: Фан, 1989. 190 с.
24. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т.: Шарқ, 2001. 164 б.
25. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослигининг тарихи. Т.: Ўзбекистон, 2002. 237 б.
26. Олимов М. Рисолаи сарф ёки анъанавий морфология. Ўқув-методик қўлланма. Т.: Фан, 2003. 111 бет.

27. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бакалавр – ўзбек филологияси ихтисослиги учун қўлланма. Бухоро, «Бухоро», 2005. 228 б.
28. Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти. Т.: Фан, 124 б.
29. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o`zbek tili (darslik). Т.: Universitet, 2006. 464 б.
30. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифатлар. Т.: Фан, 1974. 127 б.
31. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q Hozirgi o`zbek adabiy tili. Т.: Фан, 2011. 335 б.
32. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. Т.: Ўзбекистон, 1992. 339 б.
33. Холмуродов А. Креолизованные и некреолизованные подсистемы современного узбекского словообразования. Т.: Фан, 1989. –143 с.
34. Хўжаев Т. ”Яхши” типдаги сўзларнинг гапда ҳол вазифасида қўлланишга доир. А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университетининг асарлари. Самарқанд, 1960. 220 б.
35. Зикриллаев Ғ. Н. Ўзбек тили морфологияси. Филологик ихтисосликлар учун қўлланма. Бухоро, 1994. 163 б.
36. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Т.: Фан, 1975. 612 б.
37. Шоабдурахмонов Ш ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультетлари учун дарслик. Т.: Ўқитувчи, 1980. 448 б.

III. Lug`atlar

38. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи, 1974. 307 б.
39. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т.: Университет, 2000. 600 б.
40. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. Т.: Ўзб. Мил. Энцикл., 2006–2008.

IV. Ilmiy maqolalar

41. Ҳакимова М. Лексик вақт маъносининг компонентлар бўйича таҳлили. // Тил ва адабиёт таълими. 2003. 2-сон, 42-44 б.
42. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз яшаш усули масаласига доир . //Ўзбек тили ва адабиёти. 1999, 4-сон. 35–39-бетлар.
43. Ҳожиёв А. Ясама сўз лисоний бирликми ёки нутқ бирлигими?// Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. 1-сон, 49–54-бетлар.
44. Жиянова Н. Вақт белгиларини ифодаловчи нумератив сўзлар. //Тил ва адабиёт таълими. 1998. 1-сон. Б 49-52
45. Латипов О. Зоонимлар семантикасига доир айрим мулоҳазалар. //Тил ва адабиёт таълими. 2003, 3-сон Б 51-53
46. Мамаражабова З. Кўриниш сифатларининг грамматик хусусиятлари. // Тил ва адабиёт таълими. 2002 2-сон. 22-23 бетлар.
47. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001.4-сон. 5–7-бетлар.
48. Нурмонов А. Ўзбек тили назарий морфологиясининг асосий тамойиллари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998. 2-сон. 7–10-бетлар.
49. Pardayev Z. Rang-tus bildiruvchi sifatlarni o'rganish. // Til va adabiyot ta'limi, 2003. 3-son 15-17 betlar
50. Сулаймонова Г. “Яхши” сўзининг полифункционаллиги. Тил ва адабиёт таълими. 2005, 6-сон. 24-25-бетлар.
51. Тожиёв Ё. Айрим аффикслар ҳақида баъзи талқинлар. Ўзбек тили ва адабиёти. 1999, 1-сон. 39-42-бетлар.
52. Tojimatov N. Tub sifatlarni ma'nolarini illyustrativ reallashtirish. // Til va adabiyot ta'limi, 2002. 5-son. 27-30 betlar.
53. Худойберганова З. Ўзбек ва турк тилларида ўрин ҳоли. // Тил ва адабиёт таълими. 2002, 5-сон.78–80-бетлар.
54. Ўтанова С. Алишер Навоий лирикасида сарик ранг семантикаси. Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. 4-сон. 32-35-бетлар.

V.Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

55. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. Филол.фанлари номз. ... дис. Тошкент, 1994. 141 б.

56. Мамаражабова З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Филол.фанлари номз. ...дис. автореф. Тошкент: 2004. 24 б.

57. Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. Самарқанд: 2004. 22 б.

58. Турдибоев Т.Ҳ. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. Тошкент: 1996. 21 б.

VI. Internet sahifalari.

59. <http://www.onatili.uz>

60. [http://www. Tilshunoslik.uz](http://www.Tilshunoslik.uz)

61. <http://www. Ziyo.uz>

62. <http://www. Ziyonet.uz>

63. <http://www. Adabiyot.uz>

64. [http://www.samdu.uz.](http://www.samdu.uz)

65. [http://www. xorazmmoi.uz.](http://www. xorazmmoi.uz)